



HARVARD
Dataverse

Volume 1 Issue 8
December 2023

ISSN: 2992-8877

Innovation Science and Research

International scientific journal



www.sciencejournal.uz

International Scientific Journal
INNOVATION
SCIENCE AND RESEARCH
Volume 1 Issue 8
December 2023



SCIENCEJOURNAL.UZ

International Scientific Journal INNOVATION SCIENCE AND RESEARCH. volume 1 issue 8 – 149p.

The journal publishes the results of research conducted by professors and teachers and independent researchers of the Republic of Uzbekistan and international higher education institutions in the form of scientific articles.

© Innovation Science and Research

© Authors



Editorial	
Editor in chief Juraev Ziyovuddin Mukhitdinovich	Bosh muharrir Jurayev Ziyovuddin Muhitdinovich
Preparing for publishing Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna	Nashrga tayyorlovchi Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna
MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD	
INNOVATION SCIENCE AND RESEARCH <small>JOURNAL</small>	<p>Juraev Ziyovuddin Mukhitdinovich <i>Doctoral student (DSc) of the department "Study of Islamic Studies and Islamic Civilization ICESCO" of the International Islamic Academy of Uzbekistan, Faculty of Islamic Studies and International Relations</i></p> <p>Ismoilova Muhayyo Qozoqboyevna <i>Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi, candidate of philological Sciences</i></p> <p>Artikova Nargiza Shuxratovna <i>Teacher of the Department of theory of Primary Education at Chirchik State Pedagogical University</i></p> <p>Koziev Umidjon Yandashalievich <i>Head of the Department of Uzbek linguistics, PhD, Associate Professor member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"</i></p> <p>Dilfuza Jalolova <i>Candidate of Medical Sciences, Associate Professor of Samarkand State Medical University.</i></p> <p>Umarova Maxliyo Yunusovna <i>Uzbekistan State University of world languages, candidate of philosophical Sciences, Associate Professor</i></p> <p>Arslanov Sharafutdin Sultanovich <i>doctor of chemical sciences, professor</i></p> <p>Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences</i></p> <p>Oripov Orolboy Ahmedovich <i>Navoi State Pedagogical Institute, PhD</i></p> <p>Fazliyeva Zebo Kamarbekovna <i>Uzbekistan State Academy of choreography, associate professor</i></p> <p>Artikov Askar Akbarovich <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department "theory and methodology of football" of the Uzbek State University of physical education and sports</i></p>

Darvishov Ibroxim

Associate professor of the Department of Uzbek linguistics member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research

Sevara Nazarova

Philosophy Doctor on Agricultural sciences, Associate Professor of the Department of Soil Science of Bukhara State University.

**SUV OMBORLARIDAGI SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI TIZIMLI
TAHLILI VA MUHOFAZA QILISH USULLARI**

**METHODS OF SYSTEMATIC ANALYSIS AND PROTECTION OF THE USE
OF WATER RESOURCES IN WATER RESERVOIRS**

**МЕТОДЫ СИСТЕМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА И ОХРАНЫ
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ВОДОЕМНЫХ ВОДОЕМОВ**

T.A.Xo'jakulov (PhD) dotsent

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universitet*

S.A.Raximberdiyev

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universitet magistranti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10416899>

Annotatsiya: Maqolada suv omborlaridagi suv sarf xarajatlari va ularda qancha suv zaxiralari mavjudligi va suv omborlarining xavfsizligi qanday taminlanganligi o'rganildi. Daryolar suv rejimini tartibga solish, to'g'onlar yordamida suvni yig'ish va saqlash, suv omborlaridan kompleks va ulardan istiqbolli foydalanish masalalariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Gidrotexnik inshootlar, to'g'onli suv omborlari, dambali suv omborlari, vodovpusk, sel toshqinlari, quyiluvchi suv omborlari, o'zanli suv omborlari, ekspluatatsiya, suv zaxiralari miqdorlari.

Abstract: The article examines the costs of water consumption in reservoirs, how much water reserves are available in them, and how the safety of reservoirs is ensured. The issues of regulation of water regime of rivers, collection and storage of water with the help of dams, comprehensive and prospective use of water reservoirs are discussed.

Key words: Hydrotechnical constructions, reservoirs with dams, reservoirs with dams, water reservoirs, floods, overflow reservoirs, reservoirs with channels, operation, water reserves.

Kirish. Suv ombori — to'g'onlar yordamida suvni yig'ish va saklash uchun quriladigan sun'iy suv havzasi. Kompleks foydalanishga mo'ljallangan Suv ombori xalq xo'jaligidagi bir qancha tarmoqlar (sug'orish, suv ta'minoti, elektr energiyasi, kemachilik, baliqchilik, toshqinlarga qarshi kurashish va boshqalar) ehtiyojini qondiradi. Yil davomida daryo oqimlarining o'zgarib turishi va uning hudud bo'ylab notekis taqsimlanganligi Suv ombori barpo etishga zarurat tug'diradi. Shu sababli suv ombori

oqimni fasllar va yillar bo'yicha tartibga soladi, kanal va boshqa suv o'tkazish inshootlari bilan birga hududlar bo'ylab qayta taqsimlash samarasini oshirishdan iborat bo'ladi.

O'rta Osiyo hududida suv omborlari, asosan, ekinzorlarni sug'orish, energetika va suv ta'minotini yaxshilash uchun quriladi. O'rta Osiyo hududida 75 ta. Ularning yalpi umumiy hajmi qariyb 50 mlrd. m³. Amudaryo va Sirdaryo havzalarida yirik suv omborlari (To'xtag'ul, Qayroqqum, Chordara, Chorvoq, Norak, Tuyamo'yin va boshqalar) qurilgan. Suv omborlari qurilishi natijasida O'zbekistonda 4,3 mln.ga dan ortiq yerda sug'orma dehqonchilik qilish, suv resurrlaridan gidroenergetika va baliqchilik maqsadlarida yanada kengroq foydalanish imkoniyatlari yaratildi.

Ichki suv resurslarini ifloslanish manbalari suvning fizik xossalari, ximiyaviy tarkibi, suv havzalarini antropogen, tabiiy muhofaza qilish, sun'iy ifloslanish, mineral, organik, radioaktiv darajasi qaralsa, suvni mexanik, suvni kimyoviy, elektroliz, biologik tozalash usulidan foydalanib kelinmoqda.

Planetamizdagi suvning 93.96 % ini okean va dengiz suvlari, 4.12 % ini yer osti suvlari, 1.65 % ini doimiy muzliklar suvlari, 0.026 % ini ko'l suvlari va faqatgina 0.0001 % ini daryo suvlari tashkil etadi. Dunyodagi okean va dengizlarning umumiy maydoni quruqlik yuzasiga qaraganda 2,5 barobar ko'pdir. Okean suvlari yer sharining 3/4 qismini egallagan bo'lib, o'rtacha qalinligi 4000 m ga teng.

Yer yuzasining jami chuchuk suv miqdori 84827200 km kubni tashkil qilib, bu umumiy suv miqdorining 6 % ini tashkil etadi. Ushbu suvning 60 mln. km. kubini yer osti suvlari, 24 mln. km. kubini muz va qorliklarga, 750 ming km. kubini ko'l suvlari, 75 ming km. kubini tuproqdagi namlik va faqatgina 1.2 ming km. kubini chuchuk daryo suvlari tashkil etadi. Yer yuzidagi jami daryolar bir yilda okeanlarga 45 ming km. kub suv olib keladi.

Suv resurslarini qayta tiklanish va tozalanish qobiliyatiga qaramasdan, qishloq xo'jaligi va sanoatni jadal rivojlanishi chuchuk suv resurslari sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Agar 1900 yilda jahonda suv sarfi 579 km. kubni tashkil qilgan bo'lsa, 2000 yilga kelib bu ko'rsatkich 9 barobarga oshdi, 2020 yilga kelib bu ko'rsatkich 20 barobarga yetish bashorat qilinmoqda.

Qishloq xo'jaligida suv sarflanishi 1940 yildan kamayib bormoqda va aksincha sanoatda uning hajmi 2 barobarga oshdi. Hozirgi zamonga kelib umumiy suv iste'molining 65% i (yoki qaytmaydigan suvning 85%i) qishloq xo'jaligiga sarflanmoqda, chunki 1900 yilda so'g'oriladigan yerlarning maydoni 47 mln. ga.ni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilga kelib 347 mln. ga.ni tashkil etdi. 2015 yilda esa bu ko'rsatkichlar yarim million ga. ni tashkil qilinmoqda.

Yer kurrasida suvning beto'xtov aylanishi natijasida dunyo okeanlarining suvi 3000 yilda, yer osti suvi 5000 yilda, muzliklar 8000 yilda, ko'llar 7 yilda, tuproqdagi namlik esa bir yilda, daryo suvlari 31 sutkada bir marta almashinib, yangilanib turadi.

Suv ayniqsa organizmlarning yashashi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Yer yuzidagi tirik organizm suvsiz yashashi mumkin emas. Chunki har qanday hayvon, o'simlik va kishilarning xujayra va to'qimalarida ma'lum miqdorda suv bor. O'simlik va hayvonlar organizmida suvning miqdori 50-98 %gacha bo'ladi. Go'sht tarkibida suv 50 % bo'lsa, sutda 87-98 %, sabzavotda 80-95 % ga yetadi. Suv ayniqsa kishi organizmi

uchun zarur. Chunki inson vaznining 70 % i suvdan iborat. Uch kunlik bola badanining 97 % ini suv tashkil etadi. Shu sababli inson ovqasiz bir necha xaftagacha yashasa ham, suvsiz bir necha kun yashashi mumkin, xolos. Shunday qilib, suv inson badanida ma'lum miqdorda doimo bo'lishi zarur, agar inson badanidagi suvning 12% i yo'qolsa, u xalok bo'ladi. Bulardan tashqari, suv organizm uchun termoregulyator vazifasini ham bajaradi. Shu sababli bir kishi sutkada havoning haroratiga qarab 2,4-4 litrdan 6-6,5 litrgacha suv ichadi. Suv inson uchun, ayniqsa shaxsiy gigiyenasi uchun ham zarurdir. Har bir kishi o'rtacha shaxsiy gigiyenasi va maishiy-kommunal zaruriyatlari uchun sutkada 150-200 litr suv ishlatadi.

Tadqiqot natijalari: Bir suvomboridagi suv taqsimlash jaroyoni o'rganilib qanday natijalar va xulosalar olingani ko'rishimiz mumkin va shu orqali boshqa suvom omborlarini ham shutadqiqotlarni joriy etish ko'zda tutilgan. Insonlarning xo'jalik ehtiyojlari ortgani sari ularning suv resurslariga bo'lgan ehtiyoji ham ortib boradi. Shu bois suv omborlaridagi suvlardan oqilona foydalanish tizimini ishlab chiqish va foydalanish va xalqqa uzliksiz suv yetkazib berishni ta'minlashdan iborat. Suvlardan qanday foydalanish va suv omborlarida jamg'arilgan suvlardan xo'jalikning barcha tarmoqlarini suvga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Mamlakatimizda suv omborlari barpo etishning asosiy maqsadi ham to'g'onlar, selxonalar barpo etish orqali daryolar suv rejimini tartibga solish va barpo etilgan suv omborlaridan kaskadli GESlar tashkil etilib, gidroenergiya maqsadida istiqbolli foydalanish mo'ljallangan. Hozirgi kunda mamlakatimizda 55 tadan ortiq suv omborlari mavjud bo'lib, ularning umumiy hajmi 19.2 km³, foydali hajmi 15.3 km³ ni tashkil qiladi. Ularning 20 tasi yirik suv omborlari hisoblanib, umumiy hajmi 17.8 km³, foydali hajmi 14.1 km³ ni tashkil etadi. Suv omborlarining xo'jalikdagi ahamiyati beqiyosdir. Chunki xo'jalikning biror bir tarmog'i yo'qki, suvdan foydalanmasin.

Suv omborlari barpo etish suv resurslaridan oqilona va unumli foydalanish imkonini beradi. Suv omborlarida to'plangan suv yerlarni sug'orish aholi punktlari va sanoat korxonalarini suv bilan ta'minlashda, daryo, kanallarni tozalashda, yilning qurg'oqchil davrida suv tanqisligi muammolarini bartaraf etishda keng foydalaniladi. Suv omborlaridan baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish, suv transporti, dam olish, suv sporti maqsadlarida ham keng foydalanish mumkin. So'nggi yillarda mamlakatimizda daryolar suv rejimini tartibga solish bilan birgalikda suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida ko'plab suv omborlari tashkil etilgan. Tuyamo'yin (Amudaryo), Chordara (Sirdaryo), Tuyabo'g'iz (Ohangaron), Andijon (Qoradaryo), Quyimozor (Amu-Zarafshon), Oqtepa (Amu-Zang), Janubiy Surxon (Surxondaryo), Chimqo'rg'on (Qashqadaryo), Sho'rko'l (Zarafshon), To'dako'l (Amu - Buxoro kanali), Qorovultepa (Eski Tuyatortar kanali), Uchqizil (Amu - Zang kanali), Kosonsoy (Kosonsoy), Karkidon (Isfayramsoy), Zomin (Zominsoy), Jizzax (Sangzor), Qamashi (Qorabog'daryo), Oqdaryo (Oqdaryo), Hisorak (Oqsuv), daryosida qurilgan. Suv omborlarining xo'jalikdagi ahamiyati nihoyatda katta. Mamlakatimizda daryolar suv rejimini tartibga solish maqsadida barpo etilgan suv omborlaridan xo'jalik ehtiyojlarida ham keng ko'lamda foydalanilmoqda. Qishloq xo'jaligi asosan sug'orma dehqonchilikka asoslangan.

Tuyamo‘yin suv ombori - Amudaryoning quyi oqimidagi, Tuyamo‘yin tor darasida qurilgan yirik gidrotexnika inshooti. Daryo suvini irrigatsiya va energetika maqsadlarida mavsumiy rostdash uchun xizmat qiladi. Gidrouzel qurilishi 1970-yildan boshlangan. 1978-yilda 1navbati va 1983-yilda to‘liq ishga tushirilgan. Umumiy hajmi 7800 mln. m³. Suv ombori 4 ta — 1 ta o‘zanli va chap sohildagi tabiiy chuqurliklarda barpo etilgan, suv uzatilib to‘ldiriladigan 3 ta ombordan (Kaparas, Sultonsanjar, Qo‘shbuloq) iborat. Gidrouzel Amudaryoning chap va o‘ng sohillariga suv chiqarishni ta‘minlaydi. Tuyamo‘yin suv omborio. to‘g‘onlari suvni damlab, satxini kutarilishga olib keladi. Bunda yuqori va pastki byeflardagi eng katga farq 18–24 m ga yetib boradi. Sultonsanjar pastligini suv bilan tuddirish uchun Tuyamo‘yin gidrouzelidan g‘arb tomonga qarab 2,5 km uzunlikda sarfi 50 m³/sek bo‘lgan kanal qurilgan. Tuyamo‘yin suv omborio. Tuyamo‘yin G‘ESning barqaror ishlashini ta‘minlaydi. Amudaryodan Tuyamo‘yin suv omboriga har yili oqib keladigan 200 mln.t loyqaoqiziqqlarni chiqarib yuboradigan inshootlar barpo etilib suvni sifatini va undan yaxshiroq vasamarali foydalanishni boshlab yuborilgan. Bu yurtimizdagi har qanday suv bilan bog‘liq bo‘lgan inshoot yoki bo‘lmasa infrostrukturasi suv bilan bog‘lik bo‘lgan sohlarga ham mumlik darajasini birinchi o‘ringa olib chiqadi.

Suv ombori	Daryo	Ishga tushgan yili	Suv sig‘imi, mln.m ³	Maydoni, km ²
Tuyamo‘yin	Amudaryo	1979	7300	790,0
Chorbog‘	Chirchiq	1978	2000	40,3
Andijon	Qoradaryo	1970	1750	60,0
Tolimarjon	Amudaryo	1977	1530	77,4
To‘dako‘l	Zarafshon	1983	875	225,0
Kattaqo‘rg‘on	Zarafshon	1952	845	83,6
Janubiy Surxon	Surxondaryo	1964	800	65,0
Chimqo‘rg‘on	Qashqadaryo	1964	440	45,1
Ohangaron (Turk)	Ohangaron	1974	339	8,1
Quyimozor	Zarafshon	1957	306	16,3
Pachkamar	Fuzordaryo	1967	243	12,4
Karkidon	Quvasoy	1964	218	9,5

Tuyabo'g'iz	Ohangaron	1964	204	20,7
O'isorak	Fuzordaryo	1985	170	4,1
Shorko'l	Zarafshon	1983	170	17,0
Uchqizil	Surxondaryo	1960	160	10,0
Kosonsoy (o'rta to'qay)	Kosonsoy	1954	160	7,6
Jizzax	Sanzar	1962	73,5	12,5
Uchqo'rg'on	Norin	1961	54,0	3,7

Suv resurslarini toz saqlashda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda ishlatilgan kimyoviy o'g'itlar bilan ifloslanishini kamaytirish kerak.

Buning uchun quyidagilarga to'la amal qilish zarur: o'g'itlarni ishlatish qoidalariga va ishlatish normalariga to'la rioya qilish zarur; o'g'itlarni ekin ekilgan joylarning o'ziga solish zarur; dalalarda o'g'itlarni vaqtincha saqlaydigan maxsus berk omborlar barpo etish; dalada ochiq holda o'g'itlarni uzoq vaqt qoldirmaslik, o'g'it solingan joylardan sug'orish uchun quyilgan suvni ekin ekilgan maydondan tashqariga oqib chiqishiga chek qo'yish va boshqalar;

- suv havzalarining zaharli ximikatlar (pestisidlar) bilan ifloslanishining oldini olish juda muhimdir. Chunki u o'ta zaharli bo'lganligi sababli suv havzalariga tushib suvdagi o'simlik va hayvonlarning qirilib ketishiga sabab bo'lmoqda;

- daryo suvlarini ifloslanishidan saqlashda zovur-drenaj suvlaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, zovur-drenaj suvlarini to'g'ridan-to'g'ri daryo va kanallarga tashlash maqsadga muvofiq emas. O'rta Osiyo sharoitida zovur-drenaj suvlarini bir o'zanga to'plab Orolga oqizishga erishish kerak. Bunda birinchidan, daryo suvlari ifloslanmaydi, ikkinchidan, Orol suv sathini ma'lum yuzada ushlab turishiga ko'maklashadi;

- suv havzalarini toza saqlash uchun chorvachilik komplekslari va fermalardan chiqqan iflos suvlar va go'nglarini suv havzalariga tushishiga mutlaqo chek qo'yish kerak. Buning uchun chorvachilik komplekslari va fermalarni shunday joylashtirish kerakki, birinchidan, uning chiqindi iflos suvlari, go'nglaridan foydalanadigan qishloq xo'jalik ekin maydonlariga yaqin bo'lsin, ikkinchidan chorvachilik komplekslari va fermalar tabiiy suv manbalaridan uzoqroqda bo'lib, uning iflos chiqindilari yomg'ir suvlari bilan yuvilib, soy, ariq, daryo va kanalga tushmasin;

- suv resurslari toza saqlashda sanoat, maishiy kommunal xo'jaliklaridan chiqqan o'ta iflos suvlarni yer ostida saqlash usuli katta ahamiyatga ega. Bunda iflos oqava suvlar yer osti suv qatlamiga aloqasi bo'lmagan jinslar orasiga yuboriladi. Vaqt o'tishi bilan ular tabiiy holda tozalanib, so'ngra suvli qatlamga o'tishi mumkin;

- suv resurslarini toza saqlash va uning sifatini yaxshilashga qaratilgan yana bir chora-tadbir bu yog'och oqizishda daryolarning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, jumladan yog'och oqizish qoida-qonunlariga rioya qilish, daryolarda yog'ochlarni yakka-yakka

oqizmaslik, daryolarga yog‘ochlarning cho‘kib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik va daryolarni yog‘ochlardan tozalab turishdir;

- suv resurslarini ifloslanishdan saqlashda va uni qayta tiklashda gidrologik-geografik chora-tadbirlar ham muhim rol o‘ynaydi.

Gidrologik-geografik chora-tadbirlarga daryolar suv rejimini boshqarish, yer osti suv omborlarini tashkil etish, o‘simliklar qoplamini, ya‘ni o‘rmonlar maydonini kengaytirish kabilar kiradi;

Sanoat va urbanizatsiya jarayonining hozirgi darajasida suv resurslarini ifloslanishdan saqlash va uning sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning o‘zi yetarli emas. Shu sababdan, iflos oqava chiqindi suvlarni tozalab va zararsizlantirilib, so‘ngra tabiiy manbalarga oqizish kerak. Jahonning ko‘p mamlakatlarida iflos oqava chiqindi suvlarni tozalashda bir qator usullardan foydalanilmoqda.

Suv resurslarini tozalash va uni ist‘molga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mexanik, kimyoviy, elektroliz, biologik kabi tozalash usullaridan keng foydalanilmoqda.

Iflos oqava chiqindi suvlarni mexanik usul bilan tozalashda maxsus inshoot qurilib, suvda erimaydigan moddalar ushlab qolinadi. Agar suvdagi aralashmalarning hajmi 5 mm dan katta bo‘lsa temir panjara yordamida, undan kichik bo‘lsa, temir to‘rlar orqali tutib olinadi. Iflos suvlar ustida suzib yuruvchi suyuq moddalarni yog‘utgich, moytutgich, nefttutgich, smolatutgich bilan ushlab qolinadi. Shuningdek, iflos suvlar maxsus suv tindirgichlarda tindirilib, qattiq zarrachalar cho‘ktiriladi, yengillari suv yuzasiga chiqarilib, ushlab olinadi.

Mexanik usul bilan maishiy xo‘jalik chiqindi suvlaridagi erimay qolgan aralashmalarni 60%gacha, sanoat chiqindi suvlaridagi o‘sha moddalarni 95%gacha tozalash mumkin. Bunga Toshkent shahridagi Salor chiqindi suvlarni tozalovchi inshoot tipik misoldir.

Kimyoviy tozalash usulida iflos chiqindi suvni tozalashda unga reagentlar (reaktivlar) qo‘shib, reaksiyaga kiritib, erigan va erimagan holdagi ifloslantiruvchi moddalar cho‘ktiriladi yoki zararsizlantiriladi. Iflos suvlarni kimyoviy tozalash usuli orqali suvdagi erimagan moddalarni 95 % gacha, erigan holdagisini 25 % gacha tozalash mumkin.

Elektroliz tozalash usulida maxsus inshootda (elektrolizlarda) to‘plangan iflos chiqindi suvga elektr toki yuboriladi. Natijada iflos suvdagi zararli moddalar yemiriladi, metallar, kislotalar va boshqa anorganik moddalar esa suvdan ajratib olinadi. Ushbu usul so‘nggi yillarda jahonning ko‘p mamlakatlarida qo‘llanilmoqda.

Ma‘lumki, mexanik, kimyoviy va elektroliz usullari bilan iflos suvlarni tozalash birinchi bosqich hisoblanadi. Ikkinchi bosqich esa mexanik, kimyoviy va elektroliz usuli yordamida tozalangansuvlarni yana biologik tozalashdan o‘tkazish, so‘ngra suv havzalariga tashlashdan iborat.

Xulosa

Mamlakatimizda mavjud suv omborlaridan ko‘pmaqsadli foydalanish usullarini rivojlantirish va bu sohani takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Suv omborlarining qurilishida ularni texnik jihatdan mukammal holatda barpo etish, daryolar

suv rejimini tartibga solish, gidroenergetika, baliqchilik va rekreatsiya maqsadlarida samarali foydalanishni tashkil qilish bilan birga xalq xo'jaligining ehtiyojlarida suv resurslaridan unumli va tejab-tergab, oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor berilishi talab etiladi. Yaqin kelajakda suv tahlillarini suniy ya'ni qanday joylarga qanday suv kerak qaysi fasllarga qarab taqsimlaydigan suniy intellektdan foydalanishni boshlash ham Suv omborlaridagi suvlardan oqilona foydalish bilimlarini butun dunyoga yangi model bo'lib kirib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. T.A Xujakulov. The problems of information and telecommunication technologies. The Republican Scientific and Technical Conference " Tashkent 2015. 86-88 p.
2. T.A Xujakulov. The problems of information and telecommunication technologies. The Republican Scientific and Technical Conference " Tashkent 2015. 86-88 p.
3. T.A. Xujakulov., A.Oteniyozov., E.Holikov. "Problems of Integrated Water Resources Management". Materials of the International Scientific and Practical Conference from 190-191.
4. M.Yakubov, T.A.Xujakulov "Aral Sea" Materials for international scientific and practical conference from 188-190
5. Rozanov N.P. Gidrotexnika inshootlari (rus tilida). – M., 1985.
6. Bakiev M.R., Yangiev A.A., Qodirov O. Gidrotexnika inshootlari. – T., 2002.
7. Bakiev M.R., Nosirov B.SH., Xo'jaqulov R.T. Gidrotexnika inshootlari. – T., 2007.
8. Rahimboev F.M. Gidrotexnikadan ruscha-o'zbekcha qisqacha izohli lug'at. – T., 1996.
9. Mirzayev S.Sh. Orol tangligi muammosi va uni bartaraf qilish yo'llari. Ma'ruzalar to'plami. - T., TIQXMII, 1994. - 54 b.
10. Muradov Sh.O., Valiyev X.I., Xolbayev B.M. Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish. - T., "Aloqachi", 2007, 160 bet.
11. Qodirov A. O 'zbekiston irrigatsiyasi tarixidan lavhalar. - T., "Xalq merosi" nashriyoti, 1998. - 141b.
12. Yusupov G'.U. Xolboyev B.M. Geologiya va gidrogeologiya asoslari. Ikkinchi nashri. -T.: "Yangi asr avlodi", 2005, 384 b.
13. Philip P. Micklin. The history of the Aral sea problem: Critical principles and lessons for Sustainable Development. Prepared for the Roundtable Meeting on problems of Sustainable Development and Tasks of the National Commission for the 153 Republic of Uzbekistan.
14. Инструкция по ведению натуральных наблюдений за техническим состоянием сооружений на водохранилищах для оценки их надежности / САНИИРИ.-Ташкент, 1990, 37 с.

УДК 621.311.245

MUQOBIL ENERGIYA VOSITALARI VA ULARNING SO'NGGI YONDASHUVLARI

Ilyosov Botir Qodirovich

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy Universiteti Xarbiy tayyorgarlik
o'quv markazi o'qituvchisi*

Qadamboev Shoxruxbek Jamoliddin o'g'li

Tashkent davlat transport universiteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10416913>

Annotatsiya: Ushbu annotatsiya, muqobil energiya vositalari va ularning so'nggi yondashuvlarini keng va amaliyotchi ko'rinishda ta'riflaydi. Maqola, so'nggi yillarda energiya sohasida o'zlashtirilgan yangiliklar va yondashuvlar haqida tushuncha bera oladigan shaklda tuzilgan. Muqobil energiya vositalari turlari, masalan, quyosh paneli, shamol energetikasi, gidroenergetika, geotermal energiya, biomassa va biogaz, ta'riflangan. Har bir tur, eng so'nggi yillarda o'zlarini qanday rivojlantirishganligi va qanday yondashuvlar bilan ta'minlanganligi, muqobil energiyani olishda qo'llangan eng so'nggi texnologiyalarni qanday ishlatishni ta'kidlaydi. Maqolada ko'rsatilgan muqobil energiya vositalari, atrof-muhitni saqlash, energiya mustaqilini oshirish va energiya iste'moli sohasida global islohotlarga qanday qo'llanilishiga oid muhim ma'lumotlar berilgan. Yangi yondashuvlar, energiya manbalari va ularning cheklanishi masalalari ham ta'kidlangan. Maqola, muqobil energiya sohasidagi eng so'nggi yangiliklarni va yondashuvlarni bilish uchun ko'p tajribali ma'lumotlar taqdim etadi va o'quvchilarga eng so'nggi texnologiyalardan foydalanish va energiya saqlashda qanday qadam qo'llashadi deb fikr soladi.

Kalit so'zlar: *Energiya , panel , maba , texnologiya , ekologik , potensial , ko'rsatkichlar , yondashuvlar .*

Bugun dunyoda energiya sohasidagi yangi yondashuvlar, muqobil energiya vositalari orqali o'sib borayotgan muhim jarayonlardan biri sifatida ko'rinadi. Bu muqobil energiya vositalari, yuqori samarali va ekologik energiya istiqboli uchun katta potensial ega bo'lgan texnologiyalardir. Quyosh, shamol, gidroenergetika, biomassa, va geotermal energiya turlari energiya olishda keng qamrovli o'zaro almashish yaratadi.

Quyosh Energiyasi: Quyosh paneli texnologiyasi, quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirishda o'sayotgan rivojlanish bilan tan olishgan. Bu texnologiya esa, quyosh tizimlarini o'rnatish orqali energiya bo'shlig'ini ishlab chiqishda hamma o'rganuvchilar uchun samarali va eng muhim variantlardan biri bo'lib chiqmoqda.

Quyosh Energiyasiga samarali va texnik yondashuvlar

Quyosh energiyasi, samarali va ekologik energiya manbaidir. Bugun, energiya iste'moli sohasida quyosh energiyasining o'rniga olish uchun yuqori talab bor. Quyosh, yangi va samarali energiya manbaidir va dunyodagi bir nechta mamlakatlarning energiya mustaqiligi uchun katta potentsialga ega. Quyosh energiyasi, quyosh paneli texnologiyasi orqali, samarali va ekologik yondashuvlarni muhofaza qilishda yuqori darajada ishtirok etadi.

Quyosh Paneli Texnologiyasi:

Quyosh paneli orqali quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish — bu muqobil, samarali, va eng aniq yondashuvlar dan biri. Quyosh energiyasidan foydalangan holda ishlab chiqilgan elektr energiya, energiya mustaqililigini oshiradi va ekologik tasirini minimallashtiradi.

Quyosh paneli, fotovoltaik qoidalarga asoslangan, quyoshning nur zarralarini elektr energiyaga o'zlashtiradi. Bu texnologiya, quyosh energiyasini samarali va iste'moli energiyaga aylantirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda quyosh paneli texnologiyasi o'sib borganligi, yangi materiallar va innovatsion usullar quyosh panelini samarali va islohli qilishda katta o'rin egallaydi.

Energiya Mustaqiligi:

Quyosh energiyasi, kuchli, chegaralanmagan va doimiy ravishda mavjud bo'lishi tufayli, energiya mustaqiligi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatlar quyosh paneli texnologiyasidan foydalangan holda, xususan quyosh quyidagi masofalarda yotib, energiya iste'molari uchun mustaqil tizimlar qurishlari mumkin.

Ekologik Yondashuv:

Quyosh energiyasining eng katta afzalliklaridan biri ekologik yondashuvda o'zini namoyish etishi. Quyosh paneli ishlab chiqarish va uning ishlatilishi jarayonida yuqori emislarni chiqarmaydi va tabiiy resurslarni samarali foydalanish imkoniyatini taklif etadi. Bu esa atrof-muhitni muhofaza qilish, og'ir quruq va issiqlik emislarni pastga olib tashlashda katta rol o'ynaydi.

Quyosh Energiyasi Kelajagi:

Quyosh energiyasi texnologiyalari va ularning yuqori samarali yondashuvlaridan kelib chiqadigan rivojlanish, bu energiya manbasi kelajakda eng kuchli va ko'proq ehtiyotkor variantlardan biriga aylanadi. Bu esa energiya sohasidagi global islohotlar va energiya mustaqiligi uchun katta qadamni ifodalaydi.

Quyosh energiyasi, energiya sohasidagi katta yangilik va islohotlarni o'z ichiga olgan muqobil energiya vositalari oilasida eng tez rivojlanayotgan va ekologik yondashuvlar sohasida kelajak uchun umid yaratadi.

Shamol Energiyasi: Shamol energiyasi, shamol turbinalari orqali shamol kuchlaridan foydalanish yolu bilan yaratiladi. Yer ostida joylashgan shamol quvvatlari, barcha yerning ustida sababchi energiya iste'moli bo'lishi mumkin.

Shamol energiyasi, atmosfera orqali harakatlanadigan shamol quvvatlaridan olingan energiya orqali elektr energiyasi yaratish texnologiyasidir. Bu muqobil energiya vositasi, uning ekologik yondashuvlari va samarali ishlab chiqarilishi tufayli energiya iste'moli sohasida katta o'rin egallaydi.

Shamol Turbinalari:

Shamol turbinalari orqali shamol energiyasidan foydalanish, energiya iste'molining diversifikatsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu, issiqlik va elektr energiyasini samarali bir xildagi vositalar orqali ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Shamol energiyasini samarali olish uchun shamol turbinalari ishlatiladi. Bu turbinalar, shamol quvatlaridan olingan kinetik energiyani mexhanik energiyaga aylantirish orqali generatorlar orqali elektr energiyasini ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Afzalliklari:

1. Ekologik Yondashuv: Shamol energiyasi, ishlab chiqarish va ishlatish jarayonlarida atmosfera emissiyasini pastga olib tashlaydi, shuningdek o'zining hayot o'rtasidagi muhitga o'ziga xos zararlarini minimalizlaydi.

2. Samarali va Eng Ko'proq Chegaralangan: Shamol quvatlari doimiy ravishda harakatlanadi va bu quvatlarni elektr energiyasiga aylantirish oson va samarali bo'ladi. Shamol turbinalari chegaralanmagan joylarda o'rnatish mumkinligi sababli bu energiya manbasi eng ko'proq chegaralangan variantlardan biriga aylanadi.

3. O'zini To'liqlash: Shamol quvatlari, sun'iy va qulay sharoitlarda ham ishlashadi, shuningdek katta mevalar, dengiz yopiq suvlarida va shaharlarda.

Cheklovlari va Yutqazgan Masalalari:

1. Chorlash Mavzusi: Shamol energiyasining eng katta chekisligi – chorlash. Bu muammoga echim bermak uchun shamol turbinalarini joylashtirish kerak bo'lgan joylar tanlanishida samarali loyihalar va izlanishlar muhimdir.

2. Tezlik va Samarali Energiya Saqlash: Shamol quvatlarining samarali ishlab chiqarilishi hamda energiyani saqlash uchun eng hozirgi texnologiyalarni rivojlantirish lozim.

Shamol energiyasi, energiya mustaqiligi va atrof-muhitni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu energiya manbasi, yangi texnologiyalar va investitsiyalar bilan rivojlantirilib, kelajakda energiya iste'molari uchun muhim manbai bo'lib qoladi.

Gidroenergetika: Daryo, o'lchov va suv quvatlari orqali energiya olish, gidroenergetikani bir qadam oldami sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga, ekologik muhitga yuqori darajada e'tibor qaratiladi.

Suv kuchlari orqali energiya olish — bu muqobil energiya vositalari markazidir. Daryolardan yoki o'lchovlardan foydalanish, suv resurslarini muhofaza qilish va energiya iste'molining barqarorlik darajasini oshirishga olib keladi.

Gidroenergetika, suv quvatlaridan olingan kinetik energiyani elektr energiyaga o'zlashtirishda qo'llaniladigan muqobil energiya vositasidir. Bu texnologiya samarali va ekologik yondashuvlar uchun potentsial vaqtincha unutilgan va unutilgan quvatlardan energiya olishda muhim o'rin egallaydi.

Gidroelektr Stantsiyalar va Turbinalar:

Gidroenergetikada suv quvatlaridan foydalanish uchun gidroelektr stantsiyalar va hidroturbinalar ishlatiladi. Su quvatlari, yuqori joylarda o'rnatilgan suv quvatlaridan yoki daryolardan olingan suvni ishlatish orqali kinetik energiya olishga imkoniyat yaratadi.

Afzalliklari:

1. Ekologik Tozalik: Hidroenergetika, su quvatlaridan energiya olishda atmosfera emissiyasini pastga olib tashlaydi va bu oqibatli moddalarni ishlatmaydi. Natijada, bu energiya iste'moli ekologik tozalikni saqlab qoladi.

2. Doimiy Energiya Tarmoqlari: Su quvatlari doimiy ravishda ishlab chiqariladi, shuningdek turbinalar ham doimiy ravishda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini taqsimlash uchun ishlab chiqariladi.

3. Chegaralanmagan Suv Manbalariga Bog'liq: Hidroelektr stantsiyalar, su quvatlarini o'zlashtirishda su manbalariga bog'liq bo'lib turadi, shuningdek barqaror daryolarda va o'lchovlarda uzoq muddatli energiya ta'minlash imkoniyatiga ega.

Cheklovlari va Yutqazgan Masalalari:

1. Og'ir Quritish Mavzusi: Hidroelektr stantsiyalari oqibatli moddalarni yuborishmasdan energiya olib tashlaydi, lekin suvni og'ir quritish va oqibatli moddalarni jamlash paytida muhitga zarar yetkazadi.

2. Suv Xizmatlarining O'zgartirilishi: Hidroelektr stantsiyalari suning tez o'zgaruvchan sharoitlariga bog'liq ravishda qurilgan. Ikkala muhitdagi oqibatlar va su yo'laklari o'zgarib turadi.

3. Ekologik Moddalarni Yuborish: Hidroelektr stantsiyalari quritish uchun suvni ishlatmasligi sababli ekologik moddalarni yuborishmasdan energiya olib tashlaydi. Bu esa suv ekosistemi va suv bilan bog'liq faol moddalarni saqlab qolish uchun muhimdir.

4. Suv Darajasining O'zgarishi: Oqibatlar, gidroelektr stantsiyalari orqali su quvatlaridan foydalangan holda daryo darajasi va oqibatlar o'zgarib turishi mumkin.

Gidroenergetika, energiya mustaqiligi va samarali energiya iste'moli uchun katta potentsialga ega bo'lgan bir muqobil energiya vositasidir. Biroq, o'zining cheklovlari va muhitga oqibatlarini nazarda tutish muhimdir, shuningdek yangi texnologiyalar va usullar orqali muammolar hal qilinmoqda.

Gidroenergetika, kelajakda energiya sohasidagi ildizning markazi bo'lishi kutilmoqda. Bu energiya manbasi ekologik yondashuv va samarali ishlab chiqarishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir muqobil vositasidir.

Biomassa: Bu texnologiya organik moddalar orqali energiya olishda ishlatiladi. Biomassta o'tkir zarralar, hayvon o'tkirliklari va boshqa biologik materiallar ishlatiladi.

Biomassa, hayvon o'tkirliklari, bitki moddalari, o'tkir zarralar yoki buholarni o'z ichiga oladigan organik materiallar orqali energiya olishning muqobil yondashuvidir. Bu texnologiya, samarali va ekologik yondashuvlar uchun eng yirik va hajmi katta potentsialga ega bo'lgan bir energiya manbaidir.

Biomassa Olish Usullari:

1. Biogaz Texnologiyasi: Biogaz, hayvon o'tkirliklari, o'tkir zarralar yoki bitki moddalari suyuviy cho'zilgan holda fermada qo'shilganda hosil bo'ladigan gazdir. Bu gaz, batareya zarralarini ishlatib, quyosh panellerini boshqarib, yoki isitish tizimlarini o'zlashtirishda foydalaniladi.

2. Biotopliq Texnologiyasi: Biotopliq, biomassa materiallaridan ishlab chiqarilgan topliqdir, buholarning yanishmasi natijasida hosil bo'lgan toshkent, o'tkir zarralar yoki yuqori issiqda vaqtincha tortib qolgan organik materiallar yoritilganda hosil bo'ladi.

Biotopliq, ko'p xil soha, masalan, isitish tizimlari, energetika tarmoqlari va hayvon o'tkirliklarini ishlatishda qo'llaniladi.

Afzalliklari:

1. O'zaro Muqobil va Energiya Mustaqiligi: Biomassa, organik materiallar asosida ishlab chiqarilganligi uchun, energiya mustaqiligi va o'zaro muqobil uchun katta potentsialga ega.

2. Karbonsiz Emislarni Kamaytirish: Biomassa materiallari, har doim atmosfera qaytmas emislarni ishlab chiqarmaydi, shuningdek tarkibidagi karbon ko'pligini atmosferaga qaytarish paytida mamlakatda kurashgan bitkilarga qaytarish orqali karbonsiz emisyalarni ta'minlaydi.

3. O'zlashtirilgan Moddalar: Biomassa energiyasi, o'tkir zarralar, o'tkirliklar va boshqa moddalardan energiyani o'zlashtirish paytida uning ishlatilishi mumkin.

4. O'zini To'liqlash: Biomassa moddalari, o'tkir zarralar va o'tkirliklar, o'zini to'liqlab, sodda o'zlashtirish usullari orqali energiya iste'moli uchun ishlatish mumkin.

5. Kutilmagan Oqibatlar: Biomassa energiyasi paytida qo'shimcha kutilmagan oqibatlarni o'z ichiga oladi va atmosfera emissiyasini pastga olib tashlaydi.

Cheklovlari va Yutqazgan Masalalari:

1. Og'ir Quyitish: Biomassa materiallarini olish va ularga zarar keltiradigan ko'rsatkichlar ishlab chiqarish, odatda og'ir quyitishga olib keladi.

2. Bo'shash va Unutilmaslik: Biomassa materiallaridan foydalanish samarali o'zlashtirish va energiya olishni ta'minlashda qulay, lekin ba'zilar bo'sh qolish va unutilmaslik muammolari tug'ilishi mumkin.

3. Quritish va O'zgaruvchan Gazlar: Biomassa moddalari o'zini to'liqlayotganda og'ir quritish va o'zgaruvchan gazlar yuzaga chiqadi, bu esa oqibatli moddalarni ishlatish paytida muhitga zarar keltirishi mumkin.

4. Resurs Cheklanishi: Biomassa moddalari, bir muddatdan so'ng o'zini to'liqlash va qayta ishlovchi potentsialni yo'qotadi.

Biomassa, ekologik yondashuvlar uchun samarali bir yondashuvdir, chunki uni ishlab chiqarish uchun o'sgan materiallar atmosferaga karbonsiz emisiyalar yaratadi. Bu energiya manbasi, energiya mustaqilini oshirish, tabiiy resurslarni foydalanish va atrof-muhitni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Biomassa energiyasi, tabiiy moddalardan foydalanish, atrof-muhitni saqlash, va energiya mustaqiligi sohasida muhim o'rin egallaydi. Bu energiya manbasi, energiya iste'moli sohasidagi global islohotlar va qo'shimcha moddalarni ishlab chiqarish, o'z ichiga oladigan ildizlarga yo'l ochadigan yangi yo'nalishlarga ko'maklashadi.

Geotermal Energiya: Yer ostidan kelib chiqadigan issiqliqdan foydalangan texnologiya orqali, geotermal energiya, issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqishda yaratiladi.

Geotermal energiya, yer osti issiqlik energiyasidan foydalanish texnologiyasi, dunyoning ichki qismini ishlatib, issiqlik va elektr energiyasi olishda qo'llaniladi. Bu muqobil energiya vositasi, energiya iste'molari sohasida samarali va ekologik yondashuvlar dan biri sifatida o'rin egallaydi. Yer ostidan kelib chiqadigan issiqlik, issiqlik sistemalarni ishlab chiqish, va elektr energiya ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi.

Geotermal Elektr Stantsiyalari va Issiqlik Sistemalari:

Geotermal energiya olish uchun geotermal elektr stantsiyalari va issiqlik sistemalari ishlatiladi. Geotermal elektr stantsiyalari, yer osti issiqlikni ishlab chiqarish uchun geotermal quvatlarni o'z ichiga oladi, elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Issiqlik sistemalari esa, yer osti issiqlikni ishlab chiqarib, binolar, issiqlik havzalari yoki issiqlik tizimlari uchun ishlatiladi.

Afzalliklari:

1. Energiya Mustaqiligi: Geotermal energiya, yer osti issiqlik quvatlarining doimiy ravishda mavjud bo'lishi tufayli energiya mustaqiligi uchun muhim manba sifatida qo'llaniladi.

2. Ekologik Yondashuv: Geotermal elektr stantsiyalari, atmosfera emissiyasini pastga olib tashlamaydi, shuningdek yer osti issiqlikni ishlatib olish paytida oqibatli moddalarni ishlatmaydi.

3. Dinamik Energiya Saqlash: Geotermal energiya, doimiy ravishda yer osti issiqlikning dinamiklaridan foydalanib, doimiy tarqalgan energiya ta'minlaydi.

4. Ekologik Tozalik: Geotermal energiya olish jarayonlari paytida atmosfera emissiyasini kamaytirib, issiqlik yaratish va elektr energiya olish paytida oqibatli moddalarni ishlatmaydi.

5. Texnik Yondashuvlar: Geotermal yo'nalishlarda texnik yondashuvlar, issiqlikni o'z ichiga olish, quvatlarini o'zlashtirish va bu issiqlikni samarali foydalanishda yangi yondashuvlar rivojlantirilmoqda.

Cheklovlari va Yutqazgan Masalalari:

1. Qo'rqinchsiz Gazlar: Geotermal quvatlari o'zlashtirilganda qo'rqinchsiz gazlar yuzaga chiqishi mumkin, bu esa muhitga zarar yetkazishi mumkin.

2. Xaridlar va O'zgartirilishi Mumkin Bo'lgan Yondashuvlar: Geotermal stantsiyalari yo'qlash paytida xaridlar va quvvatlar ishlov berish, bu esa bu muqobil energiya vositasini qo'shimcha qo'llashni cheklashga olib keladi.

3. Suv Xizmatlarining Bog'liqligi: Geotermal quvatlar suv xizmatlariga bog'liq bo'lib, suv oqimlarining o'zgartirilishi yoki qo'shilishi mumkin.

4. Cheklovdan Naraziligi: Quvatlarning chekisligi va dinamiklaridan kelib chiqadigan oqibatlar, cheklov va seismik faolliklarning o'zgartirilishi bilan bog'liqdir.

Geotermal energiya, energiya mustaqiligi va ekologik yondashuvlar uchun katta potentsialga ega bo'lgan muqobil energiya vositasidir. Bu energiya manbasi, energiya iste'moli sohasida global islohotlarni o'z ichiga olgan va atrof-muhitni saqlashda muhim rol o'ynaygan bir vosita hisoblanadi.

Muqobil energiya vositalari, bu texnologiyalar orqali amaliyotda energiya iste'moli va ekologik tasirini kamaytirishda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar, energiya taminoti bo'yicha dunyoda mustaqil va uzoq muddatli yondashuvlar uchun muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Muqobil energiya [elektron resurs] // Vikipediya. –

Kirish rejimi: <https://ru.wikipedia.org/wiki> (kirish sanasi: 25.06.2014).

2. Bobil A. V., Verbitskiy V. N., Terukov E. I., Kudryashov S. A., Ivanov G. A., Ershenko E. M. shamol, quyosh va vodorod energetikasi elementlari asosida o'rnatish // nanotexnologiyalarni rivojlantirishning birinchi xalqaro konferentsiyasi: xalqaro va mintaqaviy ilmiy-ta'lim va ilmiy-ishlab chiqarish markazlarining vazifalari. Barnaul shahri, 12-15 sentabr. 231 s.

3. Golitsyn M. V., Golitsyn A. M., Pronina N. M. muqobil energiya manbalari. - M.: Fan, 2004 Yil. 84 s.

4. Kravtsov yu. muqobil energiyaning haqiqiy istiqbollari [elektron resurs] // fan va innovatsiyalar. - Kirish rejimi: http://innosfera.org/alt_energy (kirish sanasi: 05.06.2014).

5. Toza havo, issiqlik va yorug'lik muqobil energiya manbalari [elektron manba]. - Kirish rejimi: <http://physics03.narod.ru/Interes/Doclad/alten.htm> (kirish sanasi: 23.06.2014).

6. Insoniyatni energiya bilan ta'minlashning ekologik muammolari [Elektron resurs]. - Kirish rejimi: <http://nuclphys.sinp.msu.ru/ecology/ecol/ecol05.htm> (kirish sanasi: 05.05.2014).

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUV FAOLIYATIDA QO‘LLANILADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Sapayeva Laylo Norbayevna

Buxoro viloyati Osiyo Xalqaro Universiteti 70110501- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta'lim) yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbari: R.M.Yoqubovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10416932>

Abstract: *This article provides information on the use of information technologies in primary education.*

Key words: *Education and training processes, informatization processes require rapid improvement of the education system, determination of educational goals that take into account state, social and personal needs and interests.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘limda axborot texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan ma‘lumotlar berildi.*

Kalit so‘zlar: *Ta‘lim va tarbiya jarayonlari, axborotlashtirish jarayonlari ta‘lim tizimini jadal takomillashtirishni, davlat, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlar hamda manfaatlarini hisobga oluvchi ta‘lim maqsadlarini aniqlashni talab qilmoqda.*

KIRISH (Introduction)

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. XXI asrda jahon miqyosida ta‘lim barqaror taraqqiyotini ta‘minlovchi asosiy omil sifatida e‘tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan Xalqaro ta‘lim konsepsiyasida sifatli ta‘lim olish va ijodiy qobiliyatni rag‘batlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Unda ta‘limning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan boshlang‘ich ta‘limda fanlarni innovatsiya va zamonaviy ta‘lim texnologiyalari asosida o‘qitish, o‘quvchilarda integratsiyalashgan ta‘limni rivojlantirish, ularda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimning imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo qiladi. Bu esa ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va o‘quv materiallarini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida egallashda kasbiy kompetentlikni orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘pchilik maktablarda innovatsion faoliyat u yoki bu ko‘rinishda amalga oshirilmoqda: maktablarni rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda, tajriba ishlari olib borilmoqda, yangi ta‘lim dasturlari va texnologiyalari o‘zlashtirilmoqda.

Vaqt joyida turmaydi va hozirda davr talabi bilan an‘anaviy suhbatlar, yodlashlar, turli xildagi nasihatlar o‘rniga ta‘limning noan‘anaviy shakllari: birlashtirilgan darslar, kuzatuv darslari, muammoli vaziyatlarni qo‘yish va shu kabilar kirib keldi. Mana shunday darslar

bolalarga yoqadi, idrok etishga ularda qiziqish uyg'otadi, ularga ko'plab yangiliklar beradi, o'quvchilarda katta emotsional kuch mavjud.

Inson nutqi — bu uning intellekt va madaniyati ko'rsatkichidir. Nutq qanchalik aniq bo'lsa, fikr obrazli ifoda etilsa, inson shaxs sifatida shunchalik ahamiyatli va jamiyat uchun u shunchalik qimmatga ega. Zamonaviy hayot o'quvchi oldiga: tilni erkin egallash, turli vaziyatlarda turli insonlar bilan munosabatda bo'lishni bilish, shu bilan bir vaqtda, o'zini erkin, ishonchli his qilish kabi yangi maqsadlarni qo'yadi. Shu sababli ta'limning kommunikativ texnologiyasi bizning davrimizda innovatsion hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonlari o'z-o'zidan insonni rivojlantirmaydi, balki ular faoliyatli shaklga ega bo'lganida rivojlantira oladi. O'quvchi rivojlanishi uchun uning faoliyatini tashkil etish zarur. O'quv materialini passiv idrok etishda rivojlanish sodir bo'lmaydi. Misol uchun, bola kitobni qanchalik ko'p varaqlamasin, o'zi harflarni eslab qolmasa, ulardan so'z tuzishni o'rgana olmaydi — unda hech qanday o'qish ko'nikmasi shakllanmaydi. Bolaning aynan o'z harakatlari kelajakda uning qobiliyati shakllanishining asosi bo'lib qolishi mumkin.

Demak, ta'limning vazifasi bolani harakatlarga chorlovchi sharoitlarni tashkil etishdan iborat bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'qituvchilar har bir o'quvchida turli sharoitlarda o'z yo'lini topa olishiga imkon beruvchi harakatlar individual vositalari va usullarini shakllantirishga yordam beruvchi maxsus o'quv sharoitlarini yaratishlari zarur. Boshlang'ich sinflar o'qituvchilari mana shunday o'quv vaziyatlari majmuini yaratish ustida ishlamoqdalar. Bu holat ko'zlangan natijalarga erishish texnologiyasining muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning diqqatlari mustahkam emas, ular ko'pincha diqqatlarini bir faoliyat turidan ikkinchisiga qaratishni bilmaydilar. Biroq o'quvchining o'ziga doskada har qanday obyekt, geometrik shakllar, yozuvlarni bajarish, rangi, kattaligi, shaklini o'zgartirish imkoniyati berilganda diqqati kuchayadi. Masalan, matematika darsida kompyuter vositalari, interfaol doskadan foydalanilishi bilan bolalarning qiziqishlari ortishi kuzatiladi va shu bilan birga, darsning jadalligi oshadi. Barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalb qilinadilar. Material hajmining ko'pligi bolalarni qiynamaydi, balki faoliyat o'yin shakli metodikasi bo'yicha faol o'qishga imkon beradi. Bu juda muhim omil, chunki olti-to'qqiz yoshli bolaning faol faoliyat turi o'yin hisoblanadi. Interfaol doska — matematika faniga o'qitish jarayonini ko'rgazmali, yorqin, chaqqon qiluvchi juda qulay uskunadir. Ta'lim jarayonini jadallashtirish boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun muhim hisoblanadi.

Uskunalar bilan jihozlangan kabinetda o'quvchilar va o'qituvchi uchun ham ishlash qiziqarli. Hozirgi zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan axborotlashtirish jarayonlari ta'lim tizimini jadal takomillashtirishni, davlat, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlar hamda manfaatlarini hisobga oluvchi ta'lim maqsadlarini aniqlashni talab qilmoqda. Shu sababli yangi ta'lim standartlarining rivojlantiruvchi imkoniyatlarini ta'minlash ustivor yo'nalish bo'lib qolmoqda. Yangi ijtimoiy talablar o'quvchilarni umummadaniy, shaxsiy va idroklari rivojlanishi kabi ta'lim maqsadlarini belgilab bermoqda. O'quvchilarning faqatgina fanlar aniq bilim va malakalarini o'zlashtiribgina qolmay, balki «o'qishga o'rgatish» malakasini

ta'minlovchi «universal o'quv harakatlari» to'plamini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifasi hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar (AKT) — foydalanuvchi manfaatlari yo'lida axborotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalar to'plamidan iboratdir.

Bir qator olimlarning ta'kidlashicha ta'lim sohasida qo'llaniladigan AKT vositalaridan foydalanish quyidagi masalalarni amalga oshirishni o'z maqsadi qilib qo'yishi kerak: o'quvchilarning fikrlashlari tizimlilikini ta'minlash va rivojlantirish; bilim olish, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda mustahkamlashda o'quvchining idrok etish faoliyati barcha turlarini qo'llab-quvvatlash; ta'lim jarayoni yaxlitligini saqlab qolgan holda o'quv jarayonini individuallashtirish tamoyilini amalga oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.
2. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. –T.: Fan, 2006.

TA'LIMDA TARBIYA JARAYONINING MAZMUN-MOHİYATI

Xaydarova Yanglish Baxritdinovna

*Jizzax viloyati Jizzax shahar maktabgacha va maktab ta'limi
bo'limiga qarashli 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10425433>

Abstract: *In this article, the content and essence of the educational process is reflected in the information.*

Key words: *Educational methods, competitive and intellectually developed person, social education, spiritual growth, religious and secular education.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'limda tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati ma'lumotlar o'z aksini topadi.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya metodlari, raqobatbardosh va intellektual rivojlangan shaxs, ijtimoiy tarbiya, ma'naviy yuksalish, diniy, dunyoviy tarbiya.*

Ma'lumki, Tarbiya-muayyan, aniq maqsadga va har tomonlama ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni tarbiyalash uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Tarbiya jarayoni- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni. Bugungi kunda mamlakatimizda tarbiya jarayonlariga har qachongidan ham ko'proq e'ibor qaratilmoqda. Bunga misol qilib, 2020-yil 6-iyundagi Vazirlar Mahkamasining 422-son qarori asosida "Tarbiya" fani konsepsiyasi ishlab chiqilganini, Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 10-iyuldagi 161-son buyrug'i asosida maktablarda tarbiya fanining o'qilishi joriy etilganini aytishimiz mumkin. Avvalo, tarbiya nima o'zi? degan savolga javob bersak.

Tarbiya – aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'sir jarayoni: shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy, madaniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli amaliy pedagogik jarayon. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya fani milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari g'oyasi asosida tashkil qilinmoqda. Bundan maqsad, XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, raqobatbardosh va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Tarbiya metodlari - pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir.

Tarbiyaning maqsadi – ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, rivojlanishi, yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston

Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Kadrlar tayyorlash milliy modelimizning bosh muddaosi – barkamol shaxs va intellektual salohiyatli mutaxassis tayyorlashdan iborat bo'lib, O'zbekistonning xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan, mustaqil fikr yuritadigan, tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda insonning ichki sifatleri barq urib kamolotga yetgan kadrlar tayyorlashni ko'zlaydi. Mazkur maqsadni amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri tarbiya jarayonidir. Tarbiyaning maqsad-natijasi barkamol avlodni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlikni, shuningdek, o'quvchi shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatishni taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi vazifani bajaradi, chunki, u ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari, mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan vazifalar tizimidan xabardor, tarbiya shakllari, metodlari va vositalarni asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiyaga tatbiq etadi.

SHAXS		
Biologik omillar (irsiyat)	Ijtimoiy omillar (muhit)	Maqsadli tarbiya

Mamlakatning moddiy va ma'naviy yuksalishida xalqimizning boy ma'naviy merosga, umumbashariy qadriyatlarga, zamonaviy madaniyatga ega bo'lgan, har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan shaxsni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosidir. Bu borada qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da barkamol avlodni shakllantirish va yuqari malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish bosqichlari, shu bilan birga yuqori malakali mutaxassilar tayyorlashni jahon ta’limi darajasiga ko’tarish asosiy maqsad qilib qo’yilgan. Bu vazifalarni amalga oshirish barkamol avlodni har tomonlama tarbiyalab voyaga yetkazishdek istiqbolli muammoni hal etishni ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi o’qituvchi-murabbiylar, shu yo’nalishda ijod qiluvchi mutaxassis olimlar, jamoat tashkilotlari, rahbar xodimlar oldiga qo’yilishi davr talabidir. O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, oldimizda turgan eng dolzarb va istiqbolli muammolardan biri – erkin fuqaro ma’naviyatini ozod va erkin shaxsni va shu asosda barkamol avlodni shakllantirish masalasidir. “Boshqacha aytganda, - deydi I.A.Karimov, - biz o’z haq- huquqlarini taniydigan, o’z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo’layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg’un holda ko’radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak”.

Yoshlarga har tomonlama puxta ta'lim-tarbiya berish, shu bilan birga milliy mentalitetni tiklashga qaratilgan milliy istiqloq mafkurasining mazmuni milliy turmush tarzimiz, xalqimizning qadim an'analari, ma'naviy axloqiy qadriyatlarimizni aks ettiradi. Milliy istiqloq mafkurasi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi; Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi; Adolat va xaqiqat, erkinlik va

mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi; Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi; Jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi; Millati, tili va dinidan qat'iy nazar mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi; Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi. U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir. Bu O'zbekistonda istiqomat qiladigan va o'z taqdirini shu muqaddas zamin bilan bog'lagan har bir kishining «Vatanim menga nima berdi deb emas, men Vatanim ravnaqi uchun nima qilayapman» degan mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashi kerak. Bu qoida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan partiyalar, harakat va ijtimoiy- siyosiy guruhlardan birortasining dasturiy g'oyalari yagona davlat mafkurasi bo'la olmasligini anglatadi.

Mafkura inson tarbiyasini, shu asosda shakllanayotgan axloqi, bilimi, qobiliyati va iste'dodini belgilangan maqsadlar bilan bog'lash yo'lidir. Hech qachon ta'lim- tarbiya ishlari muayyan mafkurasiz bo'lmagan, bo'lishi ham mumkin emas.

Diniy, dunyoviy tarbiyaning barcha tizimlari zaminida ham ma'lum mafkura yotadi. Mafkuradan xoli bo'lgan tarbiya haqida gapirish tarix tajribasini to'la bilmaslik yoki biror mafkuraning o'rniga boshqasini olib kirishga harakat qilishdir.

Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi jamiyat rivojlanishidagi yetakchi g'oyalarni o'zida mujassam etib, xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, ruhiyatiga, qadriyatlariga asoslanib, kelajakka bo'lgan ishonch tuyg'ularini tarbiyalaydi. Bu g'oyalar bilan qurollangan insonlar o'z orzu intilishlari yo'lida birlashadilar.

Ta'lim jarayonida tarbiya metodlaridan foydalanish.

Maqsad, mazmun, shakl, metod va vositalar kabi tushunchalar tarbiya jarayonining mohiyatini ochib beradi. Biroq tarbiya mohiyatini yoritishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan yana bir tushuncha ham mavjud, bu tarbiya metodlari tushunchasidir. Tarbiya metodi (yunoncha "metodos"-yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li.

Tarbiya ahamiyatiga tatbiq etilganda, metodlar bu tarbiyalanuvchilarning ongi, tuyg'ulari, irodasi va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

O'qitish jarayonida tarbiya metodlarining ahamiyati juda kata. Chunki, mana shu metodlardan foydalangan holda ta'lim va tarbiya jarayonini birgalikda olib boorish mumkin. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Agar tarbiya metodlari bo'lmaganida ta'lim jarayonini to'g'ri amalga oshirish, o'qituvchi pedagogik qobiliyatini shakllantirish, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o'rtasida to'g'ri munosabatlarni yo'lga qo'yishning imkoniyati bo'lmasdi.

Har bir tarbiyalovchi ta'lim jarayonida yangi metod yaratishga harakat qiladi. Ammo, tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga

mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmazlik kerakki, aynan bitta mazmun turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikrlar bilan bog'lash g'oyat muhimdir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq, har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida metodlarni maqsadga muvofiq qo'llay olish zarur.

Hozirgi vaqtda o'zida tarbiya metodlaridagi yagona maqsad, mazmun va tartiblilikni aks ettiruvchi ko'proq obektiv va qulay metodlar qo'llaniladi. Ana shunday tavsif bilan bog'liqlikda tarbiya metodlari uch guruhga bo'linadi:

1. Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar
2. Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlari
3. Xulq-atvorni va faoliyatni rag'batlantirish metodlari.

Shaxs ongini shakllantirish (ishontirish) metodlariga quyidagilar kiradi: hikoya, tushuntirish, izohlash, maruza, etik suhbat, nasihat, o'git, ko'rsatma, munozara, namuna. Bu guruhga mansub metodlarning vazifasi asosan, o'quvchilar ongida milliy g'oyani shakllantirish, davlatning ichki va xalqaro siyosatining mazmunini tushuntirishdan iboratdir. Bulardan eng ahamiyatlisi-bu hikoya metodidir.

O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ya'ni ularga turli adabiyotlardagi hikoyalar yoki real voqealarni aytib berish orqali ular ongiga ta'sir etish va natijada odob-axloq, tarbiya kabi yuksak fazilatlarni shakllantirish mumkin.

Hozirgi texnologiyalar asrida atrofimizda yuz berayotgan har qanday voqea- hodisa va yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari ya'ni, radio, televizor, gazeta, jurnallar orqali tezda bilib olish mumkin. Ammo, o'quvchilar jamiyatimizda yuz berayotgan turli voqea-hodisalarni ommaviy axborot vositalari yordamida emas, balki ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatmoqdalar.

Masalaning bu jihatini olib qaraganda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan har qanday voqeani kuzatish, yangiliklarni eshitish ular ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va buning natijasida esa o'qishga qiziqishning susayishi, tarbiyasining buzilishi kabi holatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar ta'lim jarayonida shaxs ongini shakllantiruvchi suhbat, hikoya kabi metodlardan foydalanib o'quvchilarga yuqorida aytilgan vaziyatlarning salbiy taraflarini ularga o'rnak bo'ladigandek voqealar asosida yoritib berishlari, natijada ularda ijobiy tassurotlar uyg'otish, ta'lim olishga qiziqishni orttirish va albatta insoniy yuksak fazilatlarni shakllantirishga erishishlari lozimdir.

Faoliyatni rag'batlash va motivatsiyalash metodlari qatoriga: rag'batlantirish, tanbeh berish, uyaltirish kabi metodlarni kiritish mumkin. Bulardan eng ahamiyatlisi

rag'batlantirish metodi hisoblanadi.

Rag'batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usulidir. Bu metodni 5-8 sinflarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki, ushbu sinflarga o'smirlik davri to'g'ri keladi. O'smirlik ya'ni inqiroz davrida o'quvchilarda qarama-qarshi vaziyatlar masalan: ota-onalari, o'qituvchilari bilan ziddiyatlarning yuzaga kelishi, do'stlari bilan kelisha olmaslik, o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi kabilar yuzaga kelishi mumkin.

Shu sababli o'qituvchilar mana shu davrdagi o'quvchilarga rag'batlantirish metodidan foydalanib, sinfda ularning har biriga amal (sinf sardori, sport yetakchisi, orasta qizlar sardori va boshqa) tayinlamog'i kerak.

Shundagina o'quvchi o'zining kamolga yetayotganligini his qiladi, unda o'z kuchiga ishonch, mas'uliyat hissi paydo bo'ladi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, uning fikrlari bilan qiziqishadi, unga quloq solishadi, demak, u jamoada o'z o'rniga ega bo'ladi. O'qituvchilar rag'batlantirish metodidan foydalanganda o'quvchining yanada ijobiy sifatlarga ega bo'lishga intilishiga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – "O'zbekiston" – 2016.56B
2. B. X. Xodjaev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" T. :-2017
3. Ш.Н. ҚУРБОНОВА: Таълим жараёнида замонавий педагогик технология турларининг қўлланиши. PEDAGOGIK MAHORAT. Maxsus son, 2020 102bet
4. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2019.
5. M. Xayrullayev, B. To'xliyev, Sh. Qurbonov, X. Masudov, M. Qurbonov PEDAGOGIKA TARIXI 2004 yil.

TARIX FANI O'QITISHDA METODLAR VA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

Haydarov Temur Jaxongir o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax viloyati filiali uslubchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10425534>

Abstract: *In this article, information on the use of methods and innovative methods in teaching history is reflected.*

Key words: *Methods of studying historical facts, chronological thinking, historical understanding, historical analysis and interpretation, historical research, historical issues, analysis and decision-making.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarix fani o'qitishda metodlar va innovatsion usullardan foydalanish borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.*

Kalit so'zlar: *Tarixiy faktlarni o'rganish metodlari, xronologik fikrlash, tarixiy tushuncha, tarixiy tahlil va talqin, tarixiy tadqiqotlar, tarixiy masalalar, tahlil va qarorlarni qabul qilish.*

KIRISH. (Introduction)

Mustaqillikning birinchi kunlaridan ijtimoiy-gumanitar fanlarda tub o'zgarishlar davri boshlandi. Tarix fanini tadqiq etish va o'qitishda yangi metodologiya kirib keldi. Tarix fanida e'tirof etilgan xolislik, ilmiylik, tarixiylik va muqobillik tamoyillari tarixni tadqiq etish va o'qitishda tadbiiq etila boshlandi. Tarix ta'limi mazmun-mohiyatini zamon ruhida o'quvchilarga yetkazish uchun o'quv-metodik majmua yangilandi. Maktablar uchun tarix fanidan yangi darsliklar yaratildi.

O'tmish va tarixiy xotira insoniyat tarixining barcha davrlarida e'tibor markazida bo'lib kelgan. Bu e'tibor natijasida ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar orqali tarixiy hodisalar, shaxslar va jarayonlar bilan bog'liq ko'plab savollarga javob izlangan. Ushbu jarayon inson o'tmishda nima sodir bo'lganligini yozishni boshlashi bilan va tarixshunoslikni paydo bo'lishiga asos bo'lgan.

Tarix o'qitish deganda, tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni deganda, birinchi galda tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko'lami, o'quv material: uning asl mazmuni, o'quvchilarning tarixiy materiallarni o'zlashtirish olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, ko'nikma va malakalari sistemasi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining eng oddiy shakllarini egallashlari ko'zda tutiladi.

Tahlillar natijasida tarix ilmini o'tmishdan to hozirgi kungacha juda ko'p turli maqsadlarda ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Tarix ayniqsa o'tmishga qiziqish, o'yin-kulgi, axloqiy va diniy ta'lim, siyosiy va mafkuraviy qiziqishlarni oshirish uchun ishlatilgan. Tarix qiziqarli soha sifatida ko'rilgan va odamlarning e'tiborini jalb qilish uchun ishlatilgan. Ayniqsa, tarixiy suhbatlar har bir davrda odamlarning e'tiborini tortuvchi targ'ibot vositasi sifatida foydalanilgan.

Tarixiy tafakkur ko'nikmalari tarixiy bilimlarni tadqiq qilish va uning mohiyatin tushunish asosida beshta kategoriyada jamlanadi.

- xronologik fikrlash
- tarixiy tushuncha
- tarixiy tahlil va talqin
- tarixiy tadqiqotlar
- tarixiy masalalar, tahlil va qarorlarni qabul qilish.

XIX asrdan boshlab rasmiy ta'lim muassasalariga kirishni boshlagan tarix darslarining mazmuni va maqsadlarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Taniqli metodist A.I.Strajev aytganidek: "Tarix o'qitish metodi tarixiy material bo'yicha qilinadigan ana shu mantiqiy amaliyotlardan tashkil topadi". O'qitish metodlarini ba'zan o'quvchilarning bilish faoliyati, faollik darajasiga qarab klassifikatsiyalash tavsiya qilinadi. Bu tarzda ajratish o'qitish metodlaridan ko'ra, ko'proq o'qitishning umumiy xarakteriga taalluqlidir. Metodist A.I.Strajev "Tarix o'qitishning tashkil etilishi, metodlari va vositalari tarix fanining ma'lum ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi"— deydi. Biroq, u ham o'qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o'zini o'rganish metodidan iborat qilib qo'yib, masalada noaniqlikka yo'l qo'yadi. A.I.Strajev quyidagi o'qitish metodlarini tavsiya qiladi:

- tarixiy faktlarni o'rganish metodlari;
- xronologiyani o'rganish metodlari;
- mahalliy tarixiy voqealarni o'rganish metodlari;
- asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari;
- sabab-natija aloqalarni o'rganish metodlari;
- tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari.

Ma'lumki, tarix o'qitish va o'rganishni tashkil etish jarayonidan iborat. Metodist A.Strajevning klassifikatsiyasidan ham ko'rinib turibdiki, u faqat o'qituvchining o'quvchilarni o'qitishini ko'zda tutadi, o'quvchilarning o'rganishini tashkil etish va ularning o'rganishiga o'qituvchining rahbarlik qilishini e'tiborga olmaydi. Ko'zga ko'ringan metodist V.G.Kartsev bu masalada boshqacha yo'l tutadi. U metodlar sistemasiga o'quv harakteriga ega bo'lgan belgilar ("Bayon qilish metodi, "so'rash metodi") va umumiy didaktiv vazifalar ("materialni o'rganish metodi", "mustahkamlash metodi", "bilimni tekshirish metodi" va boshqalar) ni emas, balki o'quvchilarning tarixiy voqealarni bilish qonuniyatlarini asos qilib oladi. Metodlar haqidagi nazariyaning metodologii asosini, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish tashkil etadi.

Shuningdek, bugungu kunga kelib, tarix fanining maktab kursi, asosan uchta vazifani bajarishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni:

- o'quvchilarga tarixiy bilimlarning asoslarini berish, ularning chuqurligi va mustahkamligini ta'minlash;
- o'quvchilarda tarixni ilmiy tushunishning shakllanishi va milliy tarix,
- xorijiy mamlakatlar va xalqlar tarixiga hurmat munosabatida bo'lishni ta'minlashga;
- o'quvchilarda tarixiy ong, tarixiy xotira, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va o'quvchilarning bilimlarini mustaqil o'zlashtirish va qo'llashga o'rgatishdir.

O'quvchilarning tarixiy tafakkuri ularning umumiy dunyoqarashining shakllanishi bilan birgalikda boradi. O'quvchilarning dunyoqarashida tarixiy tafakkurning rivojlanishi uning amaliy faolligini ta'minlaydi. Ya'ni, tarixan dunyoda mavjud bo'lgan fan-texnika yangiliklarini o'zlashtirishi bilan o'z faoliyatida yangilikka intilish o'zida yaratuvchanlik faoliyatini shakllantiradi. O'quvchi tarix fanidan bilimlar asosini o'zlashtirganda millatimiz va boshqa xalqlarning o'tmish, kecha va bugungi taraqqiyoti to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi. Tarix ta'limi har bir odamga etnomilliy, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam berishi lozim. Bu o'quvchini shaxs, fuqaro, inson sifatida shakllanishiga asos bo'ladi. O'quvchilar O'zbekiston tarixi fanini o'rganish davomida umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirib boradi. Tarix darslari o'quvchilarga tarixiy bilimlarni yetkazib beruvchi vositagina emas, balki ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanib borishlarini ta'minlovchi kuchli ta'sirga ega bo'lgan omil hamdir. Maktab tarix ta'limining zamonaviy konsepsiyasi tarixni tizimli o'rganishni saqlab qoladi. Lekin tarix uning tamoyillari asosida o'rganiladi. Tarix o'quv fani o'rta maktabda gumanitar fanlarning rivojlanishi uchun metodologik shart-sharoit yaratadi. Tarix fanining ma'lumotlari, tushunchalari, atamalari va tamoyillari boshqa fanlarda ham keng qo'llaniladi, o'z navbatida tarix fanida boshqa fanlardagi tushuncha, atamalardan foydalaniladi.

Mamlakatimizda tarix fanini rivojlantirish sohasidagi ishlar kompleks va tizimli davom ettirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tarixini o'rganishda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu yo'nalishda quyidagi ilmiy, metodologik masalalar asosiy o'rin tutadi:

1. Tarixni o'rganishning metodologik asoslarini rivojlantirish. Bunda tarix metodikasi bo'yicha mavjud turli xil ilmiy konsepsiyalarni o'rganish orqali ulardan foydalanish.
2. Tarixni o'rganish uchun ishlab chiqilgan yagona konsepsiyani amalga tadbiiq etish.
3. O'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim uchun yaratilayotgan darsliklarni yangi avlodini ishlab chiqishda yagona konsepsiyaga tayanish.
4. Tarix fanining dolzarb muammolarni o'rganishda turli fanlarning yutuqlari, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda klaster modeli asosidagi samarali hamkorlik faoliyatini tashkil etish.
5. Tarix fanini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlarni o'tkazish va fanning dolzarb muammolarini o'rganish jarayonida erishilgan yutuqlarni monitoringini olib borish va hokazo.

Tarix o'qitishda fanlar aro aloqadorlikni tashkil etish.

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiymetodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha o'qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. *Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda* o'rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan o'quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida. Chunonchi, tarix darslarida O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi darslarida mazmunan o'xshash bo'lgan "Osiyo mamlakatlari madaniyati", "Yevropada o'rta asr shaharlari", "Osiyo mamlakatlarning o'rta asr shaharlari" kabi mavzularni o'rganish bo'yicha.

2. *Mavzularning bir-biriga o'xshashligi:* o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

3. *Umumlashtirish* - o'quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o'rgatish maqsadida turli o'quv fanlari bo'yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash-umumlashtirish darslarida o'quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish.

Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi:

- ✓ o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish;
- ✓ o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish;
- ✓ darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o'quv kurslari bo'yicha, muammolilik, ko'rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars materiallarini o'quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o'zaro aloqador bo'lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o'rganish, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat darslari ham bo'lishi mumkin.

Fanlararo aloqadorlik o'quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu o'quv predmetidan o'rganilayotgan

bilimlarni o'zlashtirish va o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o'zlashtirishda ularni qo'llashni bilish o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. O'quvchilarning bilish faoliyatlari va o'quv fanining uyg'unlashtirilgan mazmuni o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi.

Adabiyotlar:

1. Toshtemirova Saodat Abdurashidovna. Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida //Uzluksiz ta'lim.-2020.- № 1 (86). — S.5.
2. J.Rahimov O`zbekiston tarixini o`rganishda arxiv manbalaridan foydalanish. T. O`qituvchi. 1995
3. T.Rahmatullayev. O`zbekiston xalqlari tarixini o`rganishda arxeologiya materiallaridan foydalanish T.O`qituvchi. 1994.
4. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.

MATEMATIK BILIMLARNI TATBIQ ETISH – DAVR TALABI

Sharobidinova Dilfuza Madaminovna

Farg‘ona viloyati, TATU FF akademik litseyi

Dostonova Nodiraxon Muxtorjon qizi

Farg‘ona viloyati, TATU FF akademik litseyi

Toshxodjayeva Nigora Odiljon qizi

Farg‘ona viloyati, TATU FF akademik litsey matematika fani o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10425680>

Annotatsiya – Ushbu maqolada matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantirishda, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat‘iyat va irodani tarbiyalashda, algoritmik tarzda tartibintizomlilikni ta‘minlashda va tafakkurini kengaytirishda katta o‘rin tutishi haqidagi ilmiy fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar – Misol, masala, muhokama, munozara, matematika, algoritm, Sistema, mazmun, yaxlitlik, kasr.

Ma‘lumki, matematikani yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo‘ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qarorqabul qilish, muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o‘zida shakllantiradi. Shuningdek, matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo‘lgan ishlar, tevarak-atrofdagi sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi. Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantirishda, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat‘iyat va irodani tarbiyalashda, algoritmik tarzda tartibintizomlilikni ta‘minlashda va tafakkurini kengaytirishda katta o‘rin tutadi. Matematika olamni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun matematik madaniyat – umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematika fanini nazariylashtirgan holda o‘qitishga yondashishdan voz kechib, o‘quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga erishish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e‘tiborni kuchaytirish – davr talabi. Matematik ta‘limga kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarda kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni hamda matematik ta‘limning amaliy, tatbiqiy

yo'nalishlarini kuchaytirishni nazarda tutadi. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi, fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatishga ilg'or milliy va xalqaro tajribalar asosida standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Matematikaning hayotimizda tutgan beqiyos o'rni inobatga olingan holda mazkur fan birinchi sinfdanoq maktab darsliklariga kiritilgan bo'lib, yurtimizda barcha aniq fanlar qatori matematika ta'limini zamon talablari asosida takomillashtirib borish, uni o'qitishda eng so'nggi pedagogik va innovatsion usullar, multimedia vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o'quv fanini akademik bilim berishdan ko'ra ko'proq hayot bilan bog'lash, amaliy misol va masalalarni yechish, o'quvchilarni mustaqil izlanish, o'qibo'rganishga jalb etishning ahamiyati beqiyos. Dars jarayonida o'quvchi o'zining majburan partaga mixlab qo'yilgandek his etmasligi, aksincha, mashg'ulotlarda katta ishtiyoq, kuchli xohish bilan qatnashishiga erilishi lozim. Matematik bilimlar nafaqat baho olish uchun savol-javoblar yoki imtihonlarda, balki uyda, ish jarayonida, sport va san'at bilan shug'ullanishda, savdo-sotiq, oldi-berdi hayotning har bir lahzasida o'quvchiga naf berishini u chuqur anglab yetishi muhim. Buning uchun esa mazkur fan o'qituvchisi o'tayotgan mavzularini bevosita hayot bilan bog'lab, biror misol yoki masala, topshiriqlarni turmushdagi oddiy vaziyatlar yordamida yechishga o'rgatishi zarur. Matematika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Pedagogik, kompyuter va axborot texnologiyalar ta'lim jarayonini tashkil etish, tayyorlash, ilmiy-metodik materiallar bilan ta'minlash, ta'lim jarayonini amalga oshirish, ta'lim natijalarining sifatini baholashdan iborat bo'lgan yaxlit tizimda o'z ifodasini topadi. Matematika fanlarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Matematika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Kompyuter texnikalarini ta'lim muassasalariga tatbiq etish, o'qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo'l ochib beradi. Keyingio'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi. Matematika o'qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan materiallarni tushunarli bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Modellashtirish yordamida o'quvchilarga ma'lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasini ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil

bo'ladilar. Ko'p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o'z kasbi bilan bir vaqtda ma'lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi. Shu maqsadda XX asrning 90 yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo'lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin. Axborotlarni ifodalash va uzatishga bo'lgan ehtiyoj so'z, yozuv, tasviriy san'atda, kitob chop etish, pochta aloqasi, telegraf, telefon, radio, oynai jahon va ishlab chiqarishning boshqa jabhalarini boshqarishning barchasi kompyuter texnologiyalari yordamida osongina hal qilinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nomozov, M.M.O., & Haydarov, S. A. (2021). OZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR. *Scientific progress*, 1(5).
2. Alixonov S. "Matematika o'qitish metodikasi" Qayta ishlangan II nashri. T., «O'qituvchi» 1997 va boshqalar elementar matematikadan masalalar.
3. Saitov Y.O. "Matematika va matematiklar". kitobidan.

KUZGI BUG‘DOY XOSILDORLIGINING SHO‘RALARNI (S’HENUPODIUM) GERBITSIDLAR VOSITASIDA BARTARAF ETISHGA BOG‘LIQLIGI

Xoliqov Z.B. , Utaeva G.N.

Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10428042>

Annotatsiya: O‘zbekistonning janubiy mintaqalari sharoitida g‘allachilikni yanada rivojlantirishning ustivor muammolaridan biri kuzgi bug‘doy dalalaridagi begona o‘tlarni samarali bartaraf etishda Atlantis gerbitsidining 300 g/ga me‘yorida qo‘llanilishi yuqori samarali tadbir bo‘lib, don xosildorligining 24 s/ga gacha oshirish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so‘zlar: Kuzgi bug‘doy, Gerbitsid, Granstar, Atlantis, hosildorlik, begona o‘tlar, sho‘ralar.

Hozirgi vaqtda jahon bo‘yicha bug‘doy xosildorligi 31.1 s/ga dan oshmayapti. Bunday salbiy xolatga ko‘p jihatdan bug‘doy dalalarida begona o‘tlarlarining keng tarqalishi sabab bo‘lmoqda. Chunki kuzgi bug‘doy yoppasiga tor qatorlab ekilishi sababli orasida begona o‘tlar erkin tarqalib ulkan zarar etkazadi. Shu sababli ham kuzgi bug‘doy dalalaridagi begona o‘tlarga qarshi kurashishning zamonaviy yo‘llarini ishlab chiqish hozirgi davr aktual muammolaridan hisoblanadi.

Shu sababli ham begona o‘tlarni tarqalishi va ularga qarshi kurashish usullari buyicha talaygina ilmiy –tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. [1,2] Ayniqsa begona o‘tlarga qarshi kurashish bo‘yicha o‘tilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini dunyoning turli mintaqalarida uchratamiz. [4,5,9] Shu jumladan kuzgi yumshoq bug‘doy dalalaridagi begona o‘tlarga qarshi kurashish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar ko‘proq e‘tiborga sazovor. [3,6,7,8] F.Ya.Xasanova va boshqalar tomonidan boshqoli don ekinlari dalalaridagi begona o‘tlarga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus tavsiyanoma ishlab chiqilgan. [10]

USLUBIY QISM

O‘zbekistonning janubiy mintaqasidagi sharoitda kuzgi sug‘orish dalalaridagi sho‘ralarga qarshi kurashish bo‘yicha 2015-2017 yillarda ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. [10]

Sho‘ralar urug‘lar har yili kuzgi bug‘doy ekin bilan birga oktyabr oyi o‘rtasida ekiladi. Tadqiqotlar o‘tkazish uchun sho‘ralarning oq sho‘ra (S‘henupodium album) Sassiqlik sho‘ra (S‘henupodium vulveria) Qizg‘ish sho‘ra (S‘henupodium rubrum) va xushbo‘y sho‘ra (S‘henupodium botrys) kabi turlari teng aralashtirilib tajribaning nazorat variantiga ekildi.

Tadqiqotlar uchun gerbitsidlarning Granstar(20g/ga) va Atlantis (300g/ga) turlaridan foydalanib tavsiya etilgan me‘yorlarda 15 mart 1aprel va 15 aprel sanalarida 300 litr/ga eritmasi qullanildi.

Tajribaning birinchi nazorat variantiga sho‘ralar urug‘lari ekilmadi va gerbitsidlar ham qullanilmadi. Ikkinchi nazorat variantiga sho‘ralar urug‘lari ekilib, gerbitsidlar

qullanilmadi. Tajriba variantlariga esa granstar (20 g/ga) va atlantis (300 g/ga) gerbitsidlar eritmalari qo‘l apparati vositasida qo‘llaniladi. [10]

EKSPREMENTAL QISM

Tadqiqotlarda xosildorlik bo‘yicha olingan ma’lumotlar jadvalda keltirilgan.

Kuzgi bug‘doyning “G‘ozg‘on” navi xosildorligi qo‘llanilgan gerbitsidlar turlari va qo‘llash muddatlariga mutanosib holda o‘zgarib borishligi kuzatildi.

Kuzgi bug‘doy sho‘ralari ekilmasdan va begona o‘tlarga qarshi gerbitsidlar qo‘llanilmagan birinchi nazorat varianti don xosildorligi 57,1-58,8 s/ga tashkil etgan holda, gerbitsidlar begona o‘tlarga qo‘llanilmasdan sho‘ralar ta’sirida etishtirilganda (ikkinchi nazorat varianti) Don xosildorligining keskin pasayib ketishligi kuzatilib 43,3 s/ga don 45,3% s/ga gacha ya’ni birinchi nazorat variantidagiga nisbatan 13,3-15,4 s/ga gacha pasayib ketishligi aniqlandi.

Bunday holat kuzgi bug‘doy dalalaridagi begona o‘tlarni gerbitsidlar vositasida bartaraf etishni taqozo etadi.

Jadval

**Kuzgi bug‘doy xosildorligining sho‘ralarni (S‘henupodium)
 gerbitsidlar vositasida bartaraf etishga bog‘liqligi
 (2015-2017 yillarda kuzatishlar)**

№	Ko‘rsatkichlar Tajriba variantlari	Hosildorlik, s/ga			Nazoratlarga nisbatan farqlar s/ga		
		2015 yil	2016 yil	2017 yil	O‘rtacha	1-nazoratga nisbatan + -	2-nazoratga nisbatan + -
Gerbitsidlar 15 martda qo‘llanilganda							
1	Sho‘ralar ekilmaganda Gerbitsidsiz (St)	56,4	57,8	57,1	57,1	0	0
2	Sho‘ralar ekilganda Gerbitsidsiz (St)	42,8	43,4	43,7	43,3	-13,8	0
3	Sho‘ralar ekilganda gransta, 20 g/ga	63,9	65,4	64,8	64,7	+7,6	+21,4
4	Sho‘ralar ekilganda Atlantis, 300 g/ga	64,8	66,1	65,4	65,4	+8,3	+22,1
Gerbitsidlar 1 aprelda qo‘llanilganda							
1	Sho‘ralar ekilmaganda Gerbitsidsiz (St)	59,5	57,8	59,1	58,8	0	0

2	Sho‘ralar ekilganda Gerbitsidsiz (St)	44,9	45,2	46,4	45,5	-13,3	0
3	Sho‘ralar ekilganda gransta, 20 g/ga	67,9	69,5	69,0	68,8	+10,0	+23,3
4	Sho‘ralar ekilganda Atlanchis,300 g/ga	68,9	70,1	68,0	69,5	+10,7	+24,0
Gerbitsidlar 15 aprelda qo‘llanilganda							
1	Sho‘ralar ekilmaganda Gerbitsidsiz (St)	56,7	57,9	58,5	57,7	0	0
2	Sho‘ralar ekilganda Gerbitsidsiz (St)	41,9	43,2	41,8	42,3	-15,4	0
3	Sho‘ralar ekilganda gransta, 20 g/ga	61,9	63,3	62,3	62,5	+4,8	+20,2
4	Sho‘ralar ekilganda Atlanchis,300 g/ga	65,9	66,5	65,9	66,1	+8,4	+23,8

Shu sababli ham kuzgi bug‘doy dalalarida sho‘ralarga qarshi granstar gerbitsidi 20 g/ga qo‘llaniladi. 15 mart sanasida qo‘llanilganda olingan qo‘shimcha don xosildorligi granstar tarkibida qo‘llanilgan nazorat variantidagiga nisbatan 21, 4 s/ga yuqori bo‘lishligi aniqlandi.

Xuddi shu muddatda (15 mart) sho‘ralar va boshqa begona o‘tlarga qarshi Atlantis gerbitsidi 300 g/ga miyorida qo‘llanilgandagi qo‘shimcha don xosildorligi yanada oshib 22,1s/ga tashkil etishligi kuzatildi.

Atlantis gerbitsidi bir va ikki pallali begona o‘tlarni kuzgi bug‘doy dalasida bartaraf etish sababli granstar gerbitsidiga nisbatan ustunligi kuzatildi, chunki granstar gerbitsidi faqat ikki pallali begona o‘tlarni bartaraf etadi.

Kuzgi bo‘g‘doy dalalaridagi sho‘ralar va boshqa bir va ikki pallali begona o‘tlarga qarshi gerbitsidlar 1aprel va 15 aprel sanalarida qo‘llanilganida ushbu gerbitsidlarning 1 aprelda qo‘llanilishining ustivorligi ma’lum bo‘ldi. Chunki granstar gerbesidiga 1 apreldan qo‘llanilgandagi qo‘shimcha don xosildorligi 23,3 s/ga tashkil etib, 15 aprelda qo‘llanilganda 20,2 s/ga yoki 3,1 s/ga past bo‘lishligi kuzatildi. Atlantis gerbesidining ham 1 aprel sanasida qo‘llanilishi ustivorligi ma’lum bo‘lib, 1 aprelda qo‘llanilganda 24,0 s/ga

qo'shimcha don xosili olinib 15 aprelda qo'llanilgandagi qo'shimcha don xosili 23,8 s/ga tashkil etgani xolda 6,2 s/gacha pasayishligi ma'lum bo'ldi.

Biroq barcha holatlarda ham Atlantis gerbitsining kuzgi bug'doy dalasidagi shuralar va boshqa bir va ikki pallali begona o'tlarga qarshi qo'llanilishining samaradorligi yuqori bo'lishligini ko'rsatdi.

Masalan: Gerbitsidlar aprelda qo'llanilganda granstar Gerbitsidi olingan qo'shimcha don hosilini 23,3 s/ga tashkil etib, Atlantis gerbitsidi vositasida 24,0 s/ga yoki 0,7 s/ga yuqori bo'lishligini qo'rsatadi. Xuddi shunday qolgan gerbitsidlar 15 aprelda qo'llanilganda ham takrorlanib granstar qo'llanilganida nisbatan 3,6s/ga yuqori bo'lishligini ko'rsatadi.

Demak, O'zbekistonning janubiy mintaqalari sho'ralar, bir va ikki begona o'tlarni kuzgi bug'doy dalalarida bartaraf etishning ustivor tadbirlaridan biri ekologik sof va samarali Gerbitsidlar foydalanishdan iborat bo'lmog'i kerak.

XULOSA

O'zbekistonning janubiy mintaqalari sharoitida g'allachilikni yanada rivojlantirishning ustivor muammolaridan biri kuzgi bug'doy dalalaridagi begona o'tlarni bartaraf etishligidan iborat bo'lib bir va ikki pallali begona o'tlarni kuzgi bug'doy dalalarida samarali bartaraf etishda Atlantis gerbitsining 300 g/ga me'yorini aprel oyi boshida qo'llanilishi yuqori samarali tadbir bo'lib don hosildorligini 24 g/gacha oshirish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar

- 1.Алиев А.П. Эффективность комплексного использования навоза и гербитсида//Ж.Земледелие.2003. №2 20 с.
2. Бадзыров Г.И. Борба с сорняками в современных системах земледелие.//Ж. Земледелие. №2. 316 с.
3. Баранова Т.А., Юнин В.Н. Из опыта применения гербитсидов на озимой пшенице//Ж.Защита и карантин растений.2003. №3. 21-22 с.
4. Бахромов Б., Жумабоев З. Бегона ўт хосил кушандаси // Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 2003.№2..35-36 б.
5. Захаренко В.А., Захаренко А.В. Борба с сорняками //Ж.Защита и карантин растений.2004.№4. 3с.
6. Иброгимов З.А. Борба с сорными растениями при технологии возделывания двух урожаев зерна в год: Автореф. дисс. канд. с/х наук. Самарканд: СамСХИ.1999.21с.
7. Махмудхужаев Н.Р. va boshqalar boshqoli don ekinlari kasalliklari .zararkunandalari va begona o'tlarga kurashish.T. 2000.22- 29s.
8. Мо'minov К.Р., Rizaev Sh.Х. Granstar-75 % gerbitsidi kuzgi bug'doyzorlarda begona o'tlarga qarshi qo'llanilsa // J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2002.№1. В.98-99.
- 9.Сергеева И.В. и другие. Агроэкологические аспекты использования гербитсидов в посевах о: пшенисы Аграрный научный журнал 2016. №1.27-32с.

10. Xasanova F.Ya. va boshqalar. Boshqalari don ekinlari maydonlaridan gerbitsidlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar. Toshkent 2010. B.99-98.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR ISHLAR TIZIMI

Pirnazarova Nasiba Abdunabi qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 3-kurs talabasi

Rajabboyeva Mohichehra Amatjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 3-kurs talabasi

Abdumajidova Sevinch Abdurauf qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10428059>

Abstract: *This article provides information about the system of speech development in preschool educational institutions.*

Key words: *Speech development in children, independent thinking, mental development, tendency, continuous education, speech formation, speech development methodology, preschool education.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirishga doir ishlar tizimi haqida ma'lumotlar berildi.*

Kalit so'zlar: *Bolada nutqning rivojlanishi, mustaqil fikrlash, aqliy rivojlanish, tendensiya, uzluksiz ta'lim, nutq shakllantirish, nutq o'stirish metodikasi, maktabgacha ta'lim.*

KIRISH. (Introduction)

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq o'stirish nima? Agar bola va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, bolalarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi¹.

¹ Рождественский Н. С., Кустарева В. А. Методика начального обучения русскому языку.- М.: «Просвещение», 1965. 289-бет.

TMM ning asosiy maqsadi bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash barkamol rivojlangan mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish va qobiliyatlarni ochib berish tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Bundan tashqari Prezidentimiz bu haqda shunday degan edi: "Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb – hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat"

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni har tomonlama, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tomondan tarbiyalashdek, maqsadni o'z oldiga qo'ygan. Bu maqsad esa, bolalarga ona tilini o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi. Bog'chada og'zaki nutqni o'stirish natijasida bola aqlan rivojlanib, uning umumiy madaniy saviyasi oshadi. U tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib boradi. Bolada nutqning rivojlanishi uning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi.

Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek, nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo, bolardagi intellekt, ya'ni ruhiy jarayonlar (xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va hokazo) shunchaki bola organizimining o'sib borishi va takomillashishi bilangina paydo bo'lmay, balki nutqning rivojlanishi bilan paydo bo'ladi va takomillashadi. Agar bola kichik yoshidan boshlab to'g'ri gapirishga (so'zlashishga) o'rgatib borilsa, u vaqtda bunday bola meyoriy holatda rivojlanadi, ya'ni avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyati paydo bo'ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Bolalarda intellekt bilan barobar ravishda iroda kabi ruhiy jarayon ham takomillashib boradi. Ko'pgina tajribalar shuni ko'rsatadiki, nutqi rivojlanmagan bola to'liq shaxs sifatida kamol topmaydi. Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda barcha ruhiy jarayonlar rivojlanishiga ko'maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o'rgatish bilan bir vaqtda, uni maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun zamin tayyorlanadi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o'rgatiladi. Bolalar bog'chasining barcha tarbiyaviy-ta'limiy ishlarida bolalarga ona tilini o'rgatish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Ayniqsa, nutq o'stirish mashg'ulotlarida har bir bolaning nutqini o'stirish bo'yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg'ulotlarning mazmuni faqat ona tili orqali singdiriladi.

So'z boyligi barcha mashg'ulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta o'zlashtirib olish va bu bilim, tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi. Bu o'z navbatida bola kamoloti uchun ham keng yo'l ochadi. Bilimlarni puxta egallashga, uni sekin hayotga tatbiq etishga ham o'rgatadi. Ona tili aqliy tarbiyaning manbai va vositasi hamdir. Ona tili bolalarda vatanparvarlik, baynalmilal tuyg'ularni o'stirib borishda, bolalarning madaniy saviyalarini oshirib borishda qudratli vosita bo'lib xizmat qiladi. Demak, ona tili bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalash vositasidir.

Bola kuzatish va nutq orqali dunyoni, borliqni bilib oladi: tevarakatrofdagi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning nomini, sifatlari va belgilarini, xususiyatlarini, o'xshash va farqli tomonlarini aytishga o'rganadi. Ona tili orqali bolalar o'z ajdodlarining tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini bilib oladilar, xalq og'zakijodiyoti, badiiy adabiyot, san'at bilan tanishadilar.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini o'stirishga doir mashg'ulotlarni didaktik o'yinlar, ermak o'yinlar, sahna ko'rinishlari shaklida o'tkazish tavsiya qilinadi. Ular nafaqat ko'ngilochar tusga, albatta, ta'lim tusiga ega bo'lishi lozim. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini o'stirishemotsional tusga ega bo'lishi lozim. Bunda ko'rgazmaviylik, o'yin usullari va didaktik o'yinlarni keng qo'llash zarur. 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini o'stirishga doir mashg'ulotlar muayyan vazifaga ega – ya'ni, u bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ko'zda tutadi. Mashg'ulotlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e'tiborli bo'lish, pedagog topshirig'ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr yurita bilish, tengdoshining javobiga baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi.

Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. «...Tilni egallash jarayoni -bu faqat va shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko'nikmalarni berish jarayoni emas. Bu eng avvalo tarbiyadir. Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish, inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir» (K.D.Ushinskiy). Bola nutqiy rivojlanishining, bir tomondan, tashqi ta'sirlar bilan belgilanishi, ikkinchi tomondan esa uning to'satdan yuz berishi, “o'zo'zidan harakatga kelishi” bilan tavsiflanishini tushunish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga xos holatdir. Nutqni rivojlantirishning ana shu qonuniyatlari va mexanizmlarini tushunib yetish ularni batafsil ko'rib chiqishni talab qiladi.

Bu so'zlarning izohini topishda o'quvchining o'zi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi metod bolalarning so'z boyligini oshirish bilan bir qatorda lug'at bilan ishlashga ham o'rgatadi. Darslarda interaktiv usullar qo'llashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha bolalar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi bolalar tomonidan mustaqil o'rganiladi. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. Bolalarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Tarbiyachi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o'rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to'g'ri qo'llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko'p qo'llansa, bolalarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Demak, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda MTT, oila, mahalla, maktabning roli juda katta. Ular birgalikda bolaga ham ta'lim va tarbiya beradilar. Uzluksiz ta'limda izchillik esa o'z navbatida Vatanga sadoqatli, imon-e'tiqoti butun, o'z mustaqil fikriga ega, har tomonlama qobiliyatli, o'z kelajagini o'z qura oladigan shaxslarni tarbiyalashda dasturil amal hisoblanadi. Bola tarbiyasida mustaqil fikrlash uning komil inson darajasida intilib, orzuomidlar va ezgu maqsadlar yo'lida yashashga undaydi, vijdon oldida soflikni ta'minlaydi. Faqat MTT-oilamaktab hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilgandagina, har bir oilada badiiy adabiyotga qiziqish ortgandagina, jamiyatda o'sish va rivojlanish sezilarli darajada o'z kuchini ko'rsatadi. Inson ma'naviyatli va madaniyatli bo'lib tug'ilmaydi, u bilim olish jarayonida shakllanadi. Bizning oldimizda turgan eng katta masalalardan bir esa, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida

tarbiyalanishi uchun qo‘limizdan keladigan barcha ezgu ishlarni qilishdir, Zero, ertangi kun O‘zbekiston taraqqiyoti bilimli, salohiyatli, oqil va odil shaxslar qo‘lida bo‘lishi har doim muhim vazifa hisoblanib kelingan.

Bolalar maktabgacha ta’limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko‘nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat Ko‘rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to‘g‘ri ifodalashi o‘zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tilida nutq o‘stirish fanining o‘rni, ahamiyati kattadir.

Adabiyotlar:

1. Babaeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDPU, 2016.
2. F.R.Qodirova. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o‘rgatish metodikasi. -T. 4.2004.

XALQ TABOBATI VA UNING RIVOJLANISHI

Kuvondiqova Dildora Jaxongir qizi

Samarkand Tibbiyot universiteti 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10444101>

Abstract: *This article provides information about the reforms implemented in the Republic of Uzbekistan for the development of folk medicine.*

Key words: *folk medicine, ancient, healer, medicinal herbs, medical science, modern medicine.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston respublikasida xalq tabobatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *xalq tabobati, qadimiy, tabib, shifobaxsh giyohlar, tib ilmi, zamonaviy tibbiyot.*

Tabobat inson faoliyatining muhim sohalaridan biridir. U boshqa ko'p sohalardan oldinroq paydo bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra qadim zamonlarda yashagan ibtidoiy odamlar hali o'zlari uchun turarjoy qurish, kiyim tikish va ovqat pishirishni bilmay turib, ba'zi kasallik holatlarida o'zlarini muolaja qilishni bilib olganlar. Buni o'sha ibtidoiy odamlarning yashash sharoitlari taqozo qilgan. Ularning yashash sharoitlari esa juda og'ir va mashaqqatli bo'lgan. Ibtidoiy odamlar uy joysiz, o'rmonlarda, g'orlarda yarim yalang'och va ko'pincha och yashab, boshlaridan ko'p qiyinchiliklarni kechirganlar. Buninig natijasida ko'p kasalliklarga duchor bo'lganlar, yirtqich hayvonlar bilan to'qnashib, tan jarohatlar olganlar. Tabiiyki, bunday holatlarda kishilar kasallikdan qutilish va tan jarohatlarini tuzalishga intilganlar. Natijada dastlabki oddiy muolaja usullari "kashf" etilgan. Bu haqda buyuk Hippokrat (Gippokrat) bunday, deb yozgan edi: "Hayotninig o'zi kishilarni tabiblik san'atini izlab topishga majbur etgan".

Tabobatninig kelib chiqishi tarixini atroflicha o'rganish shuni ko'rsatdiki, "birinchi tabib" organizmning o'zi ekan, ya'ni organizmninig o'zi birinchi bo'lib kasallikka qarshi kurasharkan. Haqiqatan tirik mayjudodlarning organizmi kasallik paydo qiluvchi omillarga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Buni quyidagi oddiy misoldan ko'rish mumkin: Agar organizmga tashqaridan biror yot narsa, masalan, zirapcha kirib qolsa, uning atrofida qon tanachalari (leykotsitlar) to'planib, zirapcha bilan kirgan mikroblarni yutib, yo'q qila boshlaydilar. Natijada organizm bu mikroblardan holi bo'ladi.

L. Morgan, E. Teylor, R. Soleski singari ibtidoiy madaniyat tadqiqotchilari xalq tabobatining shakllanishi Yer yuzida insoniyatning paydo bo'lishiga borib taqalishiga urg'u beradi. Chindan ham, davolashning bu usuli o'ta qadimiydir. Uning sirlari avlodan-avlodga o'tib, xalqning necha ming yillik tajribalari natijasida sayqallanib, bizgacha yetib kelgan. Buni zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi "Avesto" ham tasdiqlaydi. Uning barcha qismida, xususan, "Vendidod"da tabiblar tayyorlash, tabobat amaliyoti, kasalliklar tasnifi, ularning paydo bo'lish sababi va omillari, noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli

ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, tabib madaniyati, axloqi, uning kasbiga fidoyiligi kabi masalalar bayoniga alohida sahifalar ajratilganki, bu zaminimiz xalq tabobatida nihoyatda boy tajribaga ega ekanligidan dalolat beradi. Buyuk bobokalonimiz Abu Ali Ibn Sino o'n olti yoshidayoq mashhur tabib bo'lib tanilgan. Ibn Sino Buxorada 20 jildli qomusiy asari "Al-Hosil va-lmahsum" ("Yakun va natija"), 2-jildli "Kitobul-bir va-l-ism" ("Sahovat va jinoyat kitobi") asarlarini va o'zining tabobatga oid birinchi asari "Tabobat lug'ati"ni yozgan. Allomaning "Tabobat lug'ati" asaridan ko'p tabiblar nusxa olib, keng foydalaninglar. Ibn Sinoning tabobatda qilgan ishlari uning nomini bir necha asrlarga shu fan sohasi bilan chambarchas bog'ladi. Allomaning tabobat taraqqiyotidagi buyuk xizmati shundaki, u o'zigacha o'tgan turli xalq namoyondalari tomonidan asrlar davomida, tib ilmi sohasida to'plangan ma'lumotlarni saralab, muayyan bir tartibga soldi va ularni o'z tajribalari bilan boyitgan holda ma'lum nazariya va qonun-qoida asosida umumlashtirdi. Uning "Tib qonunlari" va bu asarning jahon tib ilmi tarixida tutgan o'rni juda yuqoridir. Ibn Sino antik olimlarning, xususan Gippokrat, Galen, Dioskoridlarning ta'limotlarini o'rgangan va ularning qalamlariga tayangan.

U tib nazariyasini, xususan anatomiya - inson gavdasi tuzilishini mukammal bilgan. Ibn Sino o'tkir diagnost edi. Uning ba'zi tashxis usullari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. A'zoga urush orqali tashxis qo'yishgan. Tabobat tarixida birinchi bo'lib vabo bilan o'latni farqlagan, yuqumli kasalliklar bilan og'riqan bemorlarni boshqalardan ajratgan holda saqlashni ta'kidlagan. Bemorlarni davolashda olim 3 narsaga: tartib (parhyez), dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo'llash (qon olish, banka qo'yish, zuluk solish, huqna va boshqalar) ga ahamiyat berish kerakligini aytadi. Ibn Sino kasallikni davolashda shaxsiy gigiyena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati uqtirgan. Ibn Sino dorishunoslik sohasida ham chuqur tadqiqotlar olib borgan. U antik olimlarning formasiyasi asosida musulmon sharqida paydo bo'lgan yangi formasiyaning shakllanishiga yakun yasadi. Uning dorivor o'simliklarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash usullari hozirda ham qo'llaniladi. Ibn Sino birinchilardan bo'lib kimyoviy usulda tayyorlangan dorilarni ham ishlatgan. Kasallikning turiga qarab avval sodda, so'ng murakkab tarkibli dori bilan davolagan. Eng muhimi, oziq- ovqatlarning shifobaxsh ta'siriga katta ahamiyat berib, davolashni shunday mahsulotlar (meva, sabzavot, sut, go'sht va boshqalar)dan boshlagan. Dori tayinlashda bemorning mijozi, yoshi, iqlim sharoitini hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Abu Ali ibn Sino nafaqat qadim an'analarni davom ettirdi, balki davolashning yangi usullarini yaratib, tibbiyot ilmiga asos soldi. Ayniqsa, dunyo xalqlarining sevimli asariga, tibbiyot sohasi xodimlari faoliyatida dasturilamalga aylangan "Tib qonunlari" atalmish nodir kitobda yozib qoldirilgan ma'lumotlar o'z ahamiyatini zarracha yo'qotmagan, aksincha, qadr-qimmatini yana-da oshgan. Ulardan yanada kengroq foydalanish hayotiy zaruratdir. Xalq tabobati, uning o'ziga xos an'analari aholi salomatligini ta'minlash, tibbiysanitar yordam ko'rsatish, xususan, surunkali kasalliklar profilaktikasi, ularni davolashda sifat, xavfsizlik va samaradorlik borasida amalda ko'p sinovlardan o'tgan.

Organizmda kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati mavjudligi tufayli, ba'zan bemor biror sabab bilan davolana olmasa ham, sog'ayib ketishi mumkin. Qadimgi tabiblar yana shuni aniqlaganlarki, organizmda ayrim yuqimli kasalliklarga nisbatan "qabul

qilmaslik” xususiyati paydo bo‘lishi ham mumkin. Bu hozirgi tilda “immunitet” – immune, deb ataladi. Masalan, qadimgi Xitoy va Eron hakimlari bir marta chechak (smallpox) va qizamiq (measles) bilan og‘rigan kishi bu kasalliklar bilan ikkinchi marta og‘rimasliklarini aniqlaganlar. Shunga asosan dastlabki variolatsiya (vaccination) usullari ishlab chiqilgan. Masalan, xitoylar chechakka qarshi emlash usulini qo‘llaganlar.

Qadimgi Eroniyalar ilon zahariga qarshi immunitet paydo qilishga ham uringanlar va bu sohada ma'lum natijaga erishganlar. Ular odamga oz-ozdan ilon zaharini berib borib, ohirida uning oiganizmida mazkur zaharga nisbatan immunitet paydo qilganlar.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, tirik mavjudotlar organizmi haqiqatdan kasalliklarga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Bu xususiyatni “organizmning o‘z ichki tibbiyoti”, deb atash mumkin. Hayotda bu “ichki tibbiyot” (internal medicine) ning ahamiyati juda kattadir. Atrof tabiatimizda kasallik paydo qiluvchi omillar shu qadar ko‘p va xilma-xilki, agar organizmning shu “ichki tibbiyoti” bo‘lmaganida barcha mavjudotlar har hil kasalliklardan allaqachon qirilib yo‘q bo‘lib ketardilar.

O‘zbekistonda xalq tabobatini ana shunday yuqori darajaga olib chiqish uchun imkoniyat ham, salohiyat ham yetarli. Jonajon Vatanimiz betakror tabiati, o‘ziga xos o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega, Allohning nazari tushgan noyob manzil hisoblanadi. Eng muhimi, tib ilmining ustuni bo‘lmish Abu Ali ibn Sino bobomiz qoldirgan benazir –merosga egamiz. Ularni amaliyotda keng qo‘llash ko‘zda tutilgan 2021 — 2025-yillarda O‘zbekistonda xalq tabobatini rivojlantirish konsepsiyasi hamda uning maqsadli ko‘rsatkichlarni amalga oshirishga doir “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilmoqda. Mazkur konsepsiya tasdiqlanib, amalga joriy etilishi sohadagi ko‘plab muammolarni hal qiladi. Masalan, xalq tabobatining o‘zagi bo‘lgan asosiy yo‘nalishlarni rivojlantirish va zamonaviy tibbiyotda ularni qo‘llash bo‘yicha o‘quvmetodik qo‘llanmalar, adabiyotlar juda-juda kam. Qadimda keng foydalanilgan va yuqori samarali davolash usullari bo‘yicha adabiyotlar yaratilishi, targ‘ibot ishlarining kuchaytirilishi, o‘z navbatida, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini joriy etishda qo‘l keladi. Eng katta boyligimiz bo‘lgan sog‘lig‘imizni mus–tahkamlashga xizmat qiladi.

Ilm-fan taraqqiy etgan hozirgi davrimizda tibbiyot rivoji ham tezlashib ketdi. Ammo kimyoviy preparatlar kasalliklarni davolashning yagona vositasi emas. Bu usulda tayyorlangan dori-darmonlardan ko‘ra, shifobaxsh tabiiy giyoh va damlamalar asosida davolashning foydasi yuqori ekanligi butun dunyoda tan olinmoqda. Aniqrog‘i, xalq tabobati xavfsizlik va samaradorlik jihatidan amalda o‘zini oqlamoqda. Shu bois unga murojaat qiluvchilar tobora ortib boryapti. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan Xalq tabobati sohasidagi 2014 — 2023-yillarga mo‘ljallangan strategiya amalga oshirilayotgani ana shu hayotiy ehtiyoj mevasi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Qarorning o‘ziga xos yana bir jihati shundaki, unda oliy ta‘lim muassasalari oldiga hozirgi zamon talablariga javob beradigan yuqori salohiyatli, raqobatdosh va malakali kadrlar tayyorlash vazifasi qo‘yilmoqda. Shundan kelib chiqib, ko‘p asrlik tarixga ega Samarqand davlat universitetida talabalar, izlanuvchilar, aspirantlarga ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish, amaliy tajribalar o‘tkazish uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratib berilyapti. Xususan, SamDU biologiya fakulteti qoshida Hindistonning Dehli universiteti bilan hamkorlikda “Abu Ali Ibn Sino merosi” ilmiy laboratoriyasi tashkil qilingani nabotot

namunalarining dorivorlik xususiyatlarini o'rganish barobarida, mutaxassis va olimlar bilan hamkorlikda ularni amaliyotga joriy qilish bo'yicha innovatsion ishlanmalar yaratishda qo'l kelyapti.

Adabiyotlar:

1. Jumaniyazova Firuza Jumanazarovna, "Xalq tabobatida tabiblarning o'rni. Xalq tabiblari ichida o'ziga xos ixtisoslashtirish". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, September 2021.
2. Rustam XOLMURODOV, Bakriddin ZARIPOV, "Xalq tabobati: Tabiat va inson uyg'unlashuvi", Samarqand 2020.
3. U.I. Karimov, X. Xikmatullayev, M.M. Xayrullayev, "Abu Ali ibn Sino-Salomatlik Sirlari", Toshkent. 2000.
4. "Tib qonunlari". Abu Ali ibn Sino, O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, Toshkent 1982
5. Tanishing, shoyad siz ham shifo topsangiz (Xayratmi yo mo'jiza). Sobir Mirvaliyev. Toshkent "Fan" nashriyoti, 2005.

THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF THE ENGLISH LANGUAGE AMONG THE COUNTRIES OF THE WORLD

INGLIZ TILINING DUNYO DAVLATLARI ORASIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Xidirova Pokiza Shamsiddinovna

*Jizzax shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 1-umumta'lim
maktabida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10444103>

Annotation: *studying the role of English in the modern world, it is worth noting that there are several variants of modern English, but among them two occupy a special position, these are: British and American variants. In this article we will talk about the role of English as a language in the world.*

Keywords: *English, interethnic, international relations, subject, concept, experience, methodology.*

Insoniyat yaralibdiki odamlar bir-birlari bilan o'zaro til orqali muloqotga kirishib kelishmoqda. Til bu xalqlarning bir-biriga bog'lovchi betakror fenomen hisoblansa, boshqa tarafdin esa turli millatlarni bir- biridan ajratuvchi o'ziga xos noyob hodisadir. Bugungi kunda til o'rganish juda ham muhim. Bunga misol tarixdan malumki qaysi xalq vakillari qancha ko'p til bilsa shuncha tez va mukammal taraqqiyot yo'liga chiqqanlar.

Til asosiy aloqa vositasidir, usiz inson jamiyatining borligi va rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda bizning dunyomizda ijtimoiy munosabatlarda katta o'zgarishlar bo'layotgan bir pallada aloqa axborot vositalari (axborot texnologiyalari) o'quvchilarning kommunikativ malakasini oshirishni talab qiladi, ular muloqotning boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro muloqot qilish jarayonida turli vaziyatlarda fikrlarni almashishi, til va so'zlashuv normalarini to'g'ri ishlatishi taqazo etadi. Bunday sharoitda, xorijiy tilning asosiy maqsadi kommunikativ qobiliyatni shakllantirishdir, ya'ni chet tilida shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishni talab etiladi.

Bugungi kunda jahondagi juda ko'plab mamlakatlarda o'z ona tillaridan tashqari bir qancha chet tillarini o'rganish davlat siyosati darajasida ko'tarilmoqda. Bu be'jiz emas albatta, chunki boshqa xalqlarning urf-odatini, turmush tarzi umuman olganda o'sha xalq qalbini bilishi lozim. Mamlakatimizda ham bu borada qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda chet tillarini o'rganishga qaratilgan chora tadbirlar be'jiz bo'layotgani yo'q. Chunki boshqa tillarni bilishga ehtiyoj bugundan paydo bo'lib qolmasdan balki uzoq o'tmishimizda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ajdodlarimiz o'z ona tillari qatori boshqa tillarni ham mukammal bilishga intilganlar va buning uddasidan chiqqanlar.

Ko'plab ajdodlarimiz boshqa tillarni chuqur egallash bilan bir qatorda o'sha xalq manaviy merosiga o'zlarining noyob durdona asarlari bilan ham xissa qo'shdilar.

Hozirgi kunda ingliz tili o'ziga xos mavqega ega va lingua franca - butun insoniyatning millatlararo muloqot tiliga aylanib bormoqda. Ammo yarim asr oldin ingliz tili xalqaro tillardan biri edi. Bugungi kunda ingliz tili nafaqat Evropada, balki butun dunyoda millatlararo muloqot tili mavqeini mustahkamladi. Afrikaning bir qator mamlakatlaridagi fransuzlar, sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlaridagi ruslar kabi boshqa tillar o'z mavqeini saqlab turadigan mintaqalar hanuzgacha mavjud. Shu bilan birga, xalqaro aloqalarda ingliz tilidan kengroq foydalanish tendentsiyasi mavjud. Hozirgi kunda ingliz tili O'rta asrlarda Evropada Lotin tili o'ynagan rolni o'ynaydi.

Amerika va Britaniya versiyalari har xil til emas, bular zamonavit ingliz tilning ikki variant hisoblanadi, nutq jarayonida ularning rivojlanishining umumiy qonuniyatlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash muhimdir. Britaniya versiyasining ahamiyati va zamonaviyligi, an'anaviy ravishda dunyoning aksariyat mamlakatlarining ta'lim tizimida o'quv predmeti sifatida ishlatilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, hududiy jihatdan ingliz tilining rivojlanishi va qollanilishi bir xil bo'lolmaydi. Fonetik va leksik xususiyatlarning butun qatori Angliya, Kanada, Avstraliya va boshqalarning rezidentlari nutqi bilan ajralib turadi, ammo bu xususiyatlar deyarli og'zaki nutqda bir-birini tushunishga xalaqit bermaydi va yozma nutqda umuman aralashmaydi. Adabiy ingliz deb ataladigan tushuncha ham shunday. Ingliz tili asosida shakllangan sozlarning eng muhimi: pidgin-inglizcha (pidgin english) - 18-asr boshlarida paydo bo'lgan, Xitoy, Yaponiya va Kaliforniyada keng qo'llanilgan; bichlamar (beach-la mar) - Tinch okeanining orollarida ishlatiladi; Cru English (kruinglizcha) - Liberiya va Gvineyada ishlatiladi. Aniq bir til qachon paydo bo'lganini aniqlash har doim ham qiyin, lekin ingliz tilida biz hech bo'lmaganda bu alohida hodisa sifatida paydo bo'lgani xususida mulohalar yuritishimiz va bu haqda gapirishning mantiqiy ekanligini aytishimiz mumkin. Bu davr haqida aniq bir narsa deyish juda qiyin, ammo biz aniq bilamizki, nemis bosqinchilari Buyuk Britaniyaga beshinchi va oltinchi asrlarda Evropaning shimoliy-g'arbiy sohilida Buyuk Britaniyada joylashdilar va joylashdilar.

Ular nemis tillarida gaplashdilar (keyingi golland, friz, nemis va skandinaviya tillariga), ammo biz ularning nutqi qo'shnilarining nutqidan qanchalik farq qilganini hech qachon bilmaymiz. Shunisi e'tiborga loyiqki, ko'chmanchilar bir xil tilda gaplashishlari mumkin. Ushbu davrning lingvistik holati to'g'risida juda kam ma'lumotga ega bo'lishning sababi, oldingi davrlarning german tillariga bag'ishlangan yozma arxivlar yoki hujjatlar yo'qligi. Turli lahjalar paydo bo'lishi, unchalik ahamiyatli bo'lmasa-da, VII-IX asrlarga oid hujjatlarni ko'rish mumkin. Ularning barchasi IX asrda Buyuk Alfred ingliz deb nomlagan tilga tegishli edi.

Keyingi bosqinchilar skandinaviyaliklar edi. IX asrning o'rtalaridan boshlab, norveg bosqinchilari Britaniyada, asosan shimoliy va sharqiy mintaqalarda joylashdilar va XI asrda Daniya qiroli Canute ingliz taxtiga o'tirdi. Skandinaviyaliklarning nutqi ingliz tiliga katta ta'sir ko'rsatdi, buni ularning tillaridan olingan so'zlardan ko'rish mumkin. Ularning orasidagi o'xshashliklar qadimgi ingliz va bosqinchilarning tili o'rtasida umumiylik bo'lgan

degan ma'noni anglatadi. Ba'zi so'zlar, masalan, berish, ingliz va skandinaviya tillarining grammatik tuzilishlarining o'ziga xos "kesishishi" ni ko'rsatadi.

Va ularning orasidagi o'xshashliklar juda katta bo'lsa-da, aksariyat hollarda so'zning kelib chiqishini aniq aniqlash mumkin emas. Biroq, bu ta'sir keyingi yirik tarixiy va madaniy inqilob - Norman istilosi oxirigacha yozma tilda aks etmaydi. Maxsus kuzatishlarimiz va o'tkazilgan tajribamiz asosida quyidagi xulosalarga keldik: o'yintopshiriqlardan foydalanish chet til o'qitishning amaliy, tarbiyaviy, umumta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi; o'quvchilarning xorijiy tilda fikr bayon etish(gapirish)ga nisbatan psixologik salbiy kechinmalarini bartaraf etishga imkon beradi, o'quvchilarga mustaqil fikrlashni o'rgatadi, nutq malakalarini egallashni o'zlashtiradi, maqsadga erishish, g'alaba qozonishga undaydi, tilni kommunikativ metodika asosida o'rganishga imkon beradi, barcha o'quvchilarni darsga jalb qilishga, qiziqishlarini yanada orttirishga, dars samaradorligini ko'tarishga salmoqli hissa qo'shadi.

Bilim, ko'nikma va malaka chet til o'rganishda o'ziga xos munosabat kasb etadi va bu o'quv predmetining xususiyatini aks ettiradi. Nutqda fikrni ifodalash yoki ifodalangan fikrni tushunib olish uchun til materialini qo'llay bilish talab etiladi. Bunga erishish uchun til vositalari bilan nutq mazmuni orasida mustahkam va moslashuvchan aloqa, S.Setlin ta'biri bilan, assotsiatsiya o'rnatilishi kerak bo'ladi.

Nutqiy malaka tarkibida til ko'nikma shakllantiriladi. Grammatik ko'nikmani hosil qilish uch bosqichli metodik davr hisoblanadi: 1) taqsimot bosqichi yangi grammatik birlikni tushuntirish (nutq namunasida taqdim etish), tushuntirish va dastlabki grammatik amallarni bajarishdan iborat. 2) grammatika mashqlarini bajarish. Bu bosqich asosan ko'nikma hosil qilishga qaratiladi. 3) grammatik hodisani nutq faoliyati turlarida qo'llanilish bosqichi. Aytilganlardan a'yon bo'ladiki, grammatika bilimlarni singdirish uchun emas, balki ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuqori sinf o'quvchilarida ingliz tili grammatik ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-metodik tavsifini tadqiq qilishdan ko'zlanadigan yagona maqsad ingliz tili grammatikasini o'rgatish modelinikiritishdir. Nazariy model o'quvchilarning inglizcha grammatik ko'nikmalarini takomillashtirish.

Xorijiy tillarni o'rganishning 8 muhim sabablari:

1. Yaxshi fikrlashga undaydi. Xorijiy tillarni o'rganish insonni ochiq fikrlashga undaydi va mutlaqo yangi madaniyat va dunyoqarashda singib ketish, ochiq fikrlaydigan, tushunadigan, bag'rikeng shaxsga aylanishning eng ishonchli usuli va bu mutlaqo bebahodir. Shuningdek tatqiqotlarning ko'rsatishicha bir necha tillarni bilish yaxshi fikrlash, muommolarni hal qilish va ijodkorlik bilan bog'liq. Shuningdek u odamlarga noma'lum va notanish vaziyatlarni yengishga yordam beradi.

2. Xotirani yaxshilashga yordam beradi. Bir tilni biluvchi bolalarga qaraganda ikki tilli bolalar o'z ongida hisoblash, yaxshiroq o'qish va shunga o'xshash ko'plab boshqa narsalarni yaxshiroq qilishlari malum. Ko'p til biluvchilar ketma-ketlikni yozib olish va eslashda yaxshiroq bo'ladilar.

3. Ko'plab do'stlar orttirish imkonini beradi. Chet tillarini o'rganayotgan insonlarda do'st orttirish imkoni ochiladi. Yangi va qiziqarli odamlar bilan tanishish mumkin. Til bu

insonni his-tuyg'ularini, istaklarini ifoda etishga va atrofdagi boshqa odamlar bilan bog'lanishda yordam beradi va mazmunli munosabatlarni shakllantiradi.

4. Ishlash imkonini oshiradi. Hozirgi kunda chet tillarini bilgan insonlar omadli insonlar hisoblanadilar. Chunki har bir inson uchun xorij tillarini bilish juda muhimdir. Dunyo tobora globallashib bormoqda va ikki til bilish shunchaki qiziqish emas balki zamon talabidir. Chet tilini o'rganish ish topish uchun keng imkoniyatlarni beradi. Hech kimga sir emaski chet tilini o'rganish ish bilan taminlash istiqbollarini yaxshilashi mumkin.

5. Yangi qadriyat va madaniyatlarni bilish. Malum bir til o'rganayotgan insonlarda aynan usha davlatni qadriyati va madaniyatini o'rganish imkonini beradi. Misol uchun bir inson bir chet tilini o'rganar ekan bevosita shu davlatning tili bilan bir qatorda uning madaniyati, qadriyati va urf-odatlarini o'rganadi. Bu esa bizga yanada ko'plab davlatlarni bilishga yordam beradi. Bir so'z bilan aytganda til o'rganish "bir o'q bilan ikki quyovni urish" demakdir. Bir tarafdin til o'rganamiz va ikkinchi tarafdin esa davlatlar bilan yaqindan tanishamiz.

6. Aqliy qobiliyatimizni oshirishga imkon beradi. Miyamizning hajmi yangi so'zlarni va har bir yangiliklarni o'rganishimiz bilan ortib boradi. Bu degani ko'plab til bilishimiz o'zimizning sog'lig'imiz uchun ham zarur ekan. Olimlarning ilmiy tatqiqotlariga ko'ra tilni 3 oy davomida chuqur o'rgangan insonlarda kulrang materiyaning hajmi oshganligini ko'rsatadi. Va bu hajm qanchalik harakat qilinganligiga qarab oshib boradi. Til o'rganishdagi yana eng muhim narsa bu - yosh hisoblanadi. Chunki kattalarga nisbatan yoshlarning eslab qolish qobiliyati kuchliroq. Shu sababli ham kattalarga nisbatan osonroq o'rganib olishadi. Mening fikrimcha chet tillarini o'rganishni yoshlikdan boshlagan foyda.

7. Ilmiy yutuqlarni oshiradi. Til o'rganish akademik yutuqlarni qo'llab quvvatlaydi. Bu chet tilini o'rganayotgan ingliz tilida so'zlashuvchi talabalar, shuningdek ikki tilli va immersion dasturida ingliz tili o'rganuvchilari uchun amal qiladi.

8. Sayohat arzonlashadi va osonlashadi. Albatta ko'p insonlar sayohat qilishni hush ko'rishadi. Chet davlatga borganingizda til bilishingiz sizga juda foyda beradi. Oddiygina ovqatlanishga borganingizda o'zingiz hohlagan taomni tushuntira olasiz. Yo'l so'rashni ham o'zingiz mahalliy insonlardan so'rab, qiyinchiliklarsiz eplay olasiz. Agar siz o'zingiz bilan gid olganingizda juda ham qimmatga tushardingiz.

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim yosh avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy hayotga mustaqil moslashish ko'nikmalari hamda istiqbol rejalarini belgilash va hal etish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda hozirgi davr talabida bo'lish ahamiyatlidir. Shuning uchun ham jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy taraqqiyotini o'stirishda chet tillarini yaxshi biladigan yosh avlodni tarbiyalashda chet tili, xususan ingliz tilining o'rni juda katta. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida ingliz tilini o'qitishning maqsadlari jamiyat, davlat manfaatlari hamda talablaridan kelib chiqishi, unga muvofiq kelishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanboy Rasulov "O'qituvchilar uchun metodik qollanma kitoblari".
2. J. Jalolov. Ingliz tili o'qitish metodikasi, "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent.

3. Siddikova I.A. Metodika prepodovaniya angliyskogo yazıka. T. 2002.
4. Saydaliev S. CHet til o'qitish metodikasidan ocherklar. - N. 2004.
5. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. - T. 1996.

TIL O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASH

Xolbekova Sayyora Amanjonovna
TATU FF akademik litseyi o‘qituvchisi

Pariyeva Shohsanam Olimovna
TATU FF akademik litseyi o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10444284>

Annotatsiya: Bugungi zamonaviy ta’limni interfaol metodlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Dars mazmunini ochib beruvchi faol usullar ham o‘quvchiga ham pedagogga amaliy ko‘makchi vazifasini o‘tamoqda. An’anaviy darsdan farqli o‘laroq metodlar dars jarayoniga jon kiritib, eng muhimi o‘quvchi ongni o‘stirmoqda. Endi o‘quvchi sherigining soyasida soyalab emas, o‘z nuqtai nazarini ommaga etarlicha bayon eta olayapdi. Demakki, interfaol usullar darsning jon tomiriga aylanmoqda. Maqolada ham ushbu namunalar asosida izlanishlar olib borilib ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: interfaol metod, talaba, seminar, dars, ta’lim-tarbiya.

Ma’lumki, barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Shuni inobatga olib, Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib bormoqda desak yanglishmaymiz. Xo‘sh, interfaol usullarning qanday ma’noga ega va uning ahamiyati qanday? Eng avvalo, interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni shirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam berishini anglashimiz lozim. Demakki, Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

“Interfaol” so‘zi (inglizcha “inter” - o‘zaro, “act” - harakat qilmoq), kim bilandir birgalikda harakat qilish, hamkorlik qilishni anglatadi. Interfaol metodlar deganda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Dars jarayonida interfaol metodlar qo‘llanilganda, o‘quvchilar o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlikda bo‘ladi. O‘qituvchi dars jarayonini tashkil etish va o‘quvchilarni qo‘yilgan dars maqsadlariga erishishiga yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. O‘qitishning interfaol metodi tanqidiy fikrlash, mustaqil ishlash, vaziyat va sabablarni tahlil qilish, qaror qabul qilish qobiliyatini

rivojlantirishga yordam beradi. Interfaollik deganda o'quvchining o'quvchi bilan hamkorlikda yoki kompyuter bilan muloqoti o'zaro ta'sir ko'rsatish rejimida ishlashi tushuniladi. Interfaol o'qitish, avvalo, dialog tarzda o'qitish, muloqot jarayonida barcha ishtirokchilar tomonidan hamkorlikda muammolarni hal etilishidir.

O'qitishning interfaol metodlarining quyidagi xususiyatlari mavjud:

insonning muhim hayotiy ehtiyoji bo'lgan muloqot o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida qo'llaniladi;

o'qitish jarayonida o'quvchilarga o'z kuchi, bilimi, iqtidorini namoyon etishga teng imkoniyatlar beriladi;

o'quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashida ijtimoiy-psixologik jihatdan qulay muhit yaratilib, muloqotda bosqichma-bosqich va samarali ishtirok etishga zamin tayyorlanadi;

o'quvchilar muloqotda faol ishtirok etishlari uchun faqat eshitishlari yetarli emas, balki eshitganlarini tahlil qilish, fikr yuritish, fikrlarning asosli va tushunarli bo'lishiga erishish lozimligini anglaydilar;

o'quvchilar bilan hamkorlikda, kichik guruhlarda ishlashi orqali qo'yilgan vazifalarni talab darajasida bajarish, olingan natijalarni tahlil qilish, ularning to'g'riligini tekshirib ko'rish, taqdim etish va boshqa guruhlar tomonidan e'tirof etishlariga erishishlari lozim.

Interfaol o'qitishning asosiy mohiyati shundaki, o'qitish jarayonida barcha o'quvchilar bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni, voqea va hodisalarning rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo'llarini izlab, eng maqbul variantni tavsiya etadi. O'quv materialini o'rganish, muammoni hal etish bo'yicha turli variantdagi yechimni tavsiya etishga asoslangan bilish jarayonida o'quvchilarning hamkorligi har bir o'quvchiga, guruh muvaffaqiyati uchun o'z ulushini qo'shishga, ular o'rtasida fikr, axborot va tajriba almashinuviga zamin tayyorlaydi. Ushbu hamkorlik samimiy, qulay ijtimoiy psixologik, o'zaro yordam muhitida sodir bo'lganligi uchun, o'quvchilar nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, balki o'zining bilish faoliyatlarini rivojlantiradi, uni yuqori darajaga ko'tarib, hamkorlikka kirishishga imkon beradi. O'qitish jarayonida interfaol usullarni qo'llash jarayonida o'quvchilarning o'zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqozo etadi, bunda o'quvchilar hamkorlikda izlanib umumiy, shu bilan bir qatorda har bir o'quvchi uchun ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etishga kirishib ular o'rtasida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishlash va hamjihatlik vujudga keladi.

Muammoli izlanish metodlari.

Muammoli izlanish metodlari dars davomida izchil va maqsadga yo'naltirilgan holda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llashi orqali o'quv materialini faol o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bu metodlar guruhi o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va undan chiqishning eng maqbul yo'lini topishi, mo'ljalni to'g'ri olishiga zamin tayyorlaydi. Muammoli izlanish metodlari guruhiga mansub muammoli-izlanish xarakteridagi suhbat metodidan foydalanganda, avval muammoli vaziyatlar yaratiladi, avvaldan tayyorlangan

muammoli savollar zanjiri bayon etiladi, o'quvchilarning o'qituvchi bilan birgalikda mantiqiy mulohaza yuritishiga, o'quv farazlarini hosil qilish va isbotlash, suhbat jarayonida muammoli savollarga javob topishiga imkon yaratiladi. Muammoli hikoya metodida, o'qituvchi yangi mavzuni o'rganish jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratadi, o'quvchilar bilan hamkorlikda hikoya jarayonida muammoli savollarga javob topishga, o'quv farazlarini hosil qilish va dalillashga imkon yaratiladi, o'quvchilarning javoblari asosida muammolar hal etiladi.

Muammoli-amaliy metoddan foydalanilganda muammoli topshiriqlar tuziladi, shu asosda tajribalar o'tkaziladi, muammoli vaziyatlarni hal etish yuzasidan o'quv farazlari hosil qilinadi va o'quv-tadqiqot tajribalari o'tkazilib, o'quv xulosalari va umumlashmalari ta'riflanadi, muammolar hal etiladi. Muammoli metodlardan foydalaniladigan darslarni keying yillarda yangi nom bilan ("Tafakkur bo'roni" B.R.Qodirov), ("Miyaga hujum", "Fikrlar to'qnashuvi", "Fikrlar jangi" V.M.Karimova, F.A.Akramova), ("Aqliy hujum" J.G'.Yo'ldoshev) nomlash rasm bo'ldi.

Interfaol usullarda vaqt talabi dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanishi bilan belgilansa, an'anaviyda dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.

No'annaviyda mashg'ulot shakllarining ham ahamiyati boshqacha, ya'ni unda ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbat, amaliy ishlar olib boriladi. Eng muhimi noan'anaviyda mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish kabi kutilgan natijalarga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017
2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O'z MU. 2003.- 66 b.
3. Ta'limda pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy- amaliy konferensiya materiallari.- T.:1999.- 212 b
4. H.T.Omonov, N.X.Xo'jayev "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T-"Iqtisodiyot moliya"-2009

METHODS AND PROCEDURES OF LEXICOLOGY

Azimbayeva Ranohon Yuldashevna

*Tashkent Financial Institute, Associate Professor of Foreign
Languages*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10444294>

Keywords: *.Contrastive analysis, method of statistical analysis, Distributional analysis, Transformational analysis, Componental analysis, as “a kind of fight” and “a kind of cart”.*

In any investigation the starting-point matters are quite significant. It is commonly recognized that acquaintance with at least some of the currently used procedures of linguistic research is of considerable importance both for language learners and for prospective teachers as it gives them possibility to observe how linguists obtain answers to particular questions and is of help in the preparation of teaching material. It also helps language learners to become good observers of how language works and this is the only lasting way to become better users of language. Growing interest in methods of study is one of the most symptomatic features of present-day linguistics. Modern scientific study has provided linguists with new assumptions which underlie methods of lexicological analysis.

The process of scientific investigation may be divided into several stages. *O b s e r v a t i o n* is an early and basic phase of all modern scientific investigation and is the center of what is called the inductive method of inquiry. The cardinal role of inductive procedures is that statements of fact must be based on observation, not on unsupported authority, logical conclusions or personal preferences.

The next stage after observation is *c l a s s i f i c a t i o n* or orderly arrangement of the data obtained through observation. For example, it is observed that in English nouns the suffixal morpheme *-er* is added to verbal stems (speak+ *-er*, writ(e)+ *-er*, etc.), noun stems (village+ *-er*, London+ *-er*, etc.), and that *-er* also occurs in non-derived words such as mother, father, etc. Accordingly all the nouns in *-er* may be classified into two types – derived and simple words, and the derived words may be subdivided into 2 groups according to their stems.

The following stage is usually that of generalization, i.e. the collection of data and their orderly arrangement must eventually lead to the formation of a generalization or hypothesis, rule or law. In our case we can formulate a rule that derived nouns in *-er* may have either verbal or noun stems. Any linguistic generalization must be followed by the verifying process.

The methods and procedures briefly discussed below are as follows:

1. Contrastive analysis; 2. method of statistical analysis; 3. IC analysis; 4. Distributional analysis; 5. Transformational analysis; 6. Componental analysis; 7. Method of semantic differential.

All methods of linguistic analysis are traditionally subdivided into formalized and non-formalized procedures. Evidently, the selection of this or that particular procedure largely depends on the goal put before the investigator. Some of the methods of lexicological analysis are of primary value for teachers of English and are widely used in the preparation of teaching material.

The first method to be discussed is that of contrastive analysis; this is followed by a brief survey of statistical methods of analysis as quantitative evaluation is usually an essential part of any linguistic procedure. The so-called formalized methods of analysis – the IC analysis, distributional and transformational procedures precede the componential analysis because the latter may be combined with distributional and/or transformational procedures.

Contrastive Analysis Contrastive analysis grew as the result of the practical demands of language teaching methodology where it empirically shown that the errors which are made recurrently by foreign language students can be often traced back to the differences in structure between the target language and the language of the learner. This naturally implies necessity of a detailed comparison of the structure of a native and a target language which has been named contrastive analysis. It is common knowledge that one of the major problems in learning the second language is the interference caused by the difference between the mother tongue of the learner and the target language. No doubt, contrastive analysis has a part to play in evaluation of errors, in predicting typical errors and thus must be seen in connection with overall endeavors to rationalize and intensify foreign language teaching.

Contrastive analysis can be carried out at three linguistic levels: phonology, grammar and lexis (vocabulary). Contrastive analysis is applied to reveal the features of sameness and difference in the lexical meaning and the semantic structure of correlated words in different languages. It should be stated that classification of the real world around us provided by the vocabulary of our mother tongue is learned and assimilated together with our first language. Because we are used to the way in which our own language structures experience we are often inclined to think of this as the only natural way of dealing with things whereas in fact it is highly arbitrary. As an example let us take the words watch and clock. It is natural association with Russian and Uzbek speakers to have a single word “soat/часы;” yet, in English they are divided into two semantic classes depending on whether or not they are customarily portable. We also find it quite natural that kinship terms should reflect the difference between male and female: brother or sister, father or mother, uncle or aunt, etc., yet in English we fail to make such a distinction in the case of “cousin” (cf. the Russian “двоюродный брат/двоюродная сестра” or Uzbek “tog’a (amaki)vacha”).

Contrastive analysis also brings to light what can be labeled problem pairs, i.e. the words that denote two entities in one language and correspond to two different words in another language (cf. “soat—clock”, “watch;” san’ atkor--- “artist”; “painter”).

Statistical Analysis

An important trend in modern linguistics of the previous century was the quantitative study of language because every lexicological research is based on collecting linguistic evidence. Statistical inquiries have considerable importance not only because of their relevance to certain problems of communication engineering and information theory. Any scientific method of cognition presupposes verification of the data obtained. We'll discuss here the statistical approach to vocabulary. Statistical techniques have been successfully applied in the analysis of different linguistic phenomena: different structural types of words, affixes, lexicon of great writers, poets and even in the study of some problems of historical lexicology. Thus, the first thing to do any statistic investigation is the evaluation of the size of the sample under analysis. To illustrate this statement we may consider the frequency of word occurrences.

It's common knowledge that a comparatively small group of words makes up the bulk of any text; it was found that 1,300-1,500 most frequent words make up 85% of all words occurring in the text. No doubt that to be useful in teaching statistics should deal with meanings as well as sound-forms as not all wordmeanings are equally frequent. Besides, the number of meanings exceeds by far the number of words.

The total number of different meanings recorded and illustrated in OED for the first 500 words of the Thorndike Word List is 14,070, for the first thousand it is nearly 25,000. The semantic count is a count of the frequency of occurrence of the various senses of 2,000 most frequent words as found in a study of 5 million running words. The semantic count is based on differentiation of meanings in the OED.

Statistical methods have been also applied to various theoretical problems of meaning. An exact and exhaustive definition of the linguistic qualitative aspects of the items under discussion must precede the statistical analysis. Thus, statistical analysis is applied in different branches of linguistics including lexicology as a means of verification and as a reliable criterion for the selection of the language data provided qualitative description of lexical items is available.

Distributional Analysis Distributional analysis is commonly used by lexicologists. By the term distribution we mean the occurrence of a lexical unit relative to other lexical units of the same level (words relative to words/morphemes relative to morphemes, etc.). Concretely speaking, by this term we understand the position which lexical units occupy or may occupy in the text or in the flow of speech. It is observed that a certain component of the word-meaning is described when the word is identified distributionally. For example, in the sentence "The boy...home" the missing word is easily identified as a verb----"The boy went/came, run, etc./ home". Thus, we see that the component of meaning that is distributionally identified is actually the part-of-speech meaning but not the individual lexical meaning of the word under analysis.

The interdependence of distribution and meaning can be seen at the level of word-groups. As far as words are concerned the meaning by distribution may be defined as an abstraction on the syntagmatic level. Distributional pattern as such seems to possess a component of meaning not to be found in individual words making up the word-group or the sentence. Thus, the meaning of "make somebody do something by means of something"

cannot be traced back to the lexical meaning of the individual words in “coax somebody into accepting the suggestion”. The distributional pattern itself seems to impart this meaning to the whole irrespective of the meaning of the verb used in the structure, i.e. in the pattern V + N + into + Ving verbs of widely different lexical meaning may be used. One can say, for example, to kiss somebody into doing something; to flatter somebody into doing something; to beat somebody into doing something, etc.; in all these word-groups one finds the meaning “make somebody do something”, which is actually imparted by the distributional pattern.

Transformational Analysis

This kind of analysis in lexicological investigations may be defined as repatterning of various distributional structures in order to discover difference or sameness of meaning of practically identical distributional patterns. As distributional patterns are in a number of cases polysemantic, transformational procedures are of help not only in the analysis of semantic sameness/difference of the lexical units under investigation but also in the analysis of the factors that account for their polysemy. For example, comparing two compound words “dogfight” and “dogcart”, we see that the distributional pattern of stems is identical, i.e. N+N. The meaning of these words, broadly speaking, is also similar as the first of the stems modifies, describes the second, and we understand these compounds as “a kind of fight” and “a kind of cart”. The semantic relationship between the stems, however, is different and hence the lexical meaning of the words is also different. This can be shown by means of a transformational procedure which shows that “a dogfight” is semantically equivalent to “a fight between dogs”, whereas “a dogcart” is not “a cart between dogs”, but “a cart drawn by dogs.” Transformational analysis may also be described as a kind of translation. If we understand by translation transference of a message by different means, we may assume that there exist at least three types of translation: 1. interlingual translation (or translation from one language into another); 2. intersemiotic translation (or transference of a message from one kind of semiotic system to another); and 3. intralingual.

DICTIONARIES

1. Richards C.J., Schmidt R. Longman dictionary of Language Teaching and Linguistics. Longman: Pearson Education, 2002.
2. The Shorter Oxford Dictionary on Historical Principles. Revised and Edited by C.T.Onions. - Oxf., 1968.
3. Longman Dictionary of Contemporary English. Complete Guide to Written and Spoken English. New Edition, 1997.

DIFFICULTIES IN TEACHING AND LEARNING PRESENT PROGRESS IN PRIMARY EDUCATION

Mirzayeva Gulshan Azamatovna

Chirchik State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

m.gulshan234@gmail.com

[**https://doi.org/10.5281/zenodo.10444297**](https://doi.org/10.5281/zenodo.10444297)

Abstract: *The following essay expresses information about the challenges that L2 learners come across while learning the English language. Furthermore, it discusses some possible solutions to avoid such problems in an effective way.*

Key words: *Non -native language learners, progressive tense, state verbs, conception, verb categories.*

Introduction

1. Avvalgi o'quv dasturlari mazmuni 90% nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan. Yangi Milliy o'quv dasturi mazmuni 50% nazariya, 50% amaliyotdan iborat bo'ladi va o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi. 2. O'quv dasturlarida baholash esa faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi. 3. Fanlar soni va o'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilar qiziqishiga ko'ra fanlarni tanlab o'qish imkonini beruvchi variativ o'quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni yaratiladi. 4. Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda kiritiladi. O'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi. "Ona tili" nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchitutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandır. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Jumladan, yangi yaratilgan darsliklarning bosh g'oyasida ham yuqoridagi fikrlarning asos qilinib olinishi hech kimga sir emas. Hozir ko'rib chiqadigan 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi ham o'quvchidan kreativ fikrlashni dars davomida va darsdan tashqari vaqtda ham turli sohalarda o'z tilida ravon nutq so'zlashi; so'z boyligining oshishi; tilni amaliyotda qo'llashi; o'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakasini shakllantirish; barcha uslubdagi matnlar bilan tanishishi va ularni fanlararo integratsiyada o'rganishi, ta'lim jarayonida o'quvchilarni voqeahodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy tafakkuri va fikrlash

doirasi shakllantirilib boriladi. Mavzuiy rejalashtirishlar “sinf o‘quvchisiga ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan qo‘yiladigan malaka talablar”ida Og‘zaki nutq, Tinglab tushunish, O‘qib tushunish, Yozma nutq va lingvistik kompetensiya keltirilgan.

O‘QISH DARSLARIDA NUTQ O‘STIRISH

Ma‘lumki, nutq tafakkur bilan bog‘liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy o‘stiriladi. Darsda o‘qilgan asarni o‘quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g‘oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo‘llanadi. O‘qilgan asarni analiz qilishda har xil ish uslublaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o‘qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o‘quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o‘qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so‘raydi. Natijada o‘qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O‘qituvchi bergan savollar yordamida asarlarning mazmuni aniqlanadi.

SHunday qilib, asar mazmuni bilan birinchi tanishish o‘quvchilardan ongli ishlashni, ya‘ni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini analiz qilishni talab etadi. O‘qish bilan bog‘liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish vositalaridan biri turli uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to‘liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matnni to‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o‘qituvchining savoli, o‘quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o‘ynaydi. O‘quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O‘qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qaerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so‘zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o‘zaro bog‘liqligini yoritishga yunaltirilishi lozim.

O‘quvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar o‘zaro bog‘lanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi.

Ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba‘zan noto‘g‘ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. SHuning uchun ham o‘qituvchi savolni juda o‘ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o‘ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog‘lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o‘zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo‘lishi lozim. O‘quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko‘z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini o'zlashtirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o'quvchi: 1) o'qilgan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so'zlab beradi; 2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi; 3) hikoya mazmunini faqat bir syujet yo'nalishida so'zlab beradi.

O'quvchilarda tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang'ich sinf izohli o'qish darslarida keng qo'llaniladigan metodik usullar yordam beradi: 1) hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash; 2) hikoyadati bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash; 3) tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish.

O'quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o'qilgan matnни tahlil qiladi. Bunday tahlil bolalar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqillikni o'zlashtiradi va o'qilgan matn mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi.

O'qilgan hikoyaga rasm chizishda o'quvchi rassomlar tomonidan chizilgan rasmlardan o'qilgan asarning mazmuniga mos rasm tanlaydi yoki o'zi rasm chizadi. Agar o'quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, o'zi chizmoqchi bo'lgan rasmni og'zaki tasvirlab beradi, ya'ni so'z bilan chizadi.

O'qilgan hikoyani davom ettirish usuli maktab tajribasida keng qo'llaniladi. Bu usul xikoyaning mazmuni uni davom ettirishga imkon beradigan asarlarda qo'llaniladi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida ham o'quvchilar nutqi va tafakkurining rivojlanishiga katta ahamiyat qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108-son farmon.

2. 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" (o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma)

3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun Milliy o'quv dasturi 1-4-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi"

4. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dulla Quronov, Shokir Tursun. 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi".: Toshkent-2021

MUSIQA DARSLARINI FANLARARO ALOQADORLIK

Junayeva Movzuda Mamasoliyevna

*Namangan Viloyati Pop tumani 3-maktab Musiqa madaniyati
o'qtuvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10457400>

Abstract: *This article provides information on the interdisciplinary connection of music lessons.*

Key words: *electronic education, smart technologies, lesson, method, conversation, story, explanatory demonstration, practical teaching.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqa darslarini fanlararo aloqadorlik borasida ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'zlar: *elektron ta'lim, aqlli texnologiyalar, dars, metod, suhbat, hikoya, tushuntirish ko'rgazmalilik, amaliy o'qitish.*

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Har bir insonni ma'naviy shakllanishida oilani, maktabni, jamiyatni ahamiyati katta. Chunki insonni insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni nafosat olemiga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi.

Maktabda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish ulami zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazish. Maktabda musiqa darslarini o'qitishning asosiy vazifalari quyidagtlardan iborat:

- o'quvchilarni musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlari musiqiy o'quvi, ovozi, diqqat-e'tibori va ijodkorlik his-tuyg'ularini o'stirish;
- musiqiy asarini badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik ruhda tarbiyalash;
- musiqa darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, mehnatga muhabbat, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog'liq. Har qanday san'atkor ham, maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi pedagogika, psixologiya, bo'liqlar fiziologiyasi, musiqa o'qitish va metodikasi hamda o'z musiqiy kasbiy fanlarini puxta

o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shxs bo'lishi lozim.

Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-ona orzusi hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson bo'lishi kerak. "Har qanday jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlatni barpo etilishi, ulami qanday tarbiya olishiga bog'liq. Chunki ma'naviy jihatdan qudratli davlat, ijtimoiy jihatdan kuchli bo'ladi"!. deb takitlaydi o'z asarlarida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Shunday ekan, umumta'lim maktablaridagi "musiqa madaniyati" fanini o'qitishda ham ilg'or pedagogik texnologiyalar, noan'anaviy o'qitish metodlari bilan birga pedagogika nazariyaning umumiy, xususiy, og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, o'yin, taqqoslash, musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash, baholash va rag'batlantirish metodlaridan o'z o'rnida foydalanish kerak bo'ladi. Respublikamizda musiqa pedagogikasi yo'nalishida izlanishlar olib borgan yetuk olimlarning ilmiy tadqiqotlarida zamonaviy musiqa o'qituvchisining professional tayyorgarlik darajasiga qo'yilayotgan talablar xususiy metodlardan muvaffaqiyatli foydalanish jarayonida ijobiy yechim topishi mumkinligi ilmiy asoslab berilgan. [1,5-b] "Musiqa madaniyati" darslarida fanning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur anglagan holda, uning amaliy va ijodiy ijrochilik bilan bog'liq vazifalarini, yil, chorak mavzulari doirasida darsliklarga kiritilgan musiqa nazariyasi, tarixi, vokal, xor ijrochiligiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarda shakllantirish va mustahkamlashda, shuningdek, o'quvchilarni musiqiy-nazariy bilimlarini o'zlashtirishlari jarayonida boshqa fanlarga oid bilimlarga murojaat qilish, izlanishga undovchi metod xususiy metoddir. Aynan ta'kidlab o'tilgan metodlar orqali musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etishning turli shakl, usul va vositalarini qo'llash mumkin.

Bir soatlik dars jarayonida ta'lim berishning bir necha xil usullarini qo'llash oqibatida o'quvchi hech bo'lmaganda biror bir faoliyatga va uslubga o'zini munosabatini bildiradi, qiziqishini namoyon qiladi yoki ayrim tushunmagan holatlarga oydinlik kiritish yuzasidan savollar bilan murajaat qilishi mumkin. [2,- 52.b] Natijada o'quvchida darsga, yoki o'rganilayotgan mavzuga bo'lgan munosabat, o'rganish va bilish faoliyatiga xohish-istak kuchayadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar o'quvchida musiqa san'atining biror-bir turiga qiziqish paydo bo'lsa, u darslarga ham o'zicha tayyorgarlik ko'ra boshlaydi, musiqa darslari bo'lishini kutadi, o'zini namoyon qilish, bilganlarini amalda ko'rsatish bilan ko'pchilik oldida g'ururlanish istagi bilan bog'liq kechinmalar paydo bo'ladi. Dars davomida qo'llaniladigan metodlar mavzunini o'quvchilarga yetkazish maqsadiga yo'naltirilgan va turli manbalardan olingan dalillarga asoslangan bo'lishi darslarni fanlararo aloqadorlikda tashkil etishda ko'proq ta'sirchanlik kasb etadi.

Mana shunday metodlar jumlasiga kiruvchi bir qator metodlar haqida batafsilroq to'xtalib o'tamiz: [3,26.b]

1. Hikoya qilish metodi. Bu metod musiqa o'qituvchisining musiqa asari haqidagi jonli, emotsional, yorqin hayotiy voqealar va aniq tarixiy dalillar, adabiybadiiy lavhalar asosiga qurilgan bayon bo'lib, uni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni musiqa asari, janri, uning ijro uslubi bilan an'anaviylik jihatlari, badiiy-g'oyaviy mazmuni, qanday holatda, kimlar tomonidan qanday tartibda ijro etilishi, mohir ijrochilari va mualliflari haqida chuqur va to'laqonli ma'lumotlar bilan tanishtirishni ko'zda tutadi. Hikoya metodi yordamida o'qituvchi o'zbek musiqa madaniyatining rivojlanishi va tarixiy ildizlari haqida boy tarixiy materiallarga tayangan holda muhim ma'lumotlarni berishi mumkin. Bu o'rinda O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardan to shu kungacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlari, eng qadimgi madaniy yodgorliklar – "Avesto", Yunon-Baqtriya davlati, Zardushtiylar davri, Qadimgi Xorazm davlatlari davridagi, Kushonlar sulolasi, qadimgi Farg'ona, Qang' davlatlari vaqtidagi madaniyat, san'at, qo'shiqchilik janrlari haqidagi tarixiy materiallarga tayangan holda ma'lumotlar berish o'z o'rnida musiqa darsini tarix fani bilan aloqadorlikda tashkil etish imkonini beradi. [4,44.b]

O'quvchilar O'rta Osiyo zaminida yetishib chiqqan va jahon fani, madaniyati, shu jumladan, musiqa san'ati, musiqa ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan va xizmatlari butun dunyoda e'tirof etilgan buyuk ajdodlarimiz, alloma-olimlar haqida bilishlari shart. Shunday ekan, buyuk faylasuf, qomusiy olim, o'z navbatida musiqa ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdulqodir Marog'iy, Az-Zamaxshariy, Darvish Ali Changiy, Abdurahmon Jomiy, Kavkabi kabi mutafakkirlarning ilm fan sohasidagi buyuk xizmatlari bilan birga ularning musiqa nazariyasi, cholg'u sozlari, musiqiy tovushlar tuzilishi xususiyatlari haqidagi asarlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tibbiyot, matematika, geografiya, adabiyot va boshqa fanlar sohasidagi kashfiyotlariga bog'lab tushuntirish yoki shu fanlar bo'yicha mavjud qo'shimcha materiallarga, ma'lumotlarga tayangan holda hikoya qilinishi mumkin. Hikoyalar ayrim ijodkorlar hayoti va faoliyati haqida, o'zbek milliy musiqa madaniyatida alohida o'rin tutuvchi asarlar (ular zamonaviy asarlar yoki kompozitorlar ijodi haqida ham bo'lishi mumkin), dostonlar, maqom san'ati, folklor ijodiyoti haqida bo'lishi mumkin.

2. Suhbat metodi ham didaktikaning eng ta'sirchan uslublaridan hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi dialog shakldagi faoliyatdan iborat bo'ladi. Musiqa asarining mavzusiga ko'ra darslikda berilgan o'quv materiali bilan birga uning boshqa fanlar bilan aloqador (masalan, tabiat, hayvonot olami, adabiyot, tarix, ekologiya, ona tili va hokazo) ma'lumotlarni misol keltirish, o'quvchilarga savollar bilan murojaat qilish, asarlarga tavsif berish, g'oyaviy badiiy mazmunini, nazariy jihatdan tuzilishi, janr xususiyatlarini tahlil qilish, ko'rgazmali vositalardan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashlariga qulay sharoit yaratiladi. O'quvchilar bu jarayonda faol qatnashadilar, o'z fikr mulohazalarini bildirishga harakat qilishadi. Masalan, o'qituvchi o'zbek musiqasining mahalliy uslublari bo'yicha o'quvchilar bilan suhbat o'tkazar ekan Buxoro-Samarqand, Farg'ona-Toshkent, Surxandaryo-Qashqadaryo yoki Xorazm uslubini bir qator fanlarga oid o'rganilishi xususiyatlarini e'tiborga olishi kerak. Avvalo, ushbu hududlarda yashovchi

xalq, elatlarni etnografiyasi, tili (shevasi), tarixi, kiyinish madaniyati, musiqa cholg'ulari, o'ziga xos raqs uslublari haqidagi ma'lumotlarga tayanishi zarur. Bu kabi mavzulardagi darslarni tashkil etishda musiqa tartixi, folklorshunoslik (dostonchilik, baxshichilik, xalq musiqasining ommaviy janrlari), adabiyotshunoslik, ona tili, geografiyaga oid materiallardan foydalanish yaxshi natija beradi.

3. Tushuntirish metodi. Bu asosan nazariy ma'lumotlarni berishda qo'llanadi. Musiqa savodi bo'yicha bilimlarni yetkazishda fizika (tovush va tovushning fizik xossalari, ovoz kuchi, tembri, tovush amplitudasi va hokazo) matematik o'lchovlar, notalar cho'zimlarini turkumlanishiga bog'lab tushuntirish ma'lumotlarni o'quvchilar tomonidan oson o'zlashtirilishiga yordam beradi. Musiqa alohida fan sifatida e'tirof etilguncha matematika ilmining tarkibiy qismi sifatida o'rganilganligi tarixdan ma'lum. Tarixning guvohlik berishicha buyuk allomalar Muso Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, arab olimi Al Kindiylarning matematika, falsafa, falakiyotga oid asarlarida musiqaning nazariy tamoyillarini yoritish uchun maxsus bo'limlar ajratilgan. Masalaga mantiqan yondashganda ham musiqaning nazariy asosi bo'lgan tovushlar cho'zimi, ritmik tuzilishi, ton tuzilishi, o'lchamlari, hissalarini ijro etishdagi vaqt hajmi, barchasi aniq matematik hisoblarga asoslanadi. Shuningdek, intervallar o'lchamlari, dirijiyorlik o'lchovlari, hatto raqs harakatlari ham ma'lum matematik hisoblashlar orqali bajariladi. Albatta, musiqa darslarida nazariy qoidalarni tushuntirishda mana shunday fizik va matematik qonuniyatlardan hamda shu fanlarga daxldor asboblardan (kamerton, metronom) foydalanish o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldirish shubhasiz.

4. Ko'rgazmali o'qitish metodlari. Ma'lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va garmoniyalashgan tovushlar tizimidan iboratdir. Uni faqat eshitish a'zolari orqali tinglab idrok etish mumkin. Ko'rgazmali metodi nota yozuvlarini chiroyli yozishda (chiroyli yozuv, husnixat qoidalariga ko'ra) rasm, chizmachilik fanlariga oid bilimlarga tayangan holda ish tutish muhim ahamiyat kasb etadi. Dirijiorlik sxemalari, raqs harakatlarini chizma tasvirlarini doskada, plakatda namoyish etish, o'quvchilar tomonidan daftarlariga tushirish, asar obrazlari asosida ularning rasmlarini chizish kabi faoliyatlarda o'quvchilarni rasm, chizmachilik fanlari bo'yicha bilim va malakalari qo'l keladi. Bu o'rinda o'qituvchining pedagogik mahorati, notiqlik, rejissiorlik qobiliyati muhim rol o'ynaydi.

5. Amaliy o'qitish metodlari o'qituvchi tomonidan, asosan, o'quvchilarni amaliy ijrochilik bilan bog'liq malaka va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida qo'llaniladi. Bunda o'qituvchining "shaxsiy namunasi" ya'ni har bir amaliy harakatni o'zi ko'rsatib berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Vokal-xor malakalari (tovush hosil qilish, tovushni yo'llash, niqobdor kuylash, nafas olish, nafasni sarflash, soz, ansanblik, diksiya, intonatsiya) ustida ishlash, musiqaga mos qadam tashlash va harakatlar bajarish (o'yin, raqs, gimnastika elementlari), bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish kabi faoliyatlar amaliy metodlar vositasida amalga oshiriladi. Bu faoliyatda o'quvchilarni induvidial, psixologik, fizologik xususiyatlari e'tiborga olinishi zarur. 6. O'yin metodi - asosan boshlang'ich sinflarda ko'proq qo'llaniladi va yaxshi natija beradi. Boshlang'ich sinf o'quv repurtuariga kiritilgan musiqa asarlari bolalarni yosh, psixologik xarakteriga ko'ra sho'x, raqsobop, o'yin-raqs harakatlari bilan ijro etiladigan namunalardan iborat bo'lib, ularni ijro etishda o'yin, raqs

va uning elementlariga keng o'rin beriladi. Bunda o'qituvchining raqs san'ati, uning eng oddiy harakat elementlaridan xabardor bo'lishligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni (asosan qizlarni) raqs tugaraklariga qatnashtirish va u yerda o'rganganlaridan dars jarayonida foydalanish, ayrim darslarni o'tishda raqs to'garagi rahbari, baletmesterlar xizmatidan foydalanish, birgalikda tayyorgarlik ko'rish va ularning tajribalaridan foydalanish mumkin. Bizga ma'lumki, o'zbek xalq musiqa folklori, xususan, bolalar folklori qo'shiqlari biror-bir o'yinni bajarish yoki o'yin xarakteridagi mashqlar, harakatlar orqali ijro etiladi va bu musiqa o'qituvchisidan shunday asarlar bilan ishlashda folklorshunoslikka oid manbalarga murojaat qilib ish tutishni talab qiladi. 7. Taqqoslash metodi. Bu metodni qo'llash orqali o'quvchilarning mavzu yuzasidan berilayotgan bilim, tushunchalar mohiyatini aniq idrok etishlariga erishish ko'zda tutiladi. Dars jarayonida musiqiy janrlarni bir-biriga o'xshash va farqli xususiyatlarini aniqlash, mahalliy uslublardagi o'ziga xoslik, an'anaviylik, ijrochilik yo'llarini farqli jihatlarini ko'rsatib berish, shuningdek, qo'shiq bilan marsh, raqs musiqasini eshitib, tinglab aniqlash, taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchining adabiyot (mumtoz ashulalarni mumtoz she'riyat bilan bog'liqligi), folklorshunoslik, ona tili, tarixiy dalillarga (tarixiy mavzudagi qo'shiqlar) musiqa asarlari tahlili faniga oid bilimlarga tayanib ish tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Taqqoslash davomida boshqa fanlarga oid dalillar o'quvchilarning bilim va tushunish doirasini, musiqiy tafakkurini rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, oddiygina musiqali ritmik harakatlar bajarish yoki marsh musiqasi sadolariga mos qadam tashlash jarayonida marsh musiqasini boshqa janrlardan nimasi bilan farq qilishi haqidagi tushunchalarga e'tibor qaratish, marsh musiqalari harbiy zarurat asosida bo'lganligi, u asosan Yevropada shakllanib, bizning musiqa madaniyatimizga XIX asr oxirlarida "duxovoy orkestr" ijrochiligi bilan kirib kelganligi haqida ma'lumot berish marsh musiqasi haqidagi tushunchalarni o'quvchilar xotirasida mustahkam o'rnashib qolishiga olib keladi.

Umuman olganda har bir fan ma'lum darajada boshqa fanlar bilan o'ziga xos tarzda va ko'rinishda bog'langan bo'ladiki, bu bog'lanish musiqaning nazariy va amaliy ijrochiulik bilan bog'liq o'qitish jarayonida ko'proq va yorqinroq namoyon bo'ladi. Shunday ekan, fanlar aloqadorligi va bog'liqligidan oqilona va o'rinli foydalanish musiqa o'qituvchisidan barcha fanlar bo'yicha keng bilimlarga hamda musiqa san'atining bir qancha yo'nalishlaridan yetarli darajada boxabar, nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini talab qiladi. Musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etish, ilg'or innovatsion texnologiyalardan, ilg'or ish tajribalaridan foydalanish, yangi va samarali ish usul va shakllarini ijod etish va qo'llash davr talabidir.

Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa tarbiyasining roli.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Har bir insonni ma'naviy shakllanishida oilani, maktabni, jamiyatni ahamiyati katta. Chunki insonni insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish

imkoniyatiga ega bo'lib, uni nafasat olemiga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi. Maktabda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish ulami zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazish. Maktabda musiqa darslarini o'qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarni musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlari musiqiy o'quvi, ovozi, diqqat-e'tibori va ijodkorlik his-tuyg'ularini o'stirish;
- musiqiy asarini badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik ruhda tarbiyalash;
- musiqa darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, mehnatga muhabbat, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog'liq. Har qanday san'atkor ham, maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi pedagogika, psixologiya, bo'lar fiziologiyasi, musiqa o'qitish va metodikasi hamda o'z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lishi lozim. Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-onalar orzusi hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan.

Xalqimiz kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga uning dunyoqarashiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisoslarga doir fanlarni o'qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilim larni amaliyotda qo'llashga o'rgatish bugungi kun talabidir. Uzlaksiz pedagogik ta'lim tizimini amalga oshirilishi munosabati bilan o'qituvchilarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishlari diqqat markazidadir. O'qituvchilik kasbi sharaflidir, lekin juda murakkab kasbdur, o'qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotni ham o'tgan bo'lishi kerak. Chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o'qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. Qo'rbanova G.I. Vospitaniye molodyoji vduxi natsionalnoy idey sredstvami muzyki i natsionalnykh sennostey.-M.:Drofa. [2,52.b]
2. Qudratov I. Musiqa ta'limida fanlararo a'loqadorlik. Uslubiy qo'llanma, SamDU,2015-yil [3,26.b]

3. D. Soipova. Musiqa o`qitish nazariyasi va metodikasi.-Toshkent, fan va texnologiyalar.2009-yil, [1,5-25.b]

PSIXOLOGIYA FANI VA UNING VAZIFASI

Ibadova Zohida Nuridinovna

*Toshkent viloyati O'рта Chirchiq tumani MMTBga qarashli 49-
umumtalim maktabi psixologi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10457408>

Abstract: *This article describes modern psychology and its place in the system of other sciences. In order to use the information of the science of psychology for practical purposes and, first of all, in education and training, as well as in production, organization and consolidation of labor, in medicine, art and similar fields, it is necessary to know the laws of the development of psychology.*

Key words: *Psychology, philosophy, consciousness, thinking, sociology, cybernetics, psychic facts, mechanisms, individual psychological characteristics, temperament, animism, cognitive processes, cognitive activities.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi zamon psixologiyasi va uning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni haqida yoritib berilgan. Psixologiya fanining ma'lumotlaridan amaliy maqsadda va, avvalo, ta'lim-tarbiya ishida va, shuningdek, ishlab chiqarishda, mehnatni tashkil etish va ixchamlashtirishda, tibbiyotda, san'at va shunga o'xshash sohalarda foydalanmoq uchun psixikaning taraqqiyot qonunlarini bilish kerak.*

Kalit so'zlar: *Psixologiya, falsafa, ong, tafakkur, sotsiologiya, kibernetika, psixik faktlar, mexanizmlar, individual psixologik xususiyatlari, temperament, animizm, bilish jarayonlari, bilish faoliyatlari.*

Psixologiya-inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, xislatlar to'g'risidagi fan, psixologiyaning tadqiqot predme-tiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kate-goriyalar kiradi.

Psixologiyaning asosiy vazifalari-psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik tarak,-qiyot birligida ochishdan iboratdir.

Mazkur vazifalar yechimini topishda Psixologiya bir tomondan, biol. fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantik hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo'lmish ong va o'zini o'zi anglashni tadqiq etadi.

Antik davrdan boshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib kelgan. Yunon shifokorlari Gippokrat, Erasistrat psixikaning organi miya ekanligini bilganlar va inson jonini koinotning ashyoviy bo'lagi sifatida (Demok-shyaning moddiyunchiligi asosida) talqin qilganlar. Ularning g'oyalari Platonning jon abadiyligi to'g'risidagi ta'limotiga qarama-qarshi qo'yilgan.

Aristotel «Jon to'g'risida»gi asarida psixologik tushunchalar tizimini ishlab chiqdi.

O'rta asrlarda psixikaga nisbatan har xil ko'rishdagi g'ayritabiiy qarashlar hukmronlik qildi. Shu tufayli psixologik bilimlar rivojlanmay qoldi. Ammo ba'zi faylasuflar va shifokorlar (Ibn Sino va b.) asarlarida bu sohada olg'a qadam qo'yildi. Inson xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar qad. qo'lyozmalar, yodgorliklarda o'z aksini topa boshladi. Turli mamlakatlarda va shaharlarda tuzilgan akademiyalarda (Xorazm, Samarqand, Kiev, Moskva va b. shaharlarda) Psixologiya yuzasidan tinglovchilarga saboq berilgan.

Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi. Psixologiya, asosan, psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- bilish faoliyatlari: diqqat, nutq, faoliyat;- bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur;- shaxsning hissiy irodaviy sohasi: hissiyot, iroda;- shaxsning individual psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat;

Psixologiya haqidagi fikrlar qadim zamonlardan beri mavjuddir. Ilk davrlarda psixologik xususiyatlarni jonning ishi deb tushuntirilgan. Jonning o'zi esa odam tanasidagi maxsus ikkilamchi jism deb qaralgan. Bunday tasavvurlar animizm deb ataladi. Animizm so'zi anima – “jon” degan ma'noni anglatadi. Jon o'z mohiyatiga ko'ra olovsimon uchqundan iborat ekanligi Geraklit tomonidan, yoki olovsimon atomdan iborat ekanligi Demokrit tomonidan ta'kidlangan. Psixologiya fanining rivojlanishida Ch.Darvinning evolutsion nazariyasi nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ruhiy jarayonlarning evolutsion rivojlanish dinamikasida tashqi muhit hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. E.Gekkel “bilimdon va fikrlaydigan kishilardan birortasi ham psixologiyaning asoslarini faqat asab sistemasining fiziologiyasidan izlash kerakligiga shubhalanmasa kerak”,- degan edi.

Psixologiyani o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalar haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odamning aqlini ham o'stirishga yordam beradi. Odam aqlini o'stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to'g'ri tushuna bilishda ham o'z ifodasini topadi. Endi kundalik turmushga oid psixologiya bilan ilmiy psixologiya o'rtasidagi tafovutlar bilan tanishamiz. Kundalik turmushga oid psixologik bilimlar, dastavval, yaqqol va alohida olingan holat, vaziyatni o'z ichiga oladi. Ilmiy psixologiya esa muayyan metodlar, vositalar, uslublar, usullar, operatsiyalar yordamida ma'lumotlar to'plash va ularni umumlashtirishga intiladi, izlanayotgan obyektning xususiyati, holati, munosabati, bog'lanishi kabilarni aks ettiruvchi ilmiy tushunchalar, ta'riflar, qonuniyatlar, xossalari yordamida psixologik mexanizmlar kashf qilishga harakat qiladi.

Psixik hayot turli-tuman hodisalarda namoyon bo'ladi. Psixik hayot hodisalarida psixik jarayonlar, psixik mahsullar va psixik holatlar ajratiladi. Psixik jarayon – psixik hodisaning qonuniy, ketma-ket o'zgarishi, uning bir stadiya yoki fazodan ikkinchi stadiya yoki fazoga o'tishidir. Psixik mahsullar – psixik jarayonlarning natijasidir. Bularga sezgi va idroklarning obrazlari, tasavvurlar, muhokamalar, tushunchalar shaklidagi subyektiv psixik mas'ullar kiradi.

Psixologik voqelik-fakt deganda, subyektning ichki kechinmalarining tarkibiy qismlari bilan bir qatorda ularning ob'ektiv shakllari orqali psixikaning xususiyatlari, holatlari, qonuniyatlarini o'rganish tushuniladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, inson ongidan tashqari, unga bog'liq bo'lmagan holda hukm suruvchi ob'ektiv borliq, ya'ni atrofimizdagi narsa va hodisalar, muhit, sharoit va boshqalarning psixikada aks etishi psixologik voqelik deb ataladi.

Hozirgi zamon psixologiyasi va uning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o'ziga xos va yetakchidir.

1. Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanish tendentsiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va printsiplarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan-falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi kundalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

2. Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko'lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlash ishiga xizmat qiladi. Qolaversa, xuquqiy, demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining xuquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalga ta'minlash, bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar dunyoqarashlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tabiiy ahamiyat kasb etadi.

3. Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan yangi «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi.

Adabiyotlar:

1. Shamshetova A., Melibayeva R. va boshqalar. Umumiy psi xologiya fanidan UMK., 2016.
2. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya – Toshkent – 2008. – bet 9-12.
3. Y.M.Fayziyev. Umumiy va tibbiy psixologiya – Toshkent – “ILM ZIYO” – 2016. – bet 7.
4. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”:- T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

METHODS OF TEACHING ENGLISH TO SCHOOLCHILDREN WITH MODERN COMMUNICATION TECHNOLOGIES

Maxmanazarova Muxlisa Abduvaxobovna

Teacher of the 28th school of Mubarak district, Kashkadarya region

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10465742>

Abstract: *This article highlights the great importance given to foreign languages in the Republic of Uzbekistan and the innovative technologies necessary for learning them.*

Keywords: *foreign language, game, innovative technology, technological tools, methods, methods.*

After our country gained independence, interest in teaching foreign languages increased and many opportunities were created for young people. As our first president Islam Karimov said, "Currently, teaching foreign languages is given great importance in our country. This is certainly not for nothing. Today, there is no need to overestimate the importance of perfect knowledge of foreign languages for our countries, which are striving to take their rightful place in the world community, for our people, who are building their great future in solidarity and cooperation with our foreign partners. As a logical continuation of these thoughts, the Presidential Decree "On measures to further improve the system of teaching foreign languages" adopted on December 10, 2012 expanded the opportunities for learning foreign languages.

In our republic, new methods and requirements have been developed in accordance with the recommendations of the European Framework of Reference for Languages (CEFR) for foreign language teaching and assessment of knowledge and skills of foreign language teachers. According to it, textbooks were created for students of general education schools and vocational colleges. In accordance with these requirements, classrooms were equipped with stands and new information and communication techniques. The demand for learning a foreign language is increasing day by day. Foreign language science is divided into four aspects (reading, speaking, listening and speaking), and separate concepts and skills are given for each of them.

Educational technologies are effective use of modern information technologies in the educational process. It also provides for increasing the quality and efficiency of education by introducing modern innovative technologies into the educational process. In particular, there are several advantages of using such information and communication technologies in learning a foreign language. The role of modern technology in language learning and teaching is incomparable. The use of technological tools is useful in every aspect of learning a foreign language (reading, reading, listening and speaking). For example, in order to listen and understand, of course, this process cannot be carried out without a computer, player, CD discs. Listening comprehension is one of the most important parts of language learning. At the same time, the reader is required to pay attention to the speaker's pronunciation, adherence to grammatical rules, vocabulary and its meanings. An important factor in the use of modern technologies in the educational process is that students know information and communication technologies well and are able to use them. Teaching and learning a foreign language using modern technologies is one of the most fruitful ways.

In short, as a result of using innovative methods in English language classes, students' logical thinking skills develop, their speech becomes fluent, and the ability to give quick and correct answers is formed. Such methods make students eager for knowledge. The student tries to prepare thoroughly for the lessons. This makes students active subjects of the educational process. As the educational system sets itself the task of educating a free-thinking, well-rounded, mature person, in the future, we future teachers will contribute by developing ways to effectively use innovative technologies. Possible.

How to choose the right method of teaching English?

Over the years different science, theories, and learning styles were developed in terms of teaching foreign languages. You won't find the best, the one and only method of teaching English to kids or adults. Choosing the proper teaching style depends on students' skills and abilities. So in this article, we listed some fresh ideas on how to learn a new language and how to choose the right method of teaching English.

Always remember to tailor the teaching method to your students' interests and needs. Also, with the right motivation to learn English, the students are more likely to succeed. So in order to choose the right method of teaching English to adults or children, start with understanding why a person needs or wants to learn the language and then focus on the best technique to achieve their goal.

Our recommendations on new methods of teaching English include the same well-known approaches and a few rather unconventional ones, that are especially beneficial to kids. The modern English teaching methods that you'll find here are suitable for both adults and kids, so you can learn a new language together. Are you ready to take a leap and finally succeed in learning a foreign language?

Why should you use easy English methodology for kids?

Parents who want their children to start learning English early, and for whom it is an important skill in their children's education process, often wonder how to teach English to children. Is there a dedicated approach? Are there methods designed to help children be successful? Well, yes and no.

Choosing an easier methodology in teaching English to kids has some merit. Firstly, young children's attention is hard to maintain. The usual lessons where students have to sit at their desks and listen to the teacher is not a perfect fit for them. Did you know that a child's maximum attention span is about two to three times their age? So, a five-year-old child would have an attention span of around fifteen minutes.

Secondly, preschoolers memorize information differently than adults. They have a great mental trait called involuntary memory, which activates involuntarily when they're occupied by games and creative activities.

Thirdly, perception mechanisms are also different for kids. Being emotional and eye-minded is their forte. They are attracted to things that interest them the most, such as bright colors, unusual shapes, secrets and mysteries.

Based on these factors, teachers try to use suitable methods and techniques when teaching English to children. Thanks to this, they can cater to their unique psychological and physiological needs.

However, there are some modern methods of teaching English that are beneficial to both kids and adults. So below we listed TOP 10 new, universal methods of teaching English. Find out how you can use them.

New methods of teaching English – Novakid’s recommendations

Task-based approach

The task-based approach in teaching English isolates individual skills and competencies in order to teach students things, which they actually need to know, in order to meet their goals and objectives.

The tasks in this method should be based on common real-life situations, which a student may encounter, i.e. being on holidays, while talking to foreigners in a hotel, at an airport or in a restaurant. So, a task-based approach would be teaching how to order a meal in a restaurant, how to book a hotel room, or perhaps more advanced tasks like critiquing a theater play. With this approach, the language taught revolves around the task itself, not the other way around.

For this method to work, teachers must understand their students’ needs and expectations well. Without that, it’s impossible to design lessons which will help students succeed in particular situations.

Teachers who decide to use the task-based approach should always ask themselves a question – why are my students learning English? The answer to that question will help develop a solid program that’s relevant to students.

Project-based approach

Another successful method to teach English is basing the teaching process on projects and project activities. The method was initially used mostly for high school kids and professional adults, but in the past 10 years, educators started using it with younger kids and preschoolers as well.

The project method is a research method. It is directed at developing language skills and creative thinking. After finishing each topic, students have to work on a project and “defend” it by talking about its contents in English. For example, thanks to elaborating on topics such as “my favorite food”, “my pet is...” or “in my house there is...” children have an opportunity to talk about what’s important to them personally. With the usage of graphics and photos, it is a very engaging and fun way of using English in practice, making it easier to memorize new vocabulary and phrases.

The Gamification method

Gamification is the most common tool to engage kids and facilitate learning. When kids are playing games they are in their element, they take to it like a duck to water. Games are attractive both in terms of organization and content.

Each game has rules that you need to adhere to, which helps develop organizational skills. All children know that the rules of the game are sacred. Games also allow kids to move around, interact, exchange items etc., and being active is natural for children. In terms of content, games are beneficial because you can use them to study any type of content. It will be easier for kids to learn through games, they will memorize words faster and even start using them spontaneously in their speech. Any game feels like real life to kids! And only the teacher knows how didactic and linguistically demanding it is.

Using quests in the teaching process

Quests are one of the most popular modern gaming tools. The name speaks for itself, as the word “quest” means there will be adventures. It already means that students will encounter challenges, riddles and mysteries that they have to solve by using English!

2. Funktsional klassifikatsiya (ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, marifiy, ta'lim, mudofaa, sport va boshqalar);

3. Moliyalashtirish manbalari klassifikatsiyasi (soliqli daromadlar, soliqsiz daromadlar, tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) pul mablag'lari);

4. Tashkiliy tuzilish klassifikatsiyasi (davlat budjeti daromadlari va xarajatlari, respublika budjeti daromadlari va xarajatlari, mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari);

5. Dasturni amalga oshirish va investitsiyalash faoliyatiga ko'ra (qisqa, o'rtava uzoq muddatli; ichki mablag'lar yoki xorijiy investitsiyalar ishtirokida va boshqalar).

Ma'lumki, davlat budjetining bir qator funktsiyalari mavjud. Jumladan:

1. Taqsimlash funktsiyasi;

2. Nazorat funktsiyalari.

Bugungi kunda ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda davlat budjetining rag'batlantirish funktsiyasiga ko'p urg'u berilmayapti. Buning sababi, ko'pgina davlatlarda surunkali budjet defitsiti yuzaga kelishi bilan davlat moliyasining beqarorlashishiga olib kelmoqda. Albatta, budjet taqchilligi mavjud sharoitda rag'batlantirish masalalaridan ko'ra nazorat funktsiyasi ilgarilaydi. Shu boisdan, bir funktsiyaning o'rnini ikkinchi funktsiya egallaydi.

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimida budjetning rag'batlantirish funktsiyasi ham yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, har bir budjetdan mablag' oluvchilar (moliyalashtiriluvchilar) o'zlarining maqsadli-dasturiy loyihalarini amalga oshiruvchi tashkilotlar olingan mablag'larni tejashga harakat qiladilar. Bu esa tashkilotlar ixtiyorida qoluvchi, keyinchalik esa faoliyatlarini kengaytirishga vapirovardida jamiyat uchun muhim tadbirlarni amalga oshiruvchi yetakchi bo'g'inga aylanishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotini joriy etish jamiyat uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu tariqa natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimining funktsiyalari:

1. Taqsimlash funktsiyasi;

2. Nazorat funktsiyasi;
3. Ragʻ batlantirish funktsiyasidir.

Natijaga yoʻnaltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy etish avvalida budjet mablagʻlarining baholash koʻrsatkichlariga eʼtibor qaratish muhim sanaladi. Masalani oydinlashtirish maqsadida uch budjet tizimi va ularning koʻrsatkichlarinikeltirgan holda ularning integrallashuvi asosidagi jarayonni koʻrib oʻtamiz.

Texnik samaradorlik – pirovard maqsadlarga erishish uchun optimal variantdagi texnik jarayonlardan olingan samaradorlik. Budjet mablagʻlarining samarali taqsimlanganligi – soʻnggi natijalarga erishish uchun budjet mablagʻlarining samarali taqsimoti (taqsimotdan oʻzgarmagan holda).

Budjet mablagʻlarining samarali taqsimlanganligi – soʻnggi natijalarga erishish uchun budjet mablagʻlarining samarali taqsimoti (taqsimotdan oʻzgarmagan holda).

Taqsimlangan mablagʻlarning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi - xarajatlar doim ham samarali boʻlishi uchun (texnik samaradorlik, budjet mablagʻlarining samarali taqsimlanganligi, texnik samaradorlik nuqtai nazaridan), ammo umumiy dasturni amalga oshirishda barcha jihatlarning koʻzlangan natijalar bera olishligi zarurdir.

Koʻrinib turibdiki, har bir budjet tizimi va ularning koʻrsatkichlari natijaga yoʻnaltirilgan budjetlashtirish tizimini toʻldiradi. Buning sababi, Oʻzbekistonda bugungi kunda budjet parametrlarini ishlab chiqishda normativ asoslarda va oʻtgan yilgi budjet parametrlaridan foydalanilgan holda ish koʻriladi. Aynan natijaga yoʻnaltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy qilinishining dastlabki boschiqlarida ana shu tuzilmani qoʻllash maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining «Byudjet kodeksi 2013 yil 26 dekabr
2. Oʻzbekiston Respublikasining “Soliq kodeksi” 2019 yil 30 dekabr)
3. Oʻzbekiston Respublikasining “Buxgaltetriya hisobi toʻgʻrisida”gi Qonuni. 2016 y. 13 aprel
4. «Davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha nafaqalar tayinlash va tartibi toʻgʻrisida Nizom» Oʻz.R. AV. tomonidan 2002 yil 8 mayda № 1136-son bilan ruyxatdan oʻtgan
5. Mehmonov S.U., Karimova Z.X., Tursunov A.S. Byudjet tizimi. Darslik. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. -544 b.
6. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet hisobi. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya” 2018. 428 b.

BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISH

Ismoilov Shapaxat Sodikovich

*Termiz Davlat universiteti Buxgalteriya xisobi va audit kafedrası
katta o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10501079>

Abstract: *In this article, information on the organization of accounting in banks is reflected.*

Key words: *financial condition of banks, condition of money circulation, condition of cashless settlements in the economy, funds, material assets, services.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.*

Kalit so'zlar: *banklarining moliyaviy ahvoli, pul muomalasining holati, iqtisodiyotdagi naqd pulsiz hisob-kitoblar holati, pul mablag'lari, moddiy boyliklar, xizmatlar.*

Bank - bu pul muomalasini boshqaruvchi tashkilot bo'lib, u to'lovlar va hisob-kitoblarni tashkil etish, huquqiy va jismoniy shaxslarning hisobvaraqlarini yuritish, ularning pul mablag'larini saqlash, kreditlash bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni amalga oshiradi. Bank faoliyatida pul mablag'larining harakati va ularning manbalari haqidagi ma'lumotlarni yig'ishda buxgalteriya hisobi katta rol o'ynaydi. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalangan holda bankning aktiv va passiv operatsiyalari rejalashtiriladi. Moliyaviy hisobotlarning natijasi bankning moliyaviy holatini ko'rsatadi va bank rahbarlariga bank ishini rivojlantirishda aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishga sharoit yaratadi. Shu qabul qilingan siyosat asosida tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi yaratiladi, bu faoliyat bank xodimlarining kunlik ish jarayonlarida hamda operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishda o'z ifodasini topadi.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari xalq xo'jaligi turli tarmoqlariga qarashli korxonalar va tashkilotlarning buxgalteriya hisobi asoslari bilan deyarli o'xshash. Ular 1996 yil avgustidagi Oliy Majlis sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunda o'z ifodasini topgan. Ushbu qonundan kelib chiqqan holda, banklarda buxgalteriya hisobini yuritishning metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi:

- a) xo'jalik faoliyati haqidagi ma'lumotlarni dastlabki hujjatlarda aks ettirish;
- b) xo'jalik operatsiyalarini, bank mulkini puldagi ifodasini belgilash;
- v) barcha operatsiyalarni ikki yoqlama yozuv asosida guruhlashtirish, bunda yozuvlarni hisobvaraqlar rejasidagi hisobraqamlar asosida olib borish;
- g) hisob-kitob va boshqa operatsiyalar yakunida ma'lum sanaga bank xo'jalik faoliyatiga tavsif berish, ya'ni bank balansini tuzish.

Banklarda buxgalteriya ishini tashkil etish asoslari korxonalar buxgalteriya hisobiga o'xshash bo'lsa-da, ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Shu sababli banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilishda quyidagi hujjatlar asos qilib olinadi:

1. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi

Qonuni;

2. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni;

3. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni;

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risida»gi 61-sonli yo'riqnomasi;

5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining boshqa me'yoriy hujjatlari.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish qoidalari «O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risida»gi 61-sonli yo'riqnomada batafsil yoritilgan, jumladan, yo'riqnomada buxgalteriya hisobi yuritish qoidalari, buxgalteriya apparatining strukturasi berilgan, bank operatsiyalari hisobini yuritish va ularni nazorat qilish qoidalari ko'rsatilgan, mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda hujjatlar aylanishini yo'lga qo'yish usullari to'g'risida ko'rsatmalar berilgan. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobotini tuzish hamda xalqaro andozalarga asoslangan boshqa bank operatsiyalarini bajarish hajmlari va tartibi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, yo'riqnomada buxgalteriya hisobi vazifalari ko'rsatib berilgan bo'lib, bu vazifalar quyidagilardir:

1. Hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanishini tezlashtirish, mijozlarga tez va puxta xizmat ko'rsatish;

2. Hisob-kitob, kassa, valyuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to'g'ri bajarish;

3. Bajarilgan operatsiyalar buxgalteriya hisobi va hisobotida o'z vaqtida hamda aniq aks ettirilishini ta'minlash;

4. Bankdan chiqadigan hujjatlarni tegishli rasmiylashtirish va buning natijasida bu hujjat borgan joyda ulardan foydalanishni engillashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ana shu hujjatlar bilan operatsiyalar bajarilayotganda hamda ular tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan mijozlar hisobvaraqlarining hisobi yuritilayotganda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarning, g'ayriqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish;

5. Bankda turgan pul mablag'lari, moddiy boyliklar, shuningdek, qat'iy hisobi yuritiladigan blankalarning kam chiqishi yoki ortiqcha sarflab yuborilishining oldini olish;

6. Operatsiyalar bajarilayotganda bank mansabdor shaxslari qonunga zid xatti-harakatlar qilgan, boyliklar va hujjatlar yo'qotib qo'yilgan hollarda ular javobgarligini hujjatlar bilan asoslash;

7. Operatsiyalar bajarilishi, rasmiylashtirilishining qonuniyligi va to'g'riligi to'g'risida keyinchalik tekshirish va ma'lumotlar olish imkoniyatini yaratish;

8. Bankda ish kuni tartibiga qat'iy rioya qilish;

9. Zamonaviy kompyuter texnikasi vositalaridan keng foydalanish asosida bank operatsiyalarini bajarish uchun mehnat va mablag' sarfini kamaytirish, ular hisobini yuritish, hisobotlar tuzish va hakoza.

Umuman, yo'riqnomada bayon etilgan buxgalteriya ishi va buxgalteriya hisobi yuritishni tashkil etishning tartibi yangi kompyuter texnikasi qo'llaniladigan sharoit asosida belgilangan. Yo'riqnomada va uning ilovalarida berilgan operatsiyalarni bajarish, rasmiylashtirish, hisobga olish va nazorat qilish to'g'risidagi ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasidagi barcha banklar uchun majburiydir.

Yuqorida biz, banklarda buxgalteriya hisobining roli, buxgalteriya hisobi oldida turgan vazifalari, buxgalteriya hisobini olib borishning asoslarini ko'rib chiqdik. Endi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ahamiyati haqida qisqacha fikr yuritamiz.

Tijorat banklari, mulkchilikning qaysi shakliga taalluqli bo'lishdan qat'iy nazar, ular tomonidan yuritiladigan buxgalteriya hisobi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Markaziy bank va Moliya Vazirligi tomonidan chiqarilgan yo'riqnoma va ko'rsatmalar talabi darajasida bo'lish kerak.

Ayni paytda, bu yo'riqnomalar o'z vaqtida bank filiallariga etkazilmog'i, shu bilan birga, mahalliy organlar, soliq nazorati organlari bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim. Chunki bank buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanish doirasi juda kengdir. Xususan, buxgalteriya hisobi va shu asosda tuziladigan bankning moliyaviy hisobotlari, uning ma'lumotlari Davlat tartibga solish organlari (Markaziy bank, Moliya Vazirligi, Davlat Soliq Qo'mitasi) uchun tijorat banklarining moliyaviy ahvoli, pul muomalasining holati, iqtisodiyotdagi naqd pulsiz hisob-kitoblar holatini o'rganish uchun o'ta muhimdir.

Bank egalari uchun, shu bilan birga, uning hissadorlari uchun bu ma'lumotlar bank mablag'larining qanday jalb qilinayotganligi, ulardan qay usulda foydalanilayotganligi, bank aktiv operatsiyalaridan qanday moliyaviy natijalar kutilayotganligini bilish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bank rahbarlari, uning xodimlari, ayni chog'da bank mijozlari uchun ham qiziqarli. Chunki bank rahbarlari va barcha xodimlari bankning kunlik aktivlari va majburiyatlarining holati, daromadlari va xarajatlarining strukturasi bilan qiziqsalar, bank mijozlari esa bank likvidligi va uning barqarorlik darajasini bilishni istaydilar. Bank moliyaviy ahvoli yomonlashuvini sezgan mijozlar boshqa barqaror bankka o'z mablag'larini o'tkazib uning xizmatidan foydalanishni afzal ko'radilar.

Demak, bank buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bank haqidagi aniq ma'lumotlarni olish nuqtai nazaridan Markaziy bank, Soliq nazorati qo'mitasi, barcha tijorat banklari va mijozlar uchun juda zarurdir. Bu ma'lumotlar asosida bankning likvidligi, yo'l qo'yayotgan xatari, rezervlari, kredit portfeli holatini belgilash imkoniyati yaratiladi.

Adabiyotlar:

4. Mehmonov S.U., Karimova Z.X., Tursunov A.S. Byudjet tizimi. Darslik. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. -544 b.
5. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet hisobi. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya” 2018. 428 b.
6. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya” 2019. 329 b.

O'QUVCHILARDA HARBIY VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Qodirov Bekzod Komiljon o'g'li
Davlatobod tumani 64-umumiy
o'rta ta'lim maktabi CHQBT rahbari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10545441>

Abstract: *Pedagogical-psychological methods and means of educating the young generation in the spirit of patriotism are presented in this article.*

Key words: *patriotism, love of country, respect, education, understanding of history, pride, pride, history, values.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik- psixologik usul va vositalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, vatanni sevish, ardoqlash, tarbiya, tarixni anglash, faxr, iftixor, tarix, qadryatlar.*

Yangi O'zbekistonda oila tarbiyasida hamda maktabgacha va maktab ta'lim muassasalarida bolalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari keng ko'lamda tashkil qilish yo'lga qo'yilmoqda. Yosh avlodda vatanni sevish uni ardoqlash kabi tuyg'ularni shakllantirishda uning psixikasiga ta'sir etish muhim hisoblanadi. Hozirgi zamon yoshlarida vatanparvarlik hissi kamayib ketmoqda. Bu juda achinarli holatdir. Chunki har qanday davlatga jismonan sog'lom, baquvvat, mard, intizomli, tashabbuskor fuqarolar kerak. Yoshlarni tarbiyalashning eng muhim elementi vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish bo'lishi kerak, chunki busiz shaxsning barkamol va har tomonlama rivojlanishi mumkin emas. Shu bois farzandlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish zarur. Yosh avlodda tuyg'ularni shakllantirishga bag'ishlangan tadbirlarda bolalar insonparvarlik, odob-axloq, o'z-o'zini hurmat qilish kabi tushunchalar bilan tanishadi. Bundan tashqari, bolalar o'z vatanining siyosiy tizimini, davlat institutlarining tuzilishini va shunga o'xshash tushunchalarni eng avvalo oilada kichik maktab yoshidan MTT larda va maktablarda o'rganib asl mazmun mohiyatini chuqur anglab yetmog'i va ongiga singdirmog'i lozim.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish quyidagi tadbirlarda natijasi seziladi: turli muzey va ekskursiyalarni sayohat qilish, faxriylar bilan uchrashish, shuningdek, G'alaba kunini nishonlash bilan bog'liq turli tadbirlar, masalan, harbiy-vatanparvarlik qo'shiqlari tinglash. Harbiy-sport jamoaviy o'yinlarini o'ynatish. Maktab yoshidagi farzandlarimizni chaqiruvdan oldingi tayyorgarlik asoslari, qurolli kuchlarning turli bo'linmalari, ularning har birida xizmat qilish xususiyatlari va boshqalar bilan tanishtirish.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy maqsadi. albatta, vatanparvarlik tuyg'ularini, Vatanga sadoqatni shakllantirishda yotadi. Shu bilan birga, ushbu tadbirlarning o'g'il bolalarni armiyadagi bo'lajak xizmatga tayyorlash, shuningdek,

qizlar va o'g'il bolalarning chidamliligi va jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish kabi vazifalarni e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bolalarda o'z yurti, vatandoshi bilan faxrlanish, o'z davlati tarixiga hurmat hissini uyg'otadi. Nihoyat, bunday tadbirlar jamiyatning yosh a'zolarida faol fuqarolik pozitsiyasi va o'z so'ziga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, qilmishiga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jamiyat hayoti bugungi kunda yangi avlodni tarbiyalash sohasida eng jiddiy vazifalarni qo'ymoqda. Davlatga sog'lom, mard, tashabbuskor, intizomli, savodli, o'qishga, uning manfaati uchun mehnat qilishga, kerak bo'lsa, uni himoya qilishga tayyor bo'ladigan odamlar kerak. Maktabning asosiy vazifalaridan biri kelajak avlod tarbiyasi. Tarbiya jarayonining eng muhim tarkibiy qismi vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishdir. Ushbu komponent mavjud bo'lmasa, chinakam barkamol shaxsni tarbiyalash haqida gapirish mumkin emas. Ana shu vazifalardan kelib chiqib, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki aynan shu narsa mamlakatimizning mahoratli va kuchli himoyachilarni tayyorlashga salmoqli, ayrim hollarda esa hal qiluvchi hissa qo'shishi kerak. Vatan yosh avlod bilan ishlashning konsepsiyasi va shakli sifatida har birimiz o'z ildizimizni, Vatanimiz taqdirini bilishimiz, zamondoshlarimiz ajdodlari buyuk ishlari bilan faxrlanishimiz, sodir bo'layotgan voqealar uchun tarixiy mas'uliyatni anglashimiz kerak. Jamiyat va davlat, an'analar bo'yicha tarbiya vatanparvarlik tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq va uzviy bog'liqdir. Yosh yigitning ajralmas fazilatlarini tashkil etuvchi mardlik, harbiy burchga sadoqat, chidamlilik, o'zaro yordam, mehnatsevarlik, fidoyilikka shaylik kabi an'analar avloddan-avlodga o'tib, mustahkamlanib, ko'payib bordi. Yoshlarni qahramonlik-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan himoyasiga tayyorlash davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Ta'lim insonning eng muhim ehtiyojlaridan birini qondiradi va kelajakda moddiy ishlab chiqarishning o'sishiga olib keladigan ijtimoiy sarmoyadir. Bu kelajak avlodlar mas'uliyatini oshirish bilan birga, bugungi avlodimizning turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Hech kimga sir emaski, bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifasi ayniqsa dolzarbdir. Ularning nasl-nasabini, ona yurti, yurti tarixini o'rganish, nafaqat o'z Vatanini sevadigan, balki siyosiy madaniyatli, tanqidiy fikrlaydigan fuqaroni tarbiyalash bilan ham o'qituvchilar bo'lmasa, kim bilan shug'ullanishi kerak. uning bolalari. Vatanga buyuk ajdodlarimiz xotirasiga munosib hissa qo'shishga qodir insonlar kerak. Tarixdan ma'lumki Vatanni sevish, uni e'zozlash tushunchalari insonlar hayotida katta ro'l o'ynagan. Bunga tarix bir necha bor guvoh bo'lgan. Kitobxonlar uchun tanish bo'lgan bir voqeani misol sifatida aytmoqchiman. Xitoy hukumdorlaridan biri Xun qabilalari hujumini qaytarish maqsadida Buyuk Xitoy Devorini qurish haqida buyruq beradi. Ustalarga balandligi 12 metr eni esa 4 ta otliq sig'adigon darajada bo'lishini tayinlaydi. To'g'ri devor shu darajada baquvvat va salobatli edi. Ko'chmanchi xalqlarni birortasi bu devordan o'tolmas edi. Shunda ko'chmanchi xalqlar boshqa bir taktikani qo'llashdi. Ular darvoza soqchilarini pulga sotib olishdi. Shunday qilib 12 metrlik ulkan devorni hatlab o'tishibdi. Shunda xitoyliklar o'z xatolariga iqror bo'lishgan ekan. Biz ulkan devor quribmiz lekin xalqimizga vatanparvarlik tushunchasini yaxshi singdirolmabmiz deb attang qilishibdi. Bundan

ko'rinadiki harbiy sohada texnikalar yetarli bo'lishi qanchalik muhim bo'lsa, yoshlar ongiga vatanparvarlik tushunchasini singdirilishi ham shu darajada muhim.

Xulosa Hozirgi yoshlarimiz, kelajak egalarimizga shuni aytmoqchiman Vatan qadri qanday ekanligini musofirlardan so'rang. Uzoq safarda yurgan yurtdoshlarimiz vatanimizga kelar ekan yurt tuprog'ini o'pish bilan qadam bosadilar. Vatan sog'inchi, e'zozlash, qumsash tushunchalari shu birgina so'zda mujassam. Hozirgi kunlarda yoshlarimizni juda ko'pchiligi chet davlatlarda o'qish va ishlash hohishi borligini bildirmoqda. Farzandlarimizni ta'lim olgani yaxshi lekin olgan bilimlarini o'z yurtimizning rivojlanishi ulkan cho'qqilarni zabt etish uchun ishlatmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Ochilova "Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorislik"
Toshkent: Istiqbol 2009
2. Mahkamov U.I. "Oquvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muommolari" Toshkent: Fan-1995
3. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. - 97 b

LEARNING STRATEGIES IN MEDICAL TERMINOLOGY

Ermatova Rano Omonovna

Senior teacher

Termez branch Tashkent Medical academy

[*tmatbermatova@gmail.com*](mailto:tmatbermatova@gmail.com)

[*https://doi.org/10.5281/zenodo.10545579*](https://doi.org/10.5281/zenodo.10545579)

Abstract: *This study is concerned with the learning of medical terminology by foreign students in Medical institutions. It aims to investigate the use of learning strategies in relation to medical vocabulary use. The subjects under study included 14 Indian students in Medical Academy . Participants' mid-term scores and medical terminology learning strategy questionnaire were used to inquire learners' use of learning strategies. The results of this study indicated that students in general prefer to use written repetition, verbal repetition, bilingual dictionary strategies. In addition, the students most proficient in medical terminology used various kinds of strategies more often than the less proficient students. Implications of these and other findings are discussed and suggestions are made regarding the teaching of learning strategies in medical terminology courses.*

Key Words: *medical terminology, bilingual dictionary strategies, L2 vocabulary learning strategies*

Introduction

Of interest for the present study is the learning of medical terminology by foreign students in Medical academy. We are particularly interested in learners' strategy use in the learning of medical terminology. Medical language is the language employed by medical students in writing medical records and communicating with each other. Medical students need to learn to read and write medical terminology in L2 to complete hospital admission notes, diagnosis, and orders, which, later on, physicians must read, follow in order to carry out nursing interventions and take care of their patients. For these medical students, their first step to access medical language is to learn medical words. In Medicine, students are required to take the course "Medical Terminology" to meet the demands of their future jobs. In order to help teachers to overcome the challenge of teaching medical terminology and help nursing pre-professionals learn medical terminology more effectively, the researcher is motivated to explore the learning of medical terminology. Medical terminology is a specific terminology which is used to achieve the purpose of communication in the health care field efficiently and precisely, such as in writing diagnosis and nurses' notes. Basically, medical terminology has two characteristics. First, except for the one-syllable words, most medical words are made of roots and affixes. The affixes can be classified into prefix and suffix. Any single medical term has at least one root determining its meaning and one or more prefixes or suffixes to change the part of speech or change the meaning of the word. Teachers generally use this specific word

formation to help students deal with these words. But, recognizing the word parts used to build medical terms still seems to be a major obstacle to students' learning medical terms. Moreover, using word parts occasionally has pitfalls in guessing word meaning from context.

Second, medical vocabulary is an open system with a large number of low-frequency words and newly created words. Teaching and learning all the words seem to be an impossible task. Teaching learners' vocabulary learning strategies for inferring the word meanings is more efficient than teaching every vocabulary item encountered.

Research Questions: The primary purpose of this study is to explore the learning of medical terminology by Indian students. It focuses on the frequency of use of strategy by Indian students in learning medical terminology and to identify the strategies related to success or failure in learning the target. The secondary aim was to describe the strategy use pattern by different proficiency levels.

In brief, this study attempts to seek answers to the following research questions:

1. What are the strategies used most and least frequently by the learners in the study?
2. Which strategies are used most often by the students who are the most proficient in medical terminology?
3. Does the overall medical terminology learning strategy use vary across different proficiency levels?
4. Does the use of six categories of medical terminology learning strategy vary across different proficiency levels?

5 Literature Review

In order to get more insights on the study of medical words learning strategies, this section will first review two recent studies of L2 vocabulary learning strategies and then studies of individual medical terminology strategies.

Subjects : Medical terminology is a required subject in this first-year students , so all of these participants were taking Medical Terminology course. The class met four hour a week.

Instrument : The test for evaluating the subjects' proficiency level in the current study was the Medical Terminology mid-term exam made by teachers in the academy. This is a curriculum-specific achievement test, rather than a general proficiency test. There were 50 questions in total in the test. Subjects were required to write medical words on the basis of the English definitions of each test item.

The instrument employed for collecting data on strategy is the medical terminology learning strategies questionnaire developed by the researcher. The categories of medical terminology were based on Schmitt's (1997) taxonomy for studying vocabulary strategies. Section one contained five questions, the purpose of which was to collect such background information as subjects' English proficiency, mid-term score of medical terminology. Section two included 42 items grouped into six categories of medical terminology learning strategies:

Discussion : This section will discuss the medical terminology learning strategies of Indian students, the strategies found to used most often and least often by the foreign students who were most proficient in medical terminology.

In the present study, results indicate that there are major differences in patterns of strategy use among students of different proficiency levels. High-level learners are better at gaining knowledge of a new word; they remember more effectively; they control and evaluate their own vocabulary learning better than low-level learners. However, neither the high-level learners nor the low-level learners are good at employing social strategies to discover new meanings and learn vocabulary. These social strategies involve asking for clarification or verification, cooperating with peers, and interacting with native speakers of the target language. Since teacher-centered approach is employed by most of the teachers, students rarely have chances to discuss and cooperate with peers.

Moreover, very few students have courage to ask questions in class. This behavior might be influenced by the Indian educational system. Furthermore, in an EFL context like Indian, few chances are available for students to interact with native speakers or foreign medical staff.

When strategies used by high-level learners are compared to those by low-level learners, it is found that written repetition and verbal repetition were the most and the second most popular strategies among both high-level and low-level learners.

Conclusion : The study sought to provide valuable information concerning the strategy use of foreign students when learning medical terminology and to explore what kind of relationship exists between strategy use and proficiency in medical terminology. Findings of the study revealed that foreign students in general prefer to use written repetition, verbal repetition, bilingual dictionary strategies. In contrast, asking teacher for a new sentence including the new medical word, listening to tape of word list, and discovering new meaning from group activity are the strategies least used by learners. Like previous researchers, we found significantly greater overall use of learning strategies among more successful learners and significant differences by proficiency level in students' use of four strategy categories: determination, memory, cognitive and metacognitive. However, neither the high-level learners nor the low-level learners are good at employing social strategies to discover new meanings.

References

1. Chamot, A.U & Kupper, L. (1989). Learning strategies in foreign language instruction. *Foreign Language Annals*, 22(1), 13-24.
2. Cohen, A., & Aphek, E. (1980). Retention of second language vocabulary over time: investigating the role of mnemonic association. *System*, 8, 221-235.
3. Dunkle, S. (1983). A comparison of medical terminology exam scores of students studying by computer with students studying by slide-tape. ERIC Document. No. ED244825.
4. Ellis, R. (1994). *The study of second language acquisition*. New York: Oxford University Press.
5. Fang, F. S. (1985). The investigation and evaluation of the teaching methods on medical terminology. Paper presented at the Second National Conference on TESOL, Taipei, Taiwan, R.O.C.

6. Gylys, B. A., & Wedding, M. E. (1983). *Medical terminology*. New York: Norwood, N. J.: Ablex Publishing Corporation.
7. Huang, X., & Van Naerssen, M. (1985). Learning strategies for oral communication. *Applied Linguistics*, 6, 287-303.
8. Learning strategies application with students of English as a second language. *TESOL Quarterly*, 19, 285-296.
9. Oxford, R.L. (1985). *A new taxonomy for second language learning strategies*.
10. Washington, DC. : ERIC Clearinghouse on Language and Linguistics.
11. Oxford, R. L. (1990). *Language learning strategies: What every teacher should know*. Boston: Newbury House.
12. Schmitt, N. (1997). Vocabulary learning strategies. In N. Schmitt, & M. McCarthy (Eds.), *Vocabulary: Description, acquisition and pedagogy*(pp.199-227). New York: Cambridge University Press.
13. Schmitt, N. (2000). *Vocabulary in language teaching*. Cambridge, England: Cambridge University Press.
14. Sheridan, E. M. (1981). *Literacy and language reform in the People's Republic of China*

ADABIY TALAFFUZNING O‘RNI VA UNING TUTGAN AHAMIYATI

Achilova Nasiba Saidovna

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi, ona tili va adabiyot fani
o`qituvchisi*

achilovanasiba63@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10545862>

Аннотация: В этой статье рассматривается роль литературного произношения и его значение.

Ключевые слова: культура речи, умение формировать у учащихся речевые навыки на должном уровне, формальная, научная и быденная речь.

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy talaffuzning o‘rni va uning tutgan ahamiyati borasida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Nutq madaniyati, o‘quvchilarda nutqiy malakalarni kerakli darajada shakllantira olish, rasmiy, ilmiy va oddiy nutq.

Adabiy tildan foydalanish bugungi kunda dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Kundalik hayotimizda bu bilan bog‘liq juda ko‘p hodisalarga duch kelamiz. Imloviy savodxonlik borasidagi kamchiliklar ko‘p yillardan buyon ko‘zga tashlanadi. Biroq bugungi kunda eng katta muammo adabiy talaffuzdir. Adabiy til millatni birlashtiradi. Ming afsuski, davlat muasassalari hisoblangan bog‘chalardan tortib, butun xalqni ortidan ergashtirayotgan, ma‘rifat ulashayotgan televideniya va radio eshittirishlarda adabiy til qoidalari qo‘pol ravishda buzilmoqda. “Davlat tili to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga deyarli rioya qilinmayapti. Ko‘cha ko‘yda, rasmiy tashkilotlarda savodsizlarcha yozilgan e‘lonlarga, peshtaxtalarga ko‘zingiz tushganda ensangiz qotadi.

Insonning kimligini uning kiyim boshi emas, nutq, muloqot madaniyatiga egaligi aytib turadi. Nutq madaniyati deganda ko‘proq og‘zaki nutq tushuniladi. Achinarli tomoni shundaki, qo‘shiqlari, ko‘rsatgan xizmatlari uchun el ardog‘iga tushgan ayrim san‘atkorlar, sport ustalari va boshqalar televideniya yoki radio orqali xalq bilan uchrashganda noadabiy qatlamga oid so‘zlarni ishlatib, adabiy talaffuz qoidalarini oyoq osti qilmoqdalar. Nodavlat tele va radio studiya boshlovchilarining ma‘lum hudud doirasigagina xos bo‘lgan shevalardan bemalol foydalanayotgani davlat tili va uning qonunlarini mensimaslikdan o‘zga narsa emas. Har bir kamera qarshisida o‘tirgan tele va radio boshlovchi uni faqatgina mahalladoshlari, yaqin qarindoshlari emas, butun respublika, xalq eshitayotganligini, ko‘rayotganligini unutilib qo‘yadimimikin? Adabiy tilgina barchaga tushunarli bo‘lishini, adabiy talaffuzgina hammaga birdek yoqishini bilmasa kerak. Aks holda mamlakat aholisining nafratini qo‘zg‘ab, ensasini qotirib o‘tirmas edi. Bu borada Birinchi Prezident I.A.Karimov o‘zining “Yuksak ma‘naviyat–yengilmas kuch” nomli asarida alohida to‘xtalib, ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko‘p ishlar

qilishimiz lozimligini ham unutmashimiz zarurligini, ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish hollari uchrab turishi bu masalalarning hali hanuz dolzarb bo'lib qolayotganligini ta'kidlaydilar.

Ma'lumki tildan barcha vaziyatlarda bir xilda foydalanilmaydi. Undan nutq vaziyatiga mos ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda ta'lim muassasalarining, jumladan, umumta'lim maktablarining alohida o'rni borligini ta'kidlash lozim. Yuqorida qayta-qayta tilga olinayotgan dolzarb muammoning yechilish o'rniga jiddiy tus olishiga aynan maktab o'qituvchilari aybdor, desak xato bo'lmaydi. Ona tili darslari o'quvchilarda nutqiy malakalarni kerakli darajada shakllantira olishi zarur. Har bir o'quvchi o'z ona tilidan o'ta mohirlik bilan foydalana olishi, istalgan muloqot vaziyatiga mos (rasmiy, ilmiy va oddiy nutq vaziyati bo'lsin) o'z fikrini jozibali, ta'sirchan ifodalay olishi kerak. Umumta'lim maktablari bu borada qanday natijalarga erishayotgani barchamizga ma'lum. To'g'ri, barcha maktab o'quvchilarini, shu jumladan, o'qituvchilarini ham no'noqlikda, mas'uliyatsizlikda ayblab bo'lmaydi. Biroq aksariyat o'qituvchilarning o'z nutqiy kamchiliklari ustida ishlamasligi, eng asosiysi, adabiy talaffuz ko'nikmasiga ega emasligi, imloviy, grammatik jihatdan savodxon emasligi ming-minglab o'quvchilarning jamiyatda o'z o'rinlarini topaolmasligiga sabab bo'lmoqda. O'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari muayyan ixtisoslikka yo'naltiradi. Umumta'lim maktabida esa muntazam ona tili darslari orqali o'quvchilar tildan mohirona foydalanish malakalariga ega bo'ladilar. Demoqchimizki, adabiy talaffuz ko'nikmalari maktabda shakllanadi. Respublikamizning turli hududlarida o'tilayotgan darslarning asosiy qismi o'qituvchining layoqatsizligi (buni vijdotsizlik deb ham atash mumkin) tufayli adabiy til, qolaversa, davlat tili haqidagi qonunga xilofdir. Ta'limning jadal rivojlanishiga matbuot, ayniqsa, televideniyaning ko'magi juda zarur bo'lgan bir paytda ularning o'zlari ham tanqidbop va tahrirtalab bo'lib turibdi. Adabiy talaffuz masalasi, avvalo, har bir kishining shaxsiy muammosi bo'lib, u so'zlovchi tomonidan bartaraf etilmasdan muloqotga kirishilganda ijtimoiy maqomga ega bo'ladi. Davlatning, jamiyatning talablariga, ehtiyojiga mos bo'lmagan mutaxassis o'z o'rniga ega bo'lmaydi. Adabiy talaffuz, go'zal nutq madaniyatiga ega bo'lgan xodim har qanday vaziyatda boshqalardan ustun bo'ladi. Eng asosiy sabablardan yana biri tilning fonetika orfoepiya bo'limlari ilmiy jihatdan ham, metodik jihatdan ham alohida o'rganilgan emas. Universitetlarning filologiya fakultetlarida, asosan, ona tili va adabiyot o'qituvchilari yetishib chiqayotgan bo'lsada, bo'lajak o'qituvchilarning nutqi, talaffuzi ustida maxsus ishlanmaydi. Bitiruvchilar o'z nutqiy nuqsonlari bilan umumta'lim maktablariga, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarga ishlab chiqarishga jalb qilinadilar. Yana qaysi tuman bo'lsa, o'sha hudud shevasida darslar davom etaveradi. Nutq madaniyati masalasi muammoligicha qolib ketaveradi.

Tan olish kerakki, boshlang'ich ta'lim o'z vazifasini qoniqarli tarzda bajarmoqda. Bizning asosiy muammomiz 5-9-sinf o'quvchilari. Manashu davrda o'quvchilar bilan nutqiy malakalarni shakllantirish ustida jiddiy ishlash kerak bo'ladi. Adabiy talaffuzga o'rgatishga kelsa, respublikamizning turli hududlari bilan bo'liq turli tovushlar talaffuzida muammolar uchraydi. Kishi nutqida birgina unli yoki undosh tovushni, yoxud birgina so'zni noro'g'ri talaffuz qilsa ham uning nutqi buzuladi. Endi Samarqand, Buxoro,

Surxondaryo viloyatlarining ayrim hududlarida o‘ unlisining talaffuzida kamchilik bor. Ona tili darslarida xuddi biror chet tilini o‘rgangandek, avvalo muammoli tovushlar ustida jiddiy ishlash kerak bo‘ladi. Bu o‘rinda talaffuz holati aks etgan oksilografik rasmlardan (ayrimlari qiyosiy bo‘ladi), asosan, maxsus fonetik mashqlardan unumli foydalanish samara beradi. Adabiy talaffuzga o‘rgatishning eng samarali yo‘li o‘qituvchining o‘zi tanlangan matnni qayta-qayta o‘qib yoki yoddan aytib berishidir, ammo bu usuldan to‘la foydalana olmaymiz chunki, aksariyat ona tili o‘qituvchilarimizning talaffuzi talabga javob bermaydi. Bunday holatda o‘qituvchi nima qilishi lozim? Yozma nutqni tasdiqlangan imlo qoidalari(kitob shaklida mavjud) asosida o‘rgatish mumkin. Og‘zaki nutqni qaysi mezonlar asosida o‘rgatish mumkin degan savol tugulishi tabiiy. Adabiy til, adabiy talaffuz ko‘p yillar davomida shakllanadi, sayqallanadi. Oddiy so‘zlashuv nutqining qancha sheva mavjud bo‘lsa shuncha varianti mavjud. Ammo adabiy tilning, davlatning rasmiy tilining yagona talaffuz varianti mavjud bo‘lib, xizmat vazifasidagi barcha shaxslar shu tilda so‘zlashadi. Mamlakat miqyosida adabiy talaffuz ko‘nikmalarining shakllanishida davlat telekanallari suhandonlari, xususan, information dasturlarining boshlovchilari; ayniqsa, dublyaj ustalarining talaffuzi, muloqot madaniyati barchamiz uchun etalon vazifasini bajaradi. O‘qituvchilar, nomlari keltirilgan notiqalarning ovozlari yozilgan magnit tasmlardan darslarda maxsus foydalanishi lozim. O‘quvchilarga talaffuz bo‘yicha, ifodali o‘qish yuzasidan mustaqil topshiriq berilganda, maxsus tavsiya qilingan tele va radio dasturlarni tinglashga yo‘naltirilsa, har tomonlama foydalidir. Umumta’lim maktab, akademik litsey o‘quvchilari uchun talaffuz va imloga doir ko‘nikmalarni jadal shakllantiruvchi metodik tavsiyalar, uslubiy qo‘lanmalar tayyorlandi. O‘zbek filologiya fakulteti talabalari uchun “O‘zbek tilining amaliy fonetikasi” fani bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarning talaffuz va og‘zaki nutq bilan bo‘liq malakalarini shakllantirish maqsadida tanlanma fan sifatida tashkil qilinishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1996.159-b.
2. A. G‘ulomov, H. Ne‘matov Ona tili ta’limi mazmuni. –T.: O‘qituvchi, 1995. 98-b

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	T.A.Xo'jakulov (PhD) dotsent, S.A.Raximberdiyev SUV OMBORLARIDAGI SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI TIZIMLI TAHLILI VA MUHOFAZA QILISH USULLARI	5
2.	Ilyosov Botir Qodirovich, Qadamboev Shoxruxbek Jamoliddin o'g'li MUQOBIL ENERGIYA VOSITALARI VA ULARNING SO'NGGI YONDASHUVLARI	12
3.	R.M.Yoqubovna, Sapayeva Laylo Norbayevna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUV FAOLIYATIDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	19
4.	Xaydarova Yanglish Baxritdinovna TA'LIMDA TARBIYA JARAYONINING MAZMUN-MOHİYATI	22
5.	Haydarov Temur Jaxongir o'g'li TARIX FANI O'QITISHDA METODLAR VA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH	27
6.	Sharobitdinova Dilfuza Madaminovna, Dostonova Nodiraxon Muxtorjon qizi, Toshxodjayeveva Nigora Odiljon qizi MATEMATIK BILIMLARNI TATBIQ ETISH – DAVR TALABI	32
7.	Xoliqov Z.B. , Utaeva G.N. KUZGI BUG'DOY XOSILDORLIGINING SHO'RALARNI (S'HENUPODIUM) GERBITSIDLAR VOSITASIDA BARTARAF ETISHGA BOG'LIQLIGI	35
8.	Pirnazarova Nasiba Abdunabi qizi, Rajabboyeva Mohichehra Amatjon qizi, Abdumajidova Sevinch Abdurauf qizi MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR ISHLAR TIZIMI	40
9.	Kuvondiqova Dildora Jaxongir qizi XALQ TABOBATI VA UNING RIVOJLANISHI	44
10.	Xidirova Pokiza Shamsiddinovna INGLIZ TILINING DUNYO DAVLATLARI ORASIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI	48
11.	Xolbekova Sayyora Amanjonovna, Pariyeva Shohsanam Olimovna TIL O'QITISHDA INTERFAOL USULLARNI QO'LLASH	53
12.	Azimbayeva Ranohon Yuldashevna METHODS AND PROCEDURES OF LEXICOLOGY	56
13.	Mirzayeva Gulshan Azamatovna DIFFICULTIES IN TEACHING AND LEARNING PRESENT PROGRESS IN PRIMARY EDUCATION	60
14.	Maysara Eshniyazova Beknazarovna LINES ON THE PERSONALITY OF THE LYRICAL HERO IN THE WORK "ARBA'IN"	64
15.	Yusupova A.K, Atajanova K.S QOVOQDOSHLAR OILASIGA MANSUB AYRIM QOVUN NAVLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI	69
16.	Meyliyeva Nigora LINGUACULTURAL ASPECTS OF VERBS SENSE PERCEPTION IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES	73
17.	Jo'rayeva Ma'mura Ramazonovna ONA TILI VA SAVODXONLIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	77
18.	Junayeva Movzuda Mamasoliyevna MUSIQA DARSLARINI FANLARARO ALOQADORLIK	81
19.	Ibadova Zohida Nuridinovna PSIXOLOGIYA FANI VA UNING VAZIFASI	88
20.	Maxmanazarova Muxlisa Abduvaxobovna	92

	METHODS OF TEACHING ENGLISH TO SCHOOLCHILDREN WITH MODERN COMMUNICATION TECHNOLOGIES	
21.	Aminova Mumtozbeqim Abdulla qizi NEMIS TILIDA GRAMMATIK VA SO'Z YASASH USULLARI ORQALI STILISTIK BO'YOQQA ERISHISH IMKONIYATLARI	98
22.	Mamanazarova Bahora BIOLOGICALLY ACTIVE SUBSTANCES. VITAMINS	102
23.	Фарманкуловой Муслимы АРОМАТИЧЕСКОЕ МАСЛО- БЕСЦЕННЫЙ ДАР ПРИРОДЫ	104
24.	Ro'ziyev Farxod Jo'rayevich p.f.f.d (PhD), Dilova Firuza Ziyadovna МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA SOFT (YUMSHOQ) KO'NIKMALARNI SHAKILLANTIRISH	108
25.	Нурмухаммадова Нилуфар Рамил кизи МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ	113
26.	Ismoilov Shapaxat Sodikovich XODIMLAR BILAN MEHNAT HAQI VA UNGA TENGLASHTIRILGAN TO'LOVLAR BO'YICHA HISOBLASHUVLAR HISOB	119
27.	Qo'shayev To'xtasin Abduqodirovich BUXGALTERIYA XODIMLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI	125
28.	Xudaykulov Amir Melikulovich BUDJET TASHKILOTLARIDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNI JALB QILISH VA ULARDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI	128
29.	Ismoilov Shapaxat Sodikovich BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISH	133
30.	Qodirov Bekzod Komiljon o'g'li O'QUVCHILARDA HARBIY VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	136
31.	Ermatova Rano Omonovna LEARNING STRATEGIES IN MEDICAL TERMINOLOGY	139
32.	Achilova Nasiba Saidovna ADABIY TALAFFUZNING O'RNI VA UNING TUTGAN AHAMIYATI	143

Note!!! The numbers in the articles included in the journal "Innovation Science and Research" indicate that the information is correct and that the authors are personally responsible for the content of the article.

International Scientific Journal
Innovation Science and Research
Volume 1 Issue 8

LLC “Innovation Science and Research”

License №:083239 23.05.2023

Address: Uzbekistan, Tashkent city, Almazar District, Beshkurgon-3 1/84

Sciencejournal.uz, https://t.me/sciencejournals_uz, +998336372242